MQTT protokoli. MQTT – bu publish/subscribe arxitekturasiga asoslangan, IoT tizimlari uchun keng qo'llaniladigan protokol. MQTT broker orqali ma'lumotlar almashish tizimini ta'minlaydi va QoS (Quality of Service) darajalarini qo'llab-quvvatlaydi [16]:

- QoS 0 – "at most once", eng tez, paket yo'qotish mumkin;
- QoS 1 – "at least once", takroriy paketlar bo'lishi mumkin;
- QoS 2 – "exactly once", eng ishonchli, lekin sekin.

Nazorat-o'lchov ma'lumotlari uchun odatda QoS 1 yoki QoS 2 tanlanadi.

Ma'lumotlarni siqish va kodlash. Mobil aloqa kanalining cheklangan o'tkazuvchanligi va batareya resurslarini tejash maqsadida ma'lumotlarni siqish algoritmlari qo'llaniladi. Skalar ma'lumotlar uchun delta kodlash, Run-Length Encoding (RLE) usullari samarali. Multimedia ma'lumotlar uchun JPEG, H.264, H.265 kabi standart siqish algoritmlari ishlatiladi [12].

Delta kodlash printsipli: faqat o'zgarishlar uzatiladi, bu ma'lumot hajmini 50-70% ga kamaytiradi:

$$\Delta x_i = x_i - x_{i-1} \quad (6)$$

bu yerda: Δx_i – i -o'lchov o'zgarishi, x_i – joriy qiymat, x_{i-1} – oldingi qiymat.

O'zbekiston sharoitida qo'llanish xususiyatlari. O'zbekiston geografik va iqlimiy sharoitlari sensor tarmoqlarida nazorat-o'lchov ma'lumotlarini uzatishda qo'shimcha talablar va muammolar keltirib chiqaradi [6-7].

Geografik va iqlimiy omillar. O'zbekistonning katta hududi (448,978 km²) va kontinental iqlimi sensor tarmoqlari dizaynida quyidagi omillarni hisobga olishni talab qiladi:

- Harorat diapazoni: -30°C dan +50°C gacha;
- Yuqori chang va chang bo'ronlari – sensorlarning himoya darajasi IP65 va undan yuqori bo'lishi kerak;



- Quyosh radiatsiyasi intensivligi yuqori – quyosh panellaridan foydalanish imkoniyati.

Mobil aloqa qamrovi cheklovlari. Qishloq joylarida va cho‘l hududlarida mobil aloqa signali zaif yoki yo‘q. Bu muammoni hal qilish uchun quyidagi yechimlar taklif etiladi:

- Gibril topologiya: sensor tugunlar mesh tarmoq orqali bir-biriga ulanib, bir yoki bir nechta gateway tugun mobil aloqa orqali markaziy serverga ulanadi;
- Satellite IoT texnologiyalaridan foydalanish (masalan, LoRaWAN + satellite backhaul);
- Ma‘lumotlarni lokalda saqlash va mobil aloqa mavjud bo‘lganda uzatish (store-and-forward).

Xulosa qilib aytganda, sensor tarmoqlarida nazorat-o‘lchov ma‘lumotlarini uzatish jarayonida ma‘lumot turi, hajmi, uzatish chastotasi, kechikish, ishonchlik va energiya sarfi talablari hisobga olinishi zarur. Mobil aloqa texnologiyalari (NB-IoT, LTE-M, 5G) ushbu talablarni qondirishga qodir. Protokol tanlovi (CoAP, MQTT) va ma‘lumotlarni siqish algoritmlari energiya samaradorligini oshiradi. O‘zbekiston sharoitida geografik va iqlimiy omillar, shuningdek, mobil qamrov cheklovi hisobga olinishi kerak.

3. ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA YECHIMLAR TAHLILI.

Sensor tarmoqlarida mobil aloqa texnologiyalaridan foydalanish so‘nggi 10 yil davomida jadal rivojlanib kelmoqda. Xalqaro tadqiqotlar NB-IoT, LTE-M va 5G texnologiyalarining sensor tarmoqlari uchun keng imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatmoqda [20-21]. Ayniqsa, IoT qurilmalari soni 2025-yilga kelib 75 milliarddan oshishi kutilmoqda, bu esa mobil operatorlar uchun yangi bozor segmentini shakllantirmoqda [22].

Zamonaviy tadqiqotlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda olib borilmoqda:


Energiya samaradorligini oshirish. NB-IoT va LTE-M texnologiyalari uchun yangi energiya tejankor algoritmlar ishlab chiqilmoqda. PSM (Power Saving Mode) va eDRX (extended Discontinuous Reception) mexanizmlari batareya umrini 10 yilgacha uzaytirish imkonini beradi [23]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, adaptiv uzatish quvvati va optimal ma‘lumot uzatish strategiyasi energiya sarfini 40-60% ga kamaytirishi mumkin.

QoS (Quality of Service) ta‘minlash. Turli turdagi sensor ma‘lumotlari uchun differentsiallangan xizmat ko‘rsatish mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. 3GPP Release 16 va 17 da kiritilgan yangi xususiyatlar critical IoT ilovalarini qo‘llab-quvvatlashga imkon beradi [24]. Bu ayniqsa tibbiy monitoring va sanoat avtomatikasi kabi real-time tizimlar uchun muhimdir.

Edge computing integratsiyasi. Sensor ma‘lumotlarini tarmoq chetida (edge) qayta ishlash latensiyani kamaytirish va markaziy server yuklamasini kamaytirishga yordam beradi. Multi-access Edge Computing (MEC) arxitekturasini sensor tarmoqlar bilan integratsiyalashtirilmoqda [25].

Texnik muammolar va cheklovlar. Sensor tarmoqlarida mobil aloqa texnologiyalaridan foydalanishda bir qator texnik muammolar va cheklovlar mavjud:

Signal tarqalishi va qamrov muammolari. NB-IoT va LTE-M texnologiyalari keng qamrov ta‘minlasa-da, bino ichidagi chuqur penetratsiya (deep indoor penetration) va tog‘li hududlarda signal zaiflashuvi muammosi mavjud (3-rasm).



3-rasm. Signal quvvatining masofaga bog‘liqligi

Path loss modeli quyidagicha ifodalanadi:

$$PL(d) = PL_0 + 10n \log_{10}(d/d_0) + X_\sigma \quad (7)$$

bu yerda: $PL(d)$ – masofa d dagi yo‘qotish (dB), PL_0 – mos yozuvlar masofasidagi yo‘qotish, n – yo‘l yo‘qotish ko‘rsatkichi (2-6 oralig‘ida), d_0 – mos yozuvlar masofasi (1 m), X_σ – shadow fading (Gaussian tasodifiy o‘zgaruvchi).

Interferensiya va spektr cheklovlari. Litsenziyalangan chastota diapazonlarida ishlash afzalliklarga ega bo‘lsa-da, spektr resurslari cheklangan. NB-IoT bir LTE PRB (Physical Resource Block) ichida ishlaydi, bu esa maksimal tezlikni 250 Kbps ga cheklaydi [26]. Ko‘p sonli qurilmalar bir vaqtda ulanishga harakat qilganda collision va random access overload muammolari yuzaga keladi.

Energiya sarfi va batareya umri. Nazariy jihatdan 10 yillik batareya umri va‘da qilinsa-da, amaliy sharoitlarda bu ko‘rsatkich turli omillarga bog‘liq. Energiya balansi tenglamasi:

$$E_{\text{total}} = E_{\text{sensing}} + E_{\text{processing}} + E_{\text{transmission}} + E_{\text{idle}} \quad (8)$$

bu yerda: E_{sensing} – sensorlash energiyasi, $E_{\text{processing}}$ – qayta ishlash energiyasi, $E_{\text{transmission}}$ – uzatish energiyasi, E_{idle} – kutish rejimi energiyasi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uzatish jarayoni umumiy energiya sarfining 60-80% ini tashkil etadi [27]. PSM va eDRX rejimlarini optimal sozlash batareya umrini 3-5 barobar oshirishi mumkin.

Ishonchlilik va xavfsizlik muammolari. Sensor tarmoqlarida mobil aloqa orqali ma‘lumot uzatishda ishonchlilik va xavfsizlik muhim ahamiyatga ega:

Paket yo‘qotish va retransmission. Zaif signal sharoitida va interferensiya ta‘sirida paket yo‘qotish ehtimolligi ortadi. HARQ (Hybrid Automatic Repeat Request) mexanizmi qo‘llanilsa-da, bu qo‘shimcha kechikish va energiya sarfiga olib keladi. Paket muvaffaqiyat ehtimolligi:

$$P_{\text{success}} = 1 - (1 - P_{\text{tx}})^N \quad (9)$$

bu yerda: P_{tx} – birinchi urinishdagi muvaffaqiyat ehtimolligi, N – maksimal qayta urinishlar soni.

Xavfsizlik tahdidlari. IoT qurilmalari uchun asosiy xavfsizlik tahdidlari quyidagilardan iborat: DDoS hujumlari, Man-in-the-Middle (MITM) hujumlari, ma'lumotlarni o'g'irlash va qurilmalarni masofadan boshqarib olish. 3GPP standartlari AES-128 shifrlash va mutual authentication mexanizmlarini taqdim etsa-da, ko'plab IoT qurilmalar cheklangan hisoblash resurslari tufayli murakkab shifrlash algoritmlarini qo'llay olmaydi [28].

O'zbekiston sharoitidagi muammolar. O'zbekistonda sensor tarmoqlarida mobil aloqa texnologiyalaridan foydalanishda o'ziga xos muammolar mavjud:

Geografik va infrastruktur cheklovlar. Mamlakatning katta hududi (448,978 km²) va aholi zichligining notekis taqsimlanishi mobil qamrovni ta'minlashni qiyinlashtiradi. Qishloq joylarida va cho'l hududlarida 4G qamrov 40-50% ni tashkil etadi, bu sensor tarmoqlarini keng ko'lamda joriy etishni cheklaydi [7].

Iqlimiy sharoitlar ta'siri. O'zbekistonning kontinental iqlimi va yuqori harorat amplitudasi (-30°C dan +50°C gacha) sensor qurilmalarining ishlashiga ta'sir ko'rsatadi. Batareya samaradorligi yuqori haroratlarda 20-30% ga kamayadi. Shuningdek, chang bo'ronlari va yuqori namlik antenna va elektronika komponentlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Standartizatsiya va sertifikatsiya yo'qligi. O'zbekistonda IoT va sensor tarmoqlar uchun milliy standartlar va sertifikatsiya tizimi hali to'liq shakllanmagan. Bu import qurilmalarning yuqori narxi va mahalliy ishlanmalarning rivojlanishini sekinlashtiradi [8].

Kadrlar va texnik xizmat ko'rsatish muammolari. Sensor tarmoqlar va IoT texnologiyalari bo'yicha malakali mutaxassislar yetishmasligi loyihalarni joriy etish va texnik xizmat ko'rsatishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, uzoq hududlarda joylashgan sensor tugunlariga xizmat ko'rsatish logistik muammolar tug'diradi.

4. XULOSA.

Ushbu maqolada sensor tarmoqlarida nazorat-o'lchov ma'lumotlarini mobil aloqa texnologiyalari orqali uzatishning nazariy asoslari, texnik talablari va amaliy muammolari tizimli ravishda tahlil qilindi. Olib borilgan tahlil asosida quyidagi xulosalar shakllandi.

Birinchidan, nazorat-o'lchov ma'lumotlarining turi (skalar, vektor, multimedia, voqea) uzatish tizimiga qo'yiladigan talablarni to'g'ridan-to'g'ri belgilaydi. Skalar ma'lumotlar uchun NB-IoT texnologiyasi (1–10 Kbps) etarli bo'lsa, multimedia ma'lumotlari uchun LTE-M yoki 5G texnologiyalari zarur bo'ladi. Turli ilovalar uchun kechikish talablari 10 ms dan 60 soniyagacha keng oraliqda farqlanadi va texnologiya tanlovi aynan shu mezon asosida amalga oshirilishi kerak.

Ikkinchidan, energiya samaradorligi sensor tarmoqlarining markaziy muammosi bo'lib qolmoqda. Uzatish jarayoni umumiy energiya sarfining 60–80% ini tashkil etishi hisobga olinsa, PSM va eDRX rejimlarini optimal sozlash, delta kodlash va adaptiv uzatish quvvati strategiyalarini birlashtirish batareya umrini 3–5 barobar uzaytirish imkonini beradi. Ayniqsa, masofaviy hududlarda quyosh panellari bilan kombinatsiyalangan energiya tejankor arxitekturalar istiqbolli yechim sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

Uchinchidan, protokol tanlovi ilova talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim: real-vaqt tizimlari va tez-tez o'zgarib turadigan ma'lumotlar uchun CoAP (UDP ustida, minimal 10–100



baytli xabar hajmi) afzalroq, murakkab topologiyali tizimlar va uzatish kafolati talab qilinadigan holatlar uchun esa MQTT (QoS 1 yoki QoS 2) maqsadga muvofiq. Ma'lumotlarni delta kodlash orqali siqish esa kanaldan foydalanish samaradorligini 50–70% ga oshiradi.

To'rtinchidan, O'zbekiston sharoitida (448 978 km² hudud, -30°C dan +50°C gacha harorat diapazoni, qishloq hududlarida 4G qamrovining 40–50% darajasi) gibrid arxitektura zarurati alohida ahamiyat kasb etadi. Sensor tugunlarini mesh tarmoq orqali gateway–NB-IoT sxemasiga birlashtirish va “store-and-forward” printsiptan foydalanish qamrov muammosini qisman hal etadi. Shuningdek, mamlakatda IoT va sensor tarmoqlari uchun milliy standartlar va sertifikatlash tizimini shakllantirish, tarmoqni joriy etish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash kelajakdagi tadqiqotlar va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lishi lozim.

Umumiy xulosada shuni ta'kidlash lozimki, sensor tarmoqlari va mobil aloqaning integratsiyasi “Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasining qishloq xo'jaligi monitoringi, ekologik nazorat, aqlli shahar va sanoat avtomatikasi kabi muhim yo'nalishlarida keng imkoniyatlar ochadi. Kelajakdagi tadqiqotlar sun'iy intellekt algoritmlari va Edge Computing yechimlarini sensor tarmoqlariga integratsiyalash, shuningdek, O'zbekiston sharoitida sinovdan o'tkazilgan mahalliy prototiplar yaratishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akyildiz I.F., Su W., Sankarasubramaniam Y., Cayirci E. Wireless sensor networks: a survey // Computer Networks. – 2002. – Vol. 38, No. 4. – P. 393-422.
2. А. М. Бершадский, Л. С. Курилов, А. Г. Финогеев. Обзор методов маршрутизации в беспроводных сенсорных сетях // Технические науки. Информатика, вычислительная техника. – 2012. – №1(21). – С. 47-57.
3. Горячев В.А., Аверкин А.Н. Беспроводные сенсорные сети XXI в // Системный анализ в науке и образовании. – 2021. – №4. – С. 72-76.
4. Chowdhury A., Karmakar G., Kamruzzaman J., Islam S. Trustworthiness of Self-Driving Vehicles // IEEE Trans. on Intelligent Transportation Systems. – 2021. – Vol. 22, No. 6. – P. 3282-3301.
5. П.В. Галкин. Анализ энергопотребления узлов беспроводных сенсорных сетей // Scientific Journal «ScienceRise», №2(2), – 2014. – С. 55-61.
6. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish vazirligi. Mobil aloqa statistikasi // <https://digital.gov.uz>. – 2024.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PQ-4842-sonli "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PF-158-sonli "2023-2026 yillarda sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
9. В.И. Парфенов, Л.В. Донг. Беспроводные сенсорные сети. Принципы комплексирования информации от сенсоров при обнаружении объекта излучения. – Инфра-Инженерия, 2025. – 105 с.
10. Kamal A.R.M., Bleakley C.J., Dobson S. Packet-level attestation for wireless sensor networks // Computer Networks. – 2013. – Vol. 57, No. 13. – P. 2548-2556.
11. IEEE 1451.0-2007. Standard for a Smart Transducer Interface for Sensors and Actuators – Common Functions, Communication Protocols, and Transducer Electronic Data Sheet (TEDS)



Formats. – IEEE, 2007.

12. Misra S., Reisslein M., Xue G. A survey of multimedia streaming in wireless sensor networks // IEEE Communications Surveys & Tutorials. – 2008. – Vol. 10, No. 4. – P. 18-39.

13. Фрейдин Я. Современные датчики. Справочник. – М.: Техносфера, – 2021. – 800 с.

14. Sundararaman B., Buy U., Kshemkalyani A.D. Clock synchronization for wireless sensor networks: a survey // Ad Hoc Networks. – 2005. – Vol. 3, No. 3. – P. 281-323.

15. Shelby Z., Hartke K., Bormann C. The Constrained Application Protocol (CoAP). RFC 7252. – IETF, 2014.

16. Banks A., Gupta R. MQTT Version 3.1.1. OASIS Standard. – OASIS, 2014.

17. Liu Y., Yuen C., Cao X., Hassan N.U., Chen J. Design of a scalable hybrid MAC protocol for heterogeneous M2M networks // IEEE Internet of Things Journal. – 2014. – Vol. 1, No. 1. – P. 99-111.

18. Raza S., Trabalza D., Voigt T. 6LoWPAN compressed DTLS for CoAP // 8th IEEE International Conference on Distributed Computing in Sensor Systems. – 2012. – P. 287-289.

19. Centenaro M., Vangelista L., Zanella A., Zorzi M. Long-range communications in unlicensed bands: the rising stars in the IoT and smart city scenarios // IEEE Wireless Communications. – 2016. – Vol. 23, No. 5. – P. 60-67.

20. Ratasuk R., Mangalvedhe N., Zhang Y., Robert M., Koskinen J. Overview of narrowband IoT in LTE Rel-13 // 2016 IEEE Conference on Standards for Communications and Networking (CSCN). – 2016. – P. 1-7.

21. Chen M., Miao Y., Jian X., Wang X., Humar I. Cognitive-LPWAN: Towards intelligent wireless services in hybrid low power wide area networks // IEEE Transactions on Green Communications and Networking. – 2019. – Vol. 3, No. 2. – P. 409-417.

22. Statista Research Department. Internet of Things (IoT) connected devices installed base worldwide from 2015 to 2025 // <https://www.statista.com>. – 2024.

23. Malik H., Pervaiz H., Alam M.M., Le Moullec Y., Kuusik A., Imran M.A. Radio resource management scheme in NB-IoT systems // IEEE Access. – 2018. – Vol. 6. – P. 15051-15064.

24. 3GPP TR 38.824. Study on physical layer enhancements for NR ultra-reliable and low latency case (URLLC). Version 16.0.0. – 2019.

25. Pham Q.V., Fang F., Ha V.N., Piran M.J., Le M., Le L.B., Hwang W.J., Ding Z. A survey of multi-access edge computing in 5G and beyond: Fundamentals, technology integration, and state-of-the-art // IEEE Access. – 2020. – Vol. 8. – P. 116974-117017.

26. Adhikary A., Lin X., Wang Y.P.E. Performance evaluation of NB-IoT coverage // 2016 IEEE 84th Vehicular Technology Conference (VTC-Fall). – 2016. – P. 1-5.

27. Lauridsen M., Nguyen H., Vejlgård B., Kovacs I.Z., Mogensen P., Sorensen M. Coverage comparison of GPRS, NB-IoT, LoRa, and SigFox in a 7800 km² area // 2017 IEEE 85th Vehicular Technology Conference (VTC Spring). – 2017. – P. 1-5.

28. Naoui S., Elhdhili M.E., Saidane L.A. Enhancing the security of the IoT LoraWAN architecture // 2016 International Conference on Performance Evaluation and Modeling in Wired and Wireless Networks (PEMWN). – 2016. – P. 1-7.

KATEGORIYALANGAN OB'EKTLAR PARAMETRLARI MONITORINGI VA VIZUAL O'LCHASH TEXNOLOGIYALARI TAHLILI

Nazarov Abdulaziz Muminovich¹, Baymatova Nargiza Tuxtabayevna²,
Rayimov Farrux To'ra o'g'li³, Jumaqulov Foziljon Komiljonovich⁴

¹TDU, "Radiotexnik qurilmalar va tizimlar" kafedrası professori. t.f.d, nazarov58@rambler.ru

²TDU, "Radiotexnik qurilmalar va tizimlar" kafedrası katta o'qituvchisi,
baymatovanargiz77@gmail.com

³TDU, "Radiotexnik qurilmalar va tizimlar" kafedrası tayanch doktoranti,
farruxrayimov16@gmail.com

⁴TDU, "Radiotexnik qurilmalar va tizimlar" kafedrası tayanch doktoranti,
foziljonkomiljonovich@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xavfsizlik, ishonchlilik va uzluksiz ishlash nuqtai nazaridan maxsus nazorat talab qiladigan kategoriyalangan ob'ektlar – xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari, kritik infratuzilma, transport, energetika va milliy xavfsizlik ob'ektlari – tasnifi, ularning asosiy fizik, geometrik, dinamik va kimyoviy-ekologik parametrlari ko'rib chiqilgan. Nazorat tizimlariga qo'yiladigan ishonchlilik (MTBF, Availability, SIL darajalari), aniqlik va kiberhimoya talablari, shuningdek xalqaro (ISO, IEC, API) hamda O'zbekiston milliy standartlari tahlil qilingan. Zamonaviy radiotexnik (radar, RFID, wireless sensor tarmoqlari), optik-tolali (DOFS, FBG, interferometrik datchiklar) va vizual o'lchash texnologiyalari (LiDAR, lazer Doppler vibrometriya, infragizil termografiya, kompyuter ko'rish) imkoniyatlari, aniqlik ko'rsatkichlari va qo'llanish sohalari nuqtai nazaridan qiyosiy baholangan. Gibridd sensor fusion va IoT-asosli monitoring platformalari orqali predictive maintenance strategiyasini joriy etishning texnik va iqtisodiy afzalliklari ko'rsatilgan. Maqola O'zbekistondagi sanoat va infratuzilma monitoringini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy xulosalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: kategoriyalangan ob'ektlar, monitoring tizimi, vizual o'lchash, optik-tolali datchiklar, FBG, LiDAR, infragizil termografiya, radiotexnik nazorat, sensor fusion, IoT, kritik infratuzilma, xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari, xavfsizlik standartlari.

1.KIRISH.

Zamonaviy sanoat, energetika va infratuzilma ob'ektlarining texnologik murakkabligi ortishi bilan birga ularning xavfsiz va uzluksiz ishlashini ta'minlash masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Neft-gaz qazib olish inshootlari, atom elektr stantsiyalari, magistral quvurlar, transport tugunlari va kritik kommunal infratuzilma kabi ob'ektlarda ro'y beradigan avariya yoki nosozlik nafaqat moddiy zarar, balki insonlar hayoti va atrof-muhit uchun jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababli bu turdagi – ya'ni kategoriyalangan – ob'ektlarni uzluksiz va yuqori ishonchlilik bilan monitoring qilish zamonaviy muhandislik fanining dolzarb vazifasiga aylangan [1, 2].

An'anaviy nazorat usullari – davriy vizual ko'rikdan o'tkazish, yakka tartibdagi datchiklar va qo'lda amalga oshiriladigan o'lchovlar – zamonaviy talablarga ko'pincha javob bera olmaydi. Ular real vaqt rejimida to'liq ma'lumot bermaydi, ko'p mehnat talab qiladi va xato omillarini istisno eta olmaydi. Shu bilan birga, so'nggi o'n yilliklarda radiotexnik, optik-tolali, lazer va vizual o'lchash texnologiyalari sohasida tub sifatiy o'zgarishlar yuz berdi: taqsimlangan optik-tolali



datchiklar butun ob'ekt bo'ylab uzluksiz o'lchashni ta'minlasa, sun'iy intellekt algoritmlari bilan integratsiyalangan kameralar nosozliklarni avtomatik va yuqori ishonchlik bilan aniqlay olmoqda [3, 4].

O'zbekiston Respublikasida "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi va sanoat xavfsizligi sohasidagi milliy dasturlar doirasida monitoring va nazorat tizimlarini yangilash ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan. Biroq amaliyotda kategoriyalangan ob'ektlarning parametrlarini o'lchashda qo'llaniladigan texnologiyalar ko'lami va ularni tanglash mezonlari hali ham yetarlicha tizimlashtirilmagan [5].

Ushbu maqolaning maqsadi kategoriyalangan ob'ektlar tasnifini tuzib, ularning nazorat qilinadigan parametrlarini tizimlashtirish, xalqaro va milliy standartlar talablarini umimlashtirish hamda zamonaviy o'lchash texnologiyalarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari O'zbekiston sharoitida samarali monitoring tizimlarini loyihalash va joriy etishga amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mo'ljallangan.

2. ASOSIY QISM.

Zamonaviy sanoat va infratuzilma rivojlanishi bilan birga, alohida nazorat va monitoring talab qiladigan ob'ektlar soni tobora ortib bormoqda.

Kategoriyalangan ob'ektlar deb, xavfsizlik, ishonchlik va uzluksiz ishlash nuqtai nazaridan yuqori talablar qo'yiladigan hamda ularning buzilishi yoki noto'g'ri ishlashi jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan texnik ob'ektlar va tizimlar majmuasiga aytiladi [1, 2].

Jahon amaliyotida kategoriyalangan ob'ektlar quyidagi asosiy guruhlarga tasniflanadi:

A) *Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari*. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari (XICHO) zaharli, portlovchi, yonuvchan moddalar bilan ishlaydigan yoki yuqori bosim, temperatura sharoitlarida faoliyat yuritadigan korxonalar va qurilmalarni o'z ichiga oladi [6]. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har yili 340 ming kishidan ortiq ishchi xavfli ishlab chiqarish ob'ektlaridagi baxtsiz hodisalar natijasida halok bo'ladi [7].

Xavfli ob'ektlar turlari: Neft-gaz qazib olish va qayta ishlash inshootlari; Kimyo sanoati korxonalari; Portlovchi moddalar ishlab chiqarish zavodlari; Yuqori bosimli idishlar va qozonxonalar; Magistral quvurlar va gaz taqsimlash tizimlari.

O'zbekiston Respublikasida 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, 3500 dan ortiq xavfli ishlab chiqarish ob'ekti ro'yxatga olingan [5]. Ularning nazorati "Texnik nazorat va xavfsizlik bo'yicha davlat qo'mitasi" tomonidan amalga oshiriladi.

B) *Kritik infratuzilma ob'ektlari*. Kritik infratuzilma ob'ektlari (KIO) - bu buzilishi yoki yo'q qilinishi davlat xavfsizligiga, iqtisodiyotga, aholining hayot faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tizimlar va resurslardir [8]. AQSh Milliy Standartlar va Texnologiyalar Instituti (NIST) tomonidan ishlab chiqilgan Framework for Improving Critical Infrastructure Cybersecurity (2018) hujjatida 16 ta kritik infratuzilma sektori aniqlangan [9].

Asosiy kategoriyalar: Energetika ta'minoti tizimlari (elektr stantsiyalari, nimstansiyalar); Suv ta'minoti va kanalizatsiya; Telekomunikatsiya va aloqa; Transport infratuzilmasi; Bank-moliya sektori ob'ektlari; Tibbiy muassasalar.

Yevropa Ittifoqi hududida 2022-yil ma'lumotlariga ko'ra, kritik infratuzilma ob'ektlariga qarshi kiberhujumlar 2020-yilga nisbatan 42% ga oshgan [10].



C) *Transport va logistika ob'ektlari*. Transport sektori zamonaviy iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Jahon Savdo Tashkiloti (JST) ma'lumotlariga ko'ra, global yalpi ichki mahsulotning (YIM) 9-10% transport va logistika xizmatlariga to'g'ri keladi [11].

Transport ob'ektlari turkumlari: Temir yo'l infratuzilmasi (ko'priklar, tunnellar, rel yo'llari); Aeroport komplekslari va uchish-qo'nish yo'laklari; Dengiz va daryo portlari; Avtomobil yo'llari va yo'l-transport inshootlari; Magistral quvurlar (neft, gaz, mahsulotlar).

O'zbekiston hukumati 2023-2027 yillar uchun transport infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha 22 milliard AQSH dollari hajmida investitsiyalar dasturini qabul qilgan [12].

D) *Energetika sektori ob'ektlari*. Energetika tizimi zamonaviy jamiyatning asosiy qon-tomirlari hisoblanadi. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) prognozlariga ko'ra, 2030-yilga kelib jahon energiya iste'moli 2020-yilga nisbatan 30% ga oshadi [13].

Energetika ob'ektlari: Elektr stantsiyalari (IES, GES, YES, alternativ energiya); Yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyalari (110-500 kV); Transformator nimstansiyalari; Tarqatish tarmoqlari (6-35 kV); Smart grid (aqlli tarmoq) tizimlari.

O'zbekistonda 2024-yil boshiga energetika tizimi quvvati 16500 MVt ni tashkil etadi [14]. Mamlakat energetika xavfsizligini ta'minlash maqsadida monitoring va nazorat tizimlarini joriy etish ustida ish olib borilmoqda.

E) *Milliy xavfsizlik ob'ektlari*. Milliy xavfsizlik ob'ektlari davlat suverenitetini, territorial yaxlitligini va aholining xavfsizligini ta'minlovchi maxsus muhofaza qilinadigan ob'ektlardir [15].

Kategoriyalar: Harbiy ob'ektlar va qurol-yarog' ombori; Strategik ahamiyatga ega korxonalar; Davlat boshqaruv ob'ektlari; Atom va radiatsion xavfli ob'ektlar; Ma'lumot xavfsizligi markazlari.

Nazorat qilinadigan parametrlar turlari. Kategoriyalangan ob'ektlarning xavfsiz va samarali ishlashini ta'minlash uchun ularning turli fizik, kimyoviy va texnik parametrlarini uzluksiz monitoring qilish zarur. Zamonaviy nazorat tizimlari bir vaqtning o'zida yuzlab parametrlarni kuzatishi mumkin [16].

A) Fizik parametrlar.

Temperatura o'lchash: Temperatura - eng muhim fizik parametrlardan biri hisoblanadi. Sanoat ob'ektlarida temperatura diapazoni -200°C dan $+2000^{\circ}\text{C}$ gacha o'zgarishi mumkin [17]. Yuqori aniqlikli temperatura o'lchash uchun quyidagi datchiklar qo'llaniladi:

- Termojuftlar (Thermocouple): $\pm 0.5-2^{\circ}\text{C}$ aniqlik.
- Qarshilik termometrlari (RTD - PT100, PT1000): $\pm 0.1-0.5^{\circ}\text{C}$ aniqlik.
- Termorezistorlar: $\pm 0.05^{\circ}\text{C}$ aniqlik.
- Infraqizil pirometrlar: kontaktsiz o'lchash, -50°C dan $+3000^{\circ}\text{C}$ gacha.
- Optik-tolali temperatura datchiklari: $\pm 0.1^{\circ}\text{C}$, elektromagnit chidamlik.

Bosim nazorati: Bosim o'lchash xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari uchun kritik ahamiyatga ega. Zamonaviy bosim datchiklari 0.01% gacha aniqlikni ta'minlaydi [18].

- Piezorezistiv datchiklar: yuqori chastotali dinamik bosim.
- Suyuqlik (sig'imli) datchiklar: statik bosim, 0.025% aniqlik.
- Rezonansli datchiklar: ultra yuqori aniqlik.
- Optik-tolali bosim datchiklari: portlovchi muhitda xavfsizlik.

Tebranish va akustik emmissiya: Rotorli mexanizmlar, turbinalar va muhim konstruksiyalarning texnik holatini baholashda tebranish tahlili muhim rol o'ynaydi [19]. ISO



10816 standartiga ko'ra, tebranish tezligi 0.28 mm/s dan oshsa, uskunaning holati "xavfli" deb baholanadi.

- Akselerometrlar: $\pm 0.5\%$ aniqlik, 0-5000 Hz chastota diapazoni.
- Tebranish tezligi datchiklari.
- Akustik emissiya datchiklari: yoriqlar va deformatsiyalarni aniqlash.

B) *Geometrik parametrlar*. Konstruksiya larning geometrik parametrlarini nazorat qilish ularning mustahkamlik va barqarorligini baholash uchun zarur [20].

O'lchash parametrlari: Chiziqli o'lchamlar: ± 0.01 -1 mm aniqlik; Burchak o'lchamlar: ± 0.1 -10" aniqlik; Shakl va yassilik: ± 0.001 -0.1 mm; Egilish va burilish: ± 0.1 -1 mm; Siljish va ko'chish: mikron va millimetr darajasida.

O'lchash texnologiyalari: Lazer skanerlash: ± 1 -3 mm, 3D model yaratish; Fotogrammetriya: ± 0.1 -5 mm, keng hudud qamrovi; Total stansiyalar: ± 0.5 -2 mm + 1-2 ppm; GNSS/GPS nazorati: ± 5 -20 mm, vertikal va gorizonta l; Inklinometrlar: $\pm 0.01^\circ$ nishablik o'lchash.

C) *Dinamik parametrlar*. Ob'ektlarning harakatlanish parametrlari xavfsizlik va samaradorlikni ta'minlashda muhim [21].

Asosiy parametrlar: Tezlik: 0.01-500 m/s diapazoni; Tezlanish: 0.001-100 g; Aylanish chastotasi: 1-100,000 rpm; Oqim tezligi: 0.001-100 m/s; Deformatsiya tezligi: mikrodeformatsiya/s.

O'lchash usullari: Doppler radiolokatsiyasi: kontaktsiz tezlik o'lchash; Lazer vibrometrlar: ± 0.01 μ m/s aniqlik; MEMS akselerometrlar: $\pm 0.5\%$ xatolik; Ultratovushli oqim o'lchagichlar: $\pm 0.5\%$ aniqlik.

D) *Kimyoviy va ekologik parametrlar*. Atrof-muhitni muhofaza qilish va xodimlar salomatligini ta'minlash maqsadida kimyoviy parametrlarni monitoring qilish zarur [22].

Nazorat parametrlari: Gaz konsentratsiyasi: ppm va ppb darajasida; pH darajasi: ± 0.01 pH aniqlik; Namlik: ± 0.5 -2% RH; Chang konsentratsiyasi: PM2.5, PM10 zarrachalari; Radiatsiya fonini: mkZv/soat; Toksik moddalar: CO, CO₂, H₂S, CH₄, NH₃.

Datchiklar turlari: Elektrokimyoviy sensorlar: 0-2000 ppm diapazoni; Infraqizil (NDIR) gaz analizatorlari: CO₂ o'lchash; PID (Photoionization Detector): uchuvchi organik birikmalar; Lazer spektroskopiya: yuqori selektivlik va sezgirlik.

3. ZAMONAVIY NAZORAT QILISH TALABLARI VA STANDARTLARI.

Kategoriyalangan ob'ektlarni nazorat qilish uchun milliy va xalqaro standartlar tizimi mavjud bo'lib, ular xavfsizlik va sifat talablarini belgilaydi [23].

A) *Xalqaro standartlar tizimi*. ISO (International Organization for Standardization): ISO 9001:2015 - Sifat menejmenti tizimlari; ISO 45001:2018 - Mehnat muhofazasi menejmenti; ISO 55001:2014 - Aktivlarni boshqarish tizimlari; ISO 13373 seriyasi - Holatni monitoring qilish va diagnostika.

IEC (International Electrotechnical Commission): IEC 61508 - Elektr/elektron/dasturlashtiriladigan elektron tizimlar uchun funksional xavfsizlik; IEC 61511 - Jarayon sanoati uchun xavfsizlik instrumental tizimlari; IEC 60812 - Nosozliklar turlarini va oqibatlarini tahlil (FMEA).

API (American Petroleum Institute): API 570 - Jarayon quvurlari inspeksiyasi; API 580 - Riskga asoslangan inspeksiya; API 653 - Tankerlar va sig'diruvchi idishlar inspeksiyasi.



B) *O'zbekiston milliy standartlari.* O'zbekiston Respublikasi "O'zstandart" agentligi tomonidan 15000 dan ortiq milliy standartlar ishlab chiqilgan va qo'llanilmoqda [24].

Asosiy standartlar: O'z DSt 1040:2019 - Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari. Umumiy xavfsizlik talablari; O'z DSt 2918:2016 - Sanoat xavfsizligi menejmenti tizimlari; O'z DSt ISO 9001:2020 - Sifat menejmenti tizimlari; O'z DSt 3322:2018 - Qozonxonalar va bosim idishlari. Texnik nazorat qoidalari.

C) *Xavfsizlik va ishonchlilik ko'rsatkichlari.* Kategoriyalangan ob'ektlar uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlar belgilanadi [25].

Ishonchlilik ko'rsatkichlari: MTBF (Mean Time Between Failures) - nosozliklar orasidagi o'rtacha vaqt: ≥ 50000 soat; MTTR (Mean Time To Repair) - ta'mirlash uchun o'rtacha vaqt: ≤ 4 soat; Mavjudlik koeffitsienti (Availability): $\geq 99.9\%$; FIT (Failures In Time): 10^9 soatda nosozliklar soni.

Xavfsizlik darajalari (SIL - Safety Integrity Level): SIL 1: Xavfli hodisa ehtimoli 10^{-2} - 10^{-1} (yiliga); SIL 2: 10^{-3} - 10^{-2} (kritik ob'ektlar uchun); SIL 3: 10^{-4} - 10^{-3} (yuqori xavfli jarayonlar); SIL 4: 10^{-5} - 10^{-4} (atom energetikasi, aviatsiya).

O'lchash aniqligi talablari: Turli ob'ektlar uchun o'lchash aniqligi standartlar bilan belgilanadi [26]. Temperatura, bosim va oqimni o'lchashga aniqlik talablari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval
O'lchash aniqligi talablari

Parametr	Aniqlik sinfi	Nisbiy xatolik	Qo'llanish
Temperatura	A	$\pm 0.5^{\circ}\text{C}$	Umumiy sanoat
	AA	$\pm 0.1^{\circ}\text{C}$	Farmatsevtika
Bosim	0.1	$\pm 0.1\%$	Etalon o'lchovlar
	0.25	$\pm 0.25\%$	Laboratoriya
	0.5	$\pm 0.5\%$	Texnologik jarayonlar
Oqim	0.5	$\pm 0.5\%$	Hisobot o'lchovi
	1.0	$\pm 1.0\%$	Texnologik nazorat

Monitoring chastotasi talablari: Turli parametrlar uchun minimal monitoring chastotasi quyidagicha belgilanadi [27]: Kritik xavfsizlik parametrlari: 1-10 Hz (real-time); Texnologik jarayon parametrlari: 0.1-1 Hz; Sekin o'zgaruvchi parametrlar: 1 marta/soat - 1 marta/kun; Prognozli texnik xizmat parametrlari: 1 marta/hafta - 1 marta/oy.


D) *Ma'lumotlar xavfsizligi va kiberhimoya.* Zamonaviy nazorat tizimlari kiberxavflar oldida himoyalangan bo'lishi kerak [28]. IEC 62443 standartlar seriyasi sanoat avtomatlashtirish va nazorat tizimlari kiberhimoyasi uchun talablarni belgilaydi.

Asosiy talablar: Autentifikatsiya: ko'p bosqichli tasdiqlash; Shifrlash: AES-256, TLS 1.3 protokollari; Kirish nazorati: role-based access control (RBAC); Audit jurnali: barcha amaliyotlarni qayd etish; Zaxira nusxalash: ma'lumotlarning 3-2-1 strategiyasi.



Kategoriyalangan ob'ektlarning parametrlarini nazorat qilish va o'lchash zamonaviy sanoat xavfsizligining muhim tarkibiy qismidir. So'nggi yillarda bu sohada radiotexnik, optik-tolali va vizual o'lchash texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar yuqori aniqlik, real vaqt rejimida monitoring va kontaktsiz o'lchash imkoniyatlarini taqdim etadi.

Radiotexnik nazorat texnologiyalari. Radiotexnik usullar elektromagnit to'lqinlarning turli xususiyatlaridan foydalangan holda ob'ektlarning parametrlarini kontaktsiz o'lchash imkonini beradi (1-rasm). Ushbu texnologiyalar portlovchi va yuqori temperaturali muhitlarda qo'llash uchun ayniqsa qulay hisoblanadi [29].



1-rasm. Radiotexnik nazorat texnologiyalarining umumiy tuzilishi


Radar va radiolokatsiya tizimlari. Zamonaviy radar tizimlari ob'ektlarning masofa, tezlik va o'lchamlarini yuqori aniqlik bilan aniqlash imkonini beradi. FMCW (Frequency Modulated Continuous Wave) radar texnologiyasi millimetr to'lqin diapazonida ishlab, ± 0.1 mm gacha aniqlikni ta'minlaydi [30]. Bunday tizimlar quvurlar deformatsiyasini, tanker devorlarining qalinligini va konstruksiyalarning siljishini nazorat qilishda qo'llaniladi.

Radiorele'li o'lchash tizimlari. Radiorele'li usullar ob'ektlar ichidagi jarayonlarni nazorat qilish uchun ishlatiladi. Mikroto'lqin datchiklari suyuqlik darajasini, namlikni va material zichligini o'lchashda samarali natijalar beradi. Zamonaviy tizimlar 0.5% gacha nisbiy xatolik bilan o'lchash imkoniyatiga ega [31].

RFID texnologiyasi va wireless sensor tarmoqlari. RFID (Radio Frequency Identification) tizimlari ob'ektlarni avtomatik identifikatsiyalash va ularning parametrlarini kuzatish uchun keng qo'llanilmoqda. UHF diapazonidagi RFID teglar 10 metrgacha masofada o'qiladi va xavfli muhitda ishchi xodimlarning harakatini monitoring qilishda foydalaniladi [32]. Wireless sensor tarmoqlari (WSN) yuzlab datchiklar ma'lumotlarini yig'ish va real vaqtda uzatish imkonini beradi.

Optik-tolali datchiklar va monitoring tizimlari. Optik-tolali texnologiyalar kategoriyalangan ob'ektlarni nazorat qilishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi (2-rasm). Ular elektromagnit interferensiyaga chidamli, portlovchi muhitda xavfsiz va uzoq masofaga signal uzatish imkoniyatiga ega [33].

Taqsimlangan optik-tolali datchiklar (DOFS). DOFS tizimlari bir toladan foydalanib, butun ob'ekt bo'ylab uzluksiz o'lchash imkonini beradi. Reley, Raman va Brilluyen sochilish effektlariga asoslangan tizimlar temperatura, deformatsiya va tebranishlarni 1 metr fazoviy o'lchamlarda aniqlaydi [34].



2-rasm. Optik-tolali datchiklar va monitoring tizimlari

Optik-tolali datchiklar turlari va ularning xususiyatlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval
Optik-tolali datchiklar tasnifi

Datchik turi	O'lchash parametri	Fazoviy o'lcham	Aniqlik	Masofasi
BOTDR (Brillouin)	Temperatura, deformatsiya	1-2 m	$\pm 1^{\circ}\text{C}$, $\pm 20 \mu\epsilon$	50-100 km
ROTDR (Raman)	Temperatura	1 m	$\pm 0.5^{\circ}\text{C}$	10-30 km
DAS (Distributed Acoustic)	Tebranish, tovush	1-10 m	$1 \text{ n}\epsilon/\sqrt{\text{Hz}}$	40-80 km
FBG (Fiber Bragg Grating)	Nuqtaviy o'lchov	-	$\pm 0.1^{\circ}\text{C}$, $\pm 1 \mu\epsilon$	100+ km

FBG datchiklari. Fiber Bragg Grating (FBG) datchiklari yuqori aniqlik va tezkorlik bilan o'lchash imkonini beradi. Bir optik tolaga 100 tagacha FBG datchik ulanib, ko'priklar, tunel va bino konstruksiyalarining deformatsiyasini millisekundlarda kuzatish mumkin [35]. FBG datchiklar - 200°C dan $+800^{\circ}\text{C}$ gacha temperatura diapazonida ishlay oladi.

Interferometrik optik datchiklar. Fabry-Perot va Mach-Zehnder interferometrlari nanometr darajasida siljishni va mikro-deformatsiyalarni aniqlash imkonini beradi. Bunday datchiklar atom elektr stantsiyalari va aerokosmik sohasida qo'llaniladi [35].

Lazer va fotonik texnologiyalar.

3D lazer skanerlash. Zamonaviy lazer skanerlar (LiDAR) murakkab ob'ektlarning to'liq geometrik modelini yaratish imkonini beradi. Terrestrial Laser Scanner (TLS) tizimlari millimetr aniqlik bilan soniyasida 1 million nuqtani o'lchaydi va 300 metrgacha masofani qamraydi [36]. Bu texnologiya yirik sanoat inshootlari, ko'priklar va tarixiy binolarning monitoringida qo'llaniladi.

Lazer Doppler vibrometriya. Lazer Doppler vibrometrlari (LDV) kontaktsiz tarzda ob'ektlarning tebranishini o'lchash imkonini beradi. Zamonaviy LDV tizimlari $0.01 \mu\text{m/s}$ gacha tebranish tezligini va 50 kHz gacha chastotani qayd etadi [37]. Bu texnologiya turbinalar, nasoslar va boshqa aylanuvchi mexanizmlarning diagnostikasida muhim ahamiyatga ega.



Vizual va multispektral monitoring tizimlari.

Yuqori o'lchovli kameralar va komp'yuter ko'rish. Zamonaviy industrial kameralar 20 megapiksel va undan yuqori o'lchamda tasvirlarni 100 kadr/s tezlikda qayd etadi. Sun'iy intellekt va chuqur o'rganish algoritmlaridan foydalanib, ob'ektlarni avtomatik identifikatsiyalash va nuqsonlarni aniqlash amalga oshiriladi [4]. YOLO va Mask R-CNN algoritmlari real vaqt rejimida 95% dan yuqori aniqlik bilan ob'ektlarni klassifikatsiyalaydi.


Infraqizil termografiya. Termografik kameralar ob'ektlarning issiqlik taqsimotini vizualizatsiya qilish orqali yashirin nuqsonlarni aniqlash imkonini beradi. Zamonaviy FLIR kameralar 0.02°C temperatura farqini ajrata oladi va elektr qurilmalarining qizib ketishi, izolyatsiya buzilishi va yashirin yoriqlarni aniqlashda qo'llaniladi [38].

Gibrid va intellektual monitoring tizimlari.

Sensor fusion (sintez) texnologiyasi. Zamonaviy yondashuv turli xil datchiklar ma'lumotlarini birlashtirib, ob'ekt holatini kompleks baholashni ta'minlaydi. Kalman filtri va Bayesian tarmoqlari yordamida turli manbalardan keladigan noaniq ma'lumotlar sintez qilinadi va ob'ektiv xulosa chiqariladi [39]. Bu yondashuv xato ehtimolini 40-60% ga kamaytiradi.

IoT va cloud-based monitoring. Internet of Things (IoT) texnologiyalari yuzlab minglab datchiklar ma'lumotlarini markaziy platformada to'plash va tahlil qilish imkonini beradi (3-rasm). Cloud-based tizimlar Big Data tahlili, machine learning modellari va prognozli texnik xizmatni amalga oshiradi. Predictive maintenance strategiyasi avariya ehtimolini 30-40% ga kamaytiradi va texnik xizmat xarajatlarini 25% ga qisqartiradi [40].

Zamonaviy monitoring tizimlarining asosiy afzalliklari shundaki, ular real vaqt rejimida ishlaydi, uzoq vaqt davomida avtonom faoliyat ko'rsatadi va sun'iy intellekt yordamida avtomatik qaror qabul qilish imkoniyatiga ega. Kelgusida quantum datchiklar va 5G/6G aloqa texnologiyalari monitoring tizimlarining samaradorligini yanada oshiradi.



3-rasm. IoT texnologiyalarining ishlash tamoyili

Shunday qilib, zamonaviy texnologiyalar kategoriyalangan ob'ektlarni nazorat qilishda yuqori aniqlik, avtomatlashtirilganlik va ishonchlilikni ta'minlaydi. Radiotexnik, optik-tolali va



vizual texnologiyalarning integratsiyasi kelajakda yanada samarali monitoring tizimlarini yaratish imkonini beradi.

4. XULOSA.

Olib borilgan tahlil asosida kategoriyalangan ob'ektlarni monitoring qilish sohasida quyidagi xulosalar shakllandi.

Birinchidan, kategoriyalangan ob'ektlarni besh asosiy guruhga — xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari, kritik infratuzilma, transport, energetika va milliy xavfsizlik ob'ektlari — tasniflanishi monitoring tizimlarini maqsadli loyihalash uchun zaruriy metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Har bir guruh uchun nazorat parametrlari (temperatura, bosim, tebranish, geometrik siljish, kimyoviy konsentratsiya va boshqalar), aniqlik sinflari va monitoring chastotasi turlicha bo'lib, muhandislik yechimlarini ob'ektning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirishni talab qiladi.

Ikkinchidan, zamonaviy o'lchash texnologiyalari ichida optik-tolali datchiklar (ayniqsa, DOFS va FBG tizimlari) eng yuqori potentsialni namoyon etadi: ular bir toladan foydalanib 100 km gacha masofada $\pm 0.5^{\circ}\text{C}$ harorat va $\pm 1 \mu\text{m}$ deformatsiya aniqligini ta'minlaydi, elektromagnit interferensiyaga chidamli va portlovchi muhitda xavfsiz ishlaydi. LiDAR texnologiyasi esa murakkab sanoat inshootlari va ko'priklarning millimetr aniqlikdagi 3D geometrik modelini real vaqtda yaratish imkonini beradi. Infraqizil termografiya yashirin nuqsonlarni erta bosqichda aniqlashda, lazer Doppler vibrometriya esa kontaktsiz rejimda aylanuvchi mexanizmlar diagnostikasida samarali vosita sifatida tasdiqlangan.

Uchinchidan, sensor fusion (ma'lumotlarni sintez qilish) va IoT-asosli monitoring platformalarining qo'llanilishi xato ehtimolini 40–60% ga kamaytiradi va predictive maintenance strategiyasini amalga oshirishga imkon beradi. Mazkur yondashuv avariya ehtimolini 30–40% ga pasaytiradi va texnik xizmat xarajatlarini 25% gacha qisqartiradi, bu esa iqtisodiy jihatdan juda muhim ahamiyatga ega, ayniqsa qimmat va uzoq joylashgan ob'ektlarda.

To'rtinchidan, O'zbekistonda 3500 dan ortiq xavfli ishlab chiqarish ob'ekti ro'yxatga olingan bo'lsa-da, zamonaviy monitoring texnologiyalarini joriy etishda milliy standartlar va sertifikatlash tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi, malakali kadrlar tanqisligi va import jihozlarning yuqori narxi asosiy to'siqlar bo'lib qolmoqda. Shu muammolarni bartaraf etish uchun "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi va 2023–2026 yillardagi sun'iy intellekt rivojlantirish dasturi doirasida IoT, optik-tolali va vizual monitoring texnologiyalari bo'yicha ilmiy-texnik tadqiqotlarni kuchaytirish, mahalliy prototiplar ishlab chiqish va tegishli mutaxassislar tayyorlash zarur.

Kelajakdagi tadqiqotlar quantum datchiklar, 5G/6G aloqa tarmoqlari bilan integratsiyalashgan monitoring platformalari va generativ sun'iy intellekt asosidagi prognozli tahlil tizimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq. Bu yo'nalishlar kategoriyalangan ob'ektlar xavfsizligini ta'minlashda yangi imkoniyatlar ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Махутов Н.А. Безопасность и риски: системные исследования и разработки. - Новосибирск: Наука, 2017. - 724 с.
2. Smith D.J., Simpson K.G.L. Safety Critical Systems Handbook: A Straightforward Guide to Functional Safety, IEC 61508 and Related Standards. 4th Edition. - Butterworth-Heinemann, 2016. - 584 p.



3. Bao X., Chen L. Recent Progress in Distributed Fiber Optic Sensors // Sensors. - 2012. - Vol. 12, No. 7. - P. 8601-8639.
4. Redmon J., Farhadi A. YOLOv3: An Incremental Improvement // arXiv preprint arXiv:1804.02767. - 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi. Statistik ma'lumotlar, 2023. URL: <https://fvv.uz>
6. Лисанов М.В., Печеркин А.С., Сидоров В.И. Анализ риска и декларирование безопасности опасных производственных объектов // Безопасность труда в промышленности. - 2019. - №4. - С. 7-15.
7. WHO. Occupational Health: Workplace Hazards. World Health Organization Report, 2022. URL: <https://www.who.int/health-topics/occupational-health>
8. Rinaldi S.M., Peerenboom J.P., Kelly T.K. Identifying, understanding, and analyzing critical infrastructure interdependencies // IEEE Control Systems Magazine. - 2001. - Vol. 21, No. 6. - P. 11-25.
9. NIST. Framework for Improving Critical Infrastructure Cybersecurity, Version 1.1. National Institute of Standards and Technology, 2018. - 55 p.
10. ENISA. Threat Landscape for Supply Chain Attacks. European Union Agency for Cybersecurity, 2022. - 94 p.
11. WTO. World Trade Statistical Review 2023. World Trade Organization, Geneva, 2023. - 218 p.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-dekabrdagi "2023-2027 yillarda transport infratuzilmasini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-131-son Farmoni.
13. IEA. World Energy Outlook 2023. International Energy Agency, Paris, 2023. - 524 p.
14. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. Yillik hisobot, 2023.
15. Буркатовская Ю.Б. Национальная безопасность: вопросы определения и классификации // Вестник Томского государственного университета. - 2020. - №457. - С. 198-204.
16. Webster J., Eren H. Measurement, Instrumentation, and Sensors Handbook. 2nd Edition. - CRC Press, 2014. - 2612 p.
17. Childs P.R.N. Practical Temperature Measurement. - Butterworth-Heinemann, 2001. - 328 p.
18. Bao X., Chen L. Recent Progress in Distributed Fiber Optic Sensors // Sensors. - 2012. - Vol. 12, No. 7. - P. 8601-8639.
19. ISO 10816-1:1995. Mechanical vibration - Evaluation of machine vibration by measurements on non-rotating parts.
20. Lienhart W. Geotechnical Monitoring Using Total Stations and Laser Scanners // Geomechanics and Tunnelling. - 2017. - Vol. 10, No. 1. - P. 2-8.
21. Doebling S.W., Farrar C.R., Prime M.B. A Summary Review of Vibration-Based Damage Identification Methods // Shock and Vibration Digest. - 1998. - Vol. 30, No. 2. - P. 91-105.
22. Kumar A., Kim H., Hancke G.P. Environmental Monitoring Systems: A Review // IEEE Sensors Journal. - 2013. - Vol. 13, No. 4. - P. 1329-1339.
23. ISO/IEC Guide 2:2004. Standardization and related activities - General vocabulary.
24. O'zbekiston Respublikasi "O'zstandart" agentligi. Milliy standartlar katalogi, 2024.



URL: <https://standart.uz>

25. IEC 61508:2010. Functional safety of electrical/electronic/programmable electronic safety-related systems. Parts 1-7.
26. ISO 5725-1:1994. Accuracy (trueness and precision) of measurement methods and results.
27. API 670. Machinery Protection Systems. 5th Edition. American Petroleum Institute, 2014. - 238 p.
28. IEC 62443-3-3:2013. Industrial communication networks - Network and system security - System security requirements and security levels.
29. Skolnik M.I. Radar Handbook. 3rd Edition. - McGraw-Hill Education, 2008. - 1352 p.
30. Peng Z., Li C. Portable Microwave Radar Systems for Short-Range Localization and Life Tracking // IEEE Transactions on Microwave Theory and Techniques. - 2021. - Vol. 69, No. 1. - P. 512-527.
31. Nyfors E., Vainikainen P. Industrial Microwave Sensors. - Artech House, 1989. - 351 p.
32. Landaluce H., Arjona L., Perallos A., et al. A Review of IoT Sensing Applications and Challenges Using RFID and Wireless Sensor Networks // Sensors. - 2020. - Vol. 20, No. 9. - Article 2495.
33. Lu P., Lalam N., Badar M., et al. Distributed optical fiber sensing: Review and perspective // Applied Physics Reviews. - 2019. - Vol. 6, No. 4. - Article 041302.
34. Kersey A.D., Davis M.A., Patrick H.J., et al. Fiber grating sensors // Journal of Lightwave Technology. - 1997. - Vol. 15, No. 8. - P. 1442-1463.
35. Rao Y.J. Recent progress in fiber-optic extrinsic Fabry-Perot interferometric sensors // Optical Fiber Technology. - 2006. - Vol. 12, No. 3. - P. 227-237.
36. Vosselman G., Maas H.G. Airborne and Terrestrial Laser Scanning. - CRC Press, 2010. - 336 p.
37. Rothberg S.J., Allen M.S., Castellini P., et al. An international review of laser Doppler vibrometry: Making light work of vibration measurement // Optics and Lasers in Engineering. - 2017. - Vol. 99. - P. 11-22.
38. Meola C., Carlomagno G.M. Recent advances in the use of infrared thermography // Measurement Science and Technology. - 2004. - Vol. 15, No. 9. - P. R27-R58.
39. Hall D.L., Llinas J. An introduction to multisensor data fusion // Proceedings of the IEEE. - 1997. - Vol. 85, No. 1. - P. 6-23.
40. Lee J., Kao H.A., Yang S. Service Innovation and Smart Analytics for Industry 4.0 and Big Data Environment // Procedia CIRP. - 2014. - Vol. 16. - P. 3-8.

TA'LIMDA AI TIZIMLARIDAGI ALGORITMIK BIAS VA SHAXSIY MA'LUMOTLAR XAVFSIZLIGI.

H.E.Mamarajabov¹, D.T.Shukurov², I.I.Shahriyorov³, N.T.Allamurodov⁴

¹Sarbo'n universiteti, Muhandislik va raqamli texnologiyalar kafedrasida katta o'qituvchisi,
husankarimov09@gmail.com

²Sarbo'n universiteti, Muhandislik va raqamli texnologiyalar kafedrasida katta o'qituvchisi,
dadanur0094@gmail.com



³Sarbon universiteti, Muhandislik va raqamli texnologiyalar kafedrasida katta o'qituvchisi,
shahriyorovikrom6@gmail.com

⁴Sarbon universiteti, Muhandislik va raqamli texnologiyalar kafedrasida katta o'qituvchisi,
norbobo1996@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ta'limda qo'llanilayotgan sun'iy intellekt tizimlarida algoritmik tarfakshlik va shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligi muammolari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ta'lim AI tizimlarida adolat, shaffoflik, maxfiylik va huquqiy muvofiqlikni ta'minlashga qaratilgan audit modelini asoslashdan iborat. Maqolada UNESCO, OECD, NIST AI RMF, EU AI Act, GDPR hamda O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni asosida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va pedagogik-huquqiy modellashtirish metodlari qo'llanildi. Natijada ta'lim AI tizimlarining ma'lumot, model, qaror, xavfsizlik va monitoring bosqichlarida baholanishi zarur bo'lgan ko'rsatkichlar ishlab chiqildi. Taklif etilgan model algoritmik tarfakshlikni aniqlash, tushuntiriluvchan AI, differensial maxfiylik, federativ o'qitish, ma'lumotlarni minimallashtirish va inson nazoratini yagona metodik tizimda birlashtiradi.

Kalit so'zlar: algoritmik bias, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, ta'limda AI, algoritmik audit, differensial maxfiylik, XAI, huquqiy muvofiqlik.

1. KIRISH

Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi avtomatik baholash, adaptiv ta'lim trayektoriyasini shakllantirish, kontent tavsiyalash, onlayn proktoring, talaba faolligini monitoring qilish va akademik yordam xizmatlarini avtomatlashtirish imkonini bermoqda. Bunday tizimlar ta'lim jarayonini tezlashtirishi va individuallashtirishi mumkin, biroq ularning noto'g'ri loyihalaniishi yoki nazoratsiz joriy etilishi talaba huquqlari, shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligi, baholash adolatligi va akademik tenglikka bevosita ta'sir qiladi.

Algoritmik tarfakshlik deganda AI tizimining ma'lum guruhlar bo'yicha noxolis natija berishi, qarorlarida demografik, hududiy, til, ijtimoiy-iqtisodiy yoki boshqa belgilar asosida farqlanish yuzaga kelishi tushuniladi. Ta'limda bu holat ayrim talabalar guruhining past baholanishi, tavsiya tizimlari orqali cheklangan resurslarga yo'naltirilishi, onlayn nazorat tizimlarida noto'g'ri xavfli deb belgilanishi yoki o'qish imkoniyatlaridan teng foydalana olmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligi esa talabaning identifikatsion, akademik, biometrik, xulq-atvor va psixometrik ma'lumotlarini qonuniy, adolatli, cheklangan maqsadlarda va xavfsiz texnik choralar asosida qayta ishlashni talab qiladi.

Xalqaro miqyosda UNESCO sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiyalarida inson huquqlari, inklyuzivlik, shaffoflik, maxfiylik va javobgarlikni asosiy tamoyillar sifatida ko'rsatadi [2]. OECD AI Principles esa ishonchli AI uchun inson markazlilik, shaffoflik, mustahkamlik, xavfsizlik va javobgarlik talablarini ilgari suradi [4]. NIST AI Risk Management Framework AI tizimlari risklarini boshqarishda "govern, map, measure, manage" bosqichlariga tayanadi [5]. EU AI Act ta'lim va kasbiy tayyorgarlikda kirish, baholash va o'quv jarayonini yo'naltirishga xizmat qiladigan ayrim AI tizimlarini yuqori xavfli tizimlar qatoriga kiritadi [7]. O'zbekiston sharoitida esa shaxsga doir ma'lumotlar sohasidagi munosabatlar O'RQ-547-son Qonun bilan tartibga solinadi [1].



Tadqiqotning maqsadi ta'lim AI tizimlarida algoritmik tarafkashlikni kamaytirish hamda shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan metodik-audit modelini asoslashdan iborat. Vazifalar quyidagilardan iborat: birinchidan, mavjud xalqaro va milliy hujjatlarni tahlil qilish; ikkinchidan, algoritmik tarafkashlik manbalari va ko'rsatkichlarini tizimlashtirish; uchinchi, shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligi uchun audit mezonlarini belgilash; to'rtinchidan, ta'lim muassasalari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

2. MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ilmiy adabiyotlarda algoritmik tarafkashlik ko'pincha ma'lumotlar tarafkashligi, model tarafkashligi va qaror jarayoni tarafkashligi ko'rinishida izohlanadi. Ma'lumotlar tarafkashligi trening to'plamida ayrim guruhlarining yetarli aks etmasligi yoki tarixiy tengsizliklarning ma'lumotlarga singib qolishi bilan bog'liq. Model tarafkashligi xususiyatlarni tanlash, maqsad funksiyasini belgilash va optimallashtirish jarayonida yuzaga keladi. Qaror tarafkashligi esa model natijasini inson nazoratisiz bevosita ma'muriy yoki pedagogik qarorga aylantirishda kuchayadi [10; 11].

Ta'lim AI tizimlari alohida ehtiyotkorlikni talab qiladi, chunki bu tizimlar insonning ta'lim olish imkoniyati, baholanishi va kelajakdagi kasbiy trayektoriyasiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, avtomatik baholash algoritmlari yozma ish uslubi, til darajasi yoki hududiy nutq xususiyatlarini noto'g'ri talqin qilishi; onlayn proktoring tizimlari yuzni aniqlash, ko'z harakati yoki xatti-harakat belgilariga haddan tashqari tayanishi; tavsiya tizimlari esa talabani ilgari o'zlashtirgan yo'nalishlariga "qamalib qolgan" holda boshqarishi mumkin. Bu holatlar faqat texnik xatolik emas, balki pedagogik adolat va ijtimoiy tenglik masalasidir.

UNESCOning generativ AI bo'yicha ta'lim va tadqiqot uchun qo'llanmasi ta'lim muassasalariga ma'lumotlar maxfiylikni ta'minlash, yoshga mos yondashuv, inson nazorati va pedagogik maqsadga muvofiqlikni birinchi o'ringa qo'yishni tavsiya qiladi [3]. NIST AI RMF esa AI risklarini baholashda texnik aniqlik bilan bir qatorda inson, tashkilot va jamiyatga ta'sirni ham hisobga olishni talab etadi [5]. Bu yondashuv ta'lim AI tizimlarini faqat aniqlik darajasi bo'yicha emas, balki adolat, maxfiylik, xavfsizlik, tushuntiriluvchanlik va javobgarlik bo'yicha ham baholash zarurligini ko'rsatadi.

Shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligi bo'yicha adabiyotlarda privacy by design, data minimization, consent management, encryption, access control, retention policy, DPIA va audit trail kabi mexanizmlar asosiy himoya vositalari sifatida ko'riladi. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunida shaxsga doir ma'lumotlar sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadi belgilangan [1]. 2026-yildagi o'zgartirishlar esa O'zbekiston fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlarini saqlash va ularga ishlov berish masalasini yanada dolzarblashtirdi [8]. Demak, ta'lim muassasalarida AI tizimlarini joriy etish nafaqat texnik, balki huquqiy va tashkiliy boshqaruv masalasi hamdir.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Metodologik asos sifatida besh bosqichli audit modeli ishlab chiqildi: 1) ma'lumotlar auditini o'tkazish; 2) model adolatligi va tarafkashlik metrikalarini baholash; 3) qarorlarni tushuntirish va inson nazoratini tekshirish; 4) shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligi va huquqiy muvofiqlikni baholash; 5) doimiy monitoring va tuzatish choralarini belgilash. Har bir bosqichda tekshiriladigan obyekt, asosiy savol, o'lchov mezonlari va kutiladigan natija ko'rsatildi.



Algoritmik tarafkashlikni baholashda demographic parity difference, equal opportunity difference va equalized odds difference kabi metrikalar qo'llanishi mumkin. Masalan, demographic parity difference quyidagicha ifodalanadi: $DPD = |P(\hat{Y}=1|A=a) - P(\hat{Y}=1|A=b)|$. Bu yerda A - himoyalangan demografik belgi, $\hat{Y}$ - modelning ijobiy qarori. Equalized odds esa turli guruhlar bo'yicha true positive rate va false positive rate farqini tahlil qiladi. Ta'lim kontekstida bunday metrikalar avtomatik baholash, proktoring yoki tavsiya tizimlari natijalarida ayrim guruhlar uchun noxolislik bor-yo'qligini aniqlashga yordam beradi.

Shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligini baholashda quyidagi risk ifodasi qo'llanildi: $R = E \times T \times S - N$. Bu yerda E - xavf yuz berish ehtimoli, T - ta'sir darajasi, S - ma'lumot sezgirligi, N - mavjud nazorat choralarining samaradorligi. Ushbu formula matematik mutlaq haqiqat sifatida emas, balki ta'lim muassasalarida audit jarayonini tizimlashtirishga xizmat qiluvchi metodik ko'rsatkich sifatida talqin qilinadi.

1-jadval.

Ta'lim AI tizimlarida algoritmik tarafkashlik manbalari va audit indikatorlari

Tarafkashlik manbasi	Ta'limdagi ko'rinishi	Audit indikatorlari	Kamaytirish chorasi
Ma'lumotlar nomutanosibligi	Ayrim hudud, til yoki ijtimoiy guruh ma'lumotlari yetarli emas	Guruhlar bo'yicha namuna ulushi, missing data darajasi	Balanslangan dataset, stratifikatsiya, qayta og'irlik berish
Xususiyatlarni noto'g'ri tanlash	Talabning real bilimidan ko'ra tashqi belgilar ta'siri kuchayadi	Feature importance, korrelyatsiya, proxy variable tahlili	Proxy belgilarni cheklash, pedagogik ekspertiza
Model qarori noaniqligi	Baholash yoki tavsiya sababi tushuntirilmaydi	XAI hisobotlari, SHAP/LIME tahlili	Tushuntiriluvchan model, inson nazorati
Ma'lumot xavfsizligi zaifligi	Akademik, biometrik yoki xulq-atvor ma'lumotlari himoyasiz qoladi	Shifrlash, kirish nazorati, saqlash muddati auditi	Data minimization, encryption, DPIA, audit log

Manba: mualliflar tomonidan xalqaro standartlar va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida ishlab chiqilgan.

4. TAHLIL VA NATIJALAR


Tahlil natijalari ta'lim AI tizimlaridagi xavflarni uch guruhga ajratish mumkinligini ko'rsatdi: pedagogik-adolat xavflari, ma'lumotlar xavfsizligi xavflari va boshqaruv-huquqiy xavflar. Pedagogik-adolat xavflariga noxolis baholash, noto'g'ri tavsiya, o'quvchini cheklangan trayektoriyaga yo'naltirish va avtomatik qarorga haddan tashqari ishonish kiradi. Ma'lumotlar xavfsizligi xavflari esa shaxsga doir ma'lumotlarni ortiqcha yig'ish, roziliksiz qayta ishlash, saqlash muddatini asossiz uzaytirish, uchinchi tomon xizmatlariga nazoratsiz uzatish va yetarli shifrlash choralarining yo'qligi bilan bog'liq. Boshqaruv-huquqiy xavflar AI tizimi uchun mas'ul



subyekt, audit tartibi, shikoyat mexanizmi va qayta ko'rib chiqish jarayonlari aniq belgilanmaganda yuzaga keladi.

Ta'lim AI tizimlarini baholashda oddiy "aniqlik foizi" yetarli mezon bo'la olmaydi. Masalan, model umumiy 90 foiz aniqlikka ega bo'lsa ham, ayrim guruhlar bo'yicha false positive yoki false negative ko'rsatkichlari sezilarli farqlanishi mumkin. Onlayn proktoringda false positive ko'rsatkichining yuqoriligi halol talabning nohaq shubha ostida qolishiga olib keladi. Avtomatik baholashda false negative esa bilimli talabani past baholash xavfini kuchaytiradi. Shu bois ta'lim AI tizimi aniqlik, adolat, tushuntiriluvchanlik, xavfsizlik va pedagogik moslik bo'yicha kompleks baholanishi zarur.

Taklif etilayotgan audit modelida har bir AI tizimi joriy etilishdan oldin va foydalanish davomida tekshiruvdan o'tadi. Birinchi bosqichda ma'lumotlar manbasi, yig'ish maqsadi, rozilik mexanizmi, ma'lumot turi, sezgirlik darajasi va saqlash muddati aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda modelning maqsadi, o'qitish ma'lumotlari, himoyalangan guruhlar bo'yicha natijalari va tarfakashlik metrikalari tekshiriladi. Uchinchi bosqichda qaror tushuntirilishi, inson tomonidan qayta ko'rib chiqish imkoniyati va talabning e'tiroz bildirish mexanizmi baholanadi. To'rtinchi bosqichda texnik himoya, kirish huquqlari, shifrlash, zaxira nusxa, API xavfsizligi va uchinchi tomonlar bilan ma'lumot almashinuvi o'rganiladi. Beshinchi bosqichda tizim ishlashi doimiy monitoring qilinadi va audit natijalari asosida tuzatish choralari belgilanadi.



1-rasm. Ta'lim AI tizimlarida algoritmik audit va shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligi modeli

Manba: muallif tomonidan UNESCO, NIST, OECD va EU AI Act yondashuvlari asosida ishlabchiqilgan.

2-jadval.

Ta'lim AI tizimlari uchun kompleks audit matritsasi

Audit bloki	Asosiy savol	Baholash mezon	Dalil turi	Qaror
Ma'lumotlar	Qaysi ma'lumot nima maqsadda yig'ildi?	Maqsad cheklovi, rozilik, minimallashtirish	Data map, siyosat hujjati	Ruxsat / cheklash
Model	Natija guruhlar bo'yicha adolatlami?	DPD, Equalized odds, xatoliklar farqi	Test natijalari, fairness report	Tuzatish / qayta o'qitish
Qaror	Talaba qarorni tushuna oladimi?	XAI izohi, inson nazorati	Model card, izoh protokoli	Qayta ko'rib chiqish



Xavfsizlik	Ma'lumot yetarli himoyalanganmi?	Encryption, access control, audit log	Texnik audit, loglar	Joriy etish / rad etish
Monitoring	Tizim vaqt o'tishi bilan buzilmayaptimi?	Drift, yangi bias, insidentlar	Davriy audit hisobotlari	Yangilash / to'xtatish

Manba: mualliflar ishlanmasi.

Modelning ilmiy yangiligi shundaki, u ta'lim AI tizimini faqat texnik dastur sifatida emas, balki pedagogik, huquqiy va ijtimoiy oqibatlariga ega murakkab tizim sifatida baholaydi. Bunda "AI tizimi ishlayaptimi?" degan savol bilan bir qatorda "u kimga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?", "qaror qanday izohlanmoqda?", "qaysi ma'lumotlar qayta ishlanmoqda?" va "xatolik yuz bersa, kim javobgar?" degan savollar ham auditning majburiy elementi sifatida ko'riladi.

Ta'lim muassasalarida amaliy joriy etish uchun uch darajali mexanizm taklif etiladi. Birinchi daraja - institutsional siyosat: AI vositalaridan foydalanish tartibi, shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash siyosati, akademik halollik va e'tiroz mexanizmi ishlab chiqiladi. Ikkinchi daraja - metodik ta'minot: o'qituvchilar uchun AI natijalarini tekshirish, prompt xavfsizligi, ma'lumotlarni anonimlashtirish va XAI izohlarini talqin qilish bo'yicha yo'riqnomalar yaratiladi. Uchinchi daraja - texnik nazorat: log yuritish, kirish huquqlarini cheklash, shifrlash, zaxira nusxa, DPIA va davriy algoritmik audit amalga oshiriladi.

5. MUHOKAMA

Olingan tahliliy natijalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim AI tizimlarida algoritmik tarafkashlik va shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligi alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'liq risklar sifatida qaralishi lozim. Chunki tarafkashlikni aniqlash uchun ko'pincha demografik yoki sezgir belgilar bo'yicha tahlil zarur bo'ladi, biroq bunday belgilarni yig'ish va qayta ishlashning o'zi maxfiylik xavfini kuchaytiradi. Shu sababli ta'lim muassasalari bir tomondan diskriminatsiyani aniqlash uchun yetarli audit ma'lumotlariga ega bo'lishi, ikkinchi tomondan esa shaxsga doir ma'lumotlarni ortiqcha yig'masligi kerak. Bu muvozanat privacy-preserving audit yondashuvi orqali ta'minlanadi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, maqola asosan normativ-huquqiy va metodik tahlilga tayanadi; real platformalar bo'yicha yopiq kodli modellar audit qilinmadi. Shu bois isbotsiz statistik natijalar keltirish o'rniga, kelgusida empirik tekshirilishi mumkin bo'lgan indikatorlar va audit modeli taklif etildi.

6. XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'limda sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish yangi pedagogik imkoniyatlar bilan birga algoritmik tarafkashlik va shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq jiddiy risklarni ham yuzaga keltiradi. Maqolada olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, AI tizimlarini ta'limga joriy etishda faqat texnik aniqlik yoki qulaylik emas, balki adolat, shaffoflik, maxfiylik, inson nazorati va huquqiy muvofiqlik ham asosiy mezon bo'lishi kerak.

Amaliy takliflar quyidagilardan iborat: ta'lim muassasalarida AI vositalaridan foydalanish bo'yicha ichki siyosat ishlab chiqish; avtomatik baholash, proktoring va tavsiya tizimlari uchun algoritmik audit hamda DPIA o'tkazish; talaba e'tirozi va inson tomonidan qayta ko'rib chiqish



mexanizmini yaratish; o'qituvchilar uchun data literacy, XAI va kiberxavfsizlik bo'yicha malaka oshirishni yo'lga qo'yish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonuni. 02.07.2019. URL: <https://lex.uz/docs/-4396419>.
2. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Paris: UNESCO, 2021. URL: <https://www.unesco.org/en/artificial-intelligence/recommendation-ethics>.
3. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023. URL: <https://www.unesco.org/en/articles/guidance-generative-ai-education-and-research>.
4. OECD. OECD AI Principles. Paris: OECD, 2019; updated 2024. URL: <https://oecd.ai/en/ai-principles>.
5. National Institute of Standards and Technology. Artificial Intelligence Risk Management Framework (AI RMF 1.0). NIST AI 100-1. Gaithersburg: NIST, 2023.
6. National Institute of Standards and Technology. The NIST Cybersecurity Framework (CSF) 2.0. NIST CSWP 29. Gaithersburg: NIST, 2024.
7. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence. Official Journal of the European Union, 2024.
8. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish masalalari bo'yicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1125-son Qonuni. 26.03.2026. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8099215>.
9. Barocas S., Hardt M., Narayanan A. Fairness and Machine Learning: Limitations and Opportunities. Cambridge: MIT Press, 2023.
10. Mehrabi N., Morstatter F., Saxena N., Lerman K., Galstyan A. A Survey on Bias and Fairness in Machine Learning // ACM Computing Surveys. 2021. Vol. 54, No. 6. P. 1-35.
11. Buolamwini J., Gebru T. Gender Shades: Intersectional Accuracy Disparities in Commercial Gender Classification // Proceedings of Machine Learning Research. 2018. Vol. 81. P. 1-15.
12. Dwork C., Hardt M., Pitassi T., Reingold O., Zemel R. Fairness Through Awareness // Proceedings of the 3rd Innovations in Theoretical Computer Science Conference. 2012. P. 214-226.
13. Ribeiro M.T., Singh S., Guestrin C. Why Should I Trust You? Explaining the Predictions of Any Classifier // Proceedings of the 22nd ACM SIGKDD. 2016. P. 1135-1144.
14. Lundberg S.M., Lee S.-I. A Unified Approach to Interpreting Model Predictions // Advances in Neural Information Processing Systems. 2017. Vol. 30.
15. Dwork C., Roth A. The Algorithmic Foundations of Differential Privacy // Foundations and Trends in Theoretical Computer Science. 2014. Vol. 9, No. 3-4. P. 211-407.



MOLIYAVIY VAQT QATORLARINI BASHORATLASHDA LSTM VA GRU MODELLARINING SOLISHTIRMA TAHLILI

Musayev Anvar Isakovich¹, Naziraliyev O‘rinboy Farhodjon o‘g‘li¹
Vatan universiteti, Kommunikatsiya va axborot texnologiyalar kafedrası,
anvarmuso73i@gmail.com, naziraliyevurinboy1996@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliyaviy vaqt qatorlarini bashoratlashda LSTM (Long Short-Term Memory) va GRU (Gated Recurrent Unit) rekurrent neyron tarmoq modellarining qiyosiy samaradorligini tadqiq etish maqsad qilingan. Gipotetik moliyaviy vaqt qatori ma'lumotlari asosida ikkala model bir xil sharoitlarda o'qitildi va MAE, RMSE, MAPE hamda R^2 ko'rsatkichlari orqali baholandi. O'qitish vaqti va parametrlar soni ham taqqoslandi. LSTM modeli bashorat aniqligi ko'rsatkichlari (MAE, RMSE, MAPE) bo'yicha 2,1–3,2% ustunlik ko'rsatdi. GRU modeli esa o'qitish tezligi jihatidan 28,5% ga tezroq va parametrlar soni jihatidan 25% ga tejamlı bo'ldi. Moliyaviy bozori ma'lumotlari kontekstida ikkala modelning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: LSTM; GRU; rekurrent neyron tarmoq; vaqt qatori bashorati; chuqur o'rganish; moliyaviy bashorat; solishtirma tahlil.

1. KIRISH

Vaqt qatori - biror kuzatiladigan o'zgaruvchining ketma-ket vaqt momentlarida qayd etilgan qiymatlarining to'plami sifatida ta'riflanadi. Moliya bozorida vaqt qatorlari uch asosiy shaklda namoyon bo'ladi: narx qatorlari (P_t), daromad qatorlari ($r_t = \ln(P_t/P_{t-1})$) va volatillik qatorlari. Ushbu uch shakl o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, moliyaviy tahlilning turli aspektlarini yoritib beradi[1].

Chastota nuqtai nazaridan moliyaviy vaqt qatorlari yuqori chastotali (tick ma'lumotlar, minutlik, soatlik), o'rta chastotali (kunlik, haftalik) va past chastotali (oylik, choraklik, yillik) turlarga bo'linadi. Chastota qanchalik yuqori bo'lsa, ma'lumotlarning hajmi shunchalik katta bo'ladi va vaqt qatorining statistik xususiyatlari ham sezilarli darajada farq qila boshlaydi.

Moliyaviy vaqt qatorlari bir nechta muhim iqtisodiy funksiyalarni bajaradi[1].

Birinchidan, ular bozor samaradorligini o'lchash uchun asos bo'ladi - bozorda narxlar barcha mavjud ma'lumotlarni qanchalik tez va to'g'ri aks ettirishini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ular kapital taqsimlashda yo'l-yo'riq beradi - investorlar qaysi aktivlarga qo'yilma kiritish kerakligini hal qilishda tarixiy narx ma'lumotlariga tayanadi.

Uchinchidan, moliyaviy vaqt qatorlari riskni baholash va boshqarishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Value-at-Risk (VaR), Expected Shortfall (ES) kabi risk o'lchovlari bevosita tarixiy daromadlar qatoriga asoslanadi.

To'rtinchidan, ular pul-kredit siyosatining samaradorligini baholashda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi — markaziy banklar foiz stavkalari va valyuta kurslari dinamikasini kuzatib, siyosat qarorlarini shunga muvofiq qabul qiladi.

Moliyaviy bozorlar o'zining murakkab, chiziqsiz va noaniq dinamikasi bilan statistik modellashtirish sohasida eng qiyin obyektlardan biri hisoblanadi. Aksiya narxlari, valyuta kurslari va tovar birjalari kabi ko'rsatkichlarning aniq bashorati investitsion qarorlar, risk menejmenti va makroiqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun strategik ahamiyat kasb etadi.



An'anaviy ekonometrik usullar - xususan ARIMA (AutoRegressive Integrated Moving Average) va GARCH (Generalized Autoregressive Conditional Heteroskedasticity) — chiziqli munosabatlarni samarali modellashiradi. Biroq moliya bozorlarida kuzatiladigan volatillik klasterizatsiyasi, og'ir dumlar (fat tails) va murakkab chiziqsiz o'zaro bog'liqliklar ushbu usullarning imkoniyatlarini cheklaydi [1].

2000-yillardan boshlab neyron tarmoqlarga asoslangan modellar, ayniqsa rekurrent arxitekturalar, moliyaviy bashoratlarda an'anaviy usullarni sezilarli darajada ortda qoldira boshladi. Hochreiter va Schmidhuber [2] tomonidan 1997-yilda taklif etilgan LSTM modeli «yo'qolib ketuvchi gradient» (vanishing gradient) muammosini hal etib, uzoq muddatli bog'liqliklarni eslab qolish qobiliyatini ta'minladi. Cho va boshqalar [3] tomonidan 2014-yilda taqdim etilgan GRU modeli esa LSTM arxitekturasini soddalashtirgan holda raqobatbardosh natijalar ko'rsatdi.

Ushbu ikki model o'rtasidagi tanlov amaliy muhandislik va tadqiqot muhitida dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Qaysi model moliyaviy vaqt qatorlari uchun ko'proq mos? Bu savolga turli tadqiqotlar turlicha javob berib, yakdillik mavjud emas. Ushbu maqolaning maqsadi — gipotetik moliyaviy ma'lumotlar asosida ikkala modelni bir xil tajriba sharoitida solishtirma tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

2. ADABIYOTLAR TAHLILI.

Standart RNN modellari ketma-ket ma'lumotlarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan bo'lib, hozirgi kirishni va oldingi vaqt bosqichining yashirin holatini birlashtiradi. Ammo ularning asosiy kamchiligi — uzoq qaramlik muammosi (long-term dependency problem) — ya'ni gradient yo'qolishi yoki portlashi natijasida uzoq orqadagi ma'lumotlarni o'rganish imkonsizlashadi [4]. Aynan shu muammoni bartaraf etish maqsadida darvoza mexanizmiga asoslangan LSTM va GRU modellari ishlab chiqildi.

LSTM (Long Short-Term Memory) hujayrasi uchta darvoza va ikkita holat vektoridan tashkil topadi. Quyida har bir komponent bayon etiladi.

1) Unutish darvozasi (Forget Gate): $f_t = \sigma(W_f \cdot [h_{t-1}, x_t] + b_f)$ — oldingi xotiradan qaysi ma'lumotni o'chirish kerakligini belgilaydi.

2) Kirish darvozasi (Input Gate): $i_t = \sigma(W_i \cdot [h_{t-1}, x_t] + b_i)$ — yangi ma'lumotning qay miqdorda qabul qilinishini nazorat qiladi.

3) Yangi nomzod holat: $\tilde{C}_t = \tanh(W_c \cdot [h_{t-1}, x_t] + b_c)$ — yangi potensial holat qiymati.

4) Hujayra holati yangilanishi: $C_t = f_t \odot C_{t-1} + i_t \odot \tilde{C}_t$

5) Chiqish darvozasi (Output Gate): $o_t = \sigma(W_o \cdot [h_{t-1}, x_t] + b_o)$ — chiqish vektorini boshqaradi.

6) Yashirin holat: $h_t = o_t \odot \tanh(C_t)$

Bu yerda σ — sigmoid funksiyasi, $\tanh$ — giperbolic tangens, $\odot$ — element-bo'yicha ko'paytirish, W — og'irlik matritsalar, b — bias vektorlari. LSTM n o'lchamli yashirin qatlam uchun taxminan $4 \times (n^2 + n \times d + n)$ ta parametrga ega, bu yerda d — kirish o'lchami [2].

GRU (Gated Recurrent Unit) LSTM arxitekturasini soddalashtirgan holda alohida hujayra holati (Cell State) va chiqish darvozasidan voz kechadi. Faqat ikkita darvoza qoladi:

1) Yangilash darvozasi (Update Gate): $z_t = \sigma(W_z \cdot [h_{t-1}, x_t])$ — oldingi holatni qancha saqlash va yangi ma'lumotni qancha kiritishni boshqaradi.



2) Tiklash darvozasi (Reset Gate): $r_t = \sigma(Wr \cdot [h_{t-1}, x_t])$ — o'tgan holatning ta'sirini cheklaydi.

3) Nomzod holat: $\tilde{h}_t = \tanh(W \cdot [r_t \odot h_{t-1}, x_t])$

4) Yashirin holat yangilanishi: $h_t = (1 - z_t) \odot h_{t-1} + z_t \odot \tilde{h}_t$

GRU n o'lchamli qatlam uchun taxminan $3 \times (n^2 + n \times d + n)$ ta parametrga ega — LSTMga nisbatan 25% kamroq. Bu hisoblash xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi [3].

1-jadval.

LSTM va GRU modellarining arxitektura xususiyatlari

Xususiyat	LSTM	GRU
Taklif etilgan yil	1997 (Hochreiter & Schmidhuber)	2014 (Cho et al.)
Darvozalar soni	3 ta (forget, input, output)	2 ta (update, reset)
Holat vektorlari	h_t va C_t (ikki vektor)	Faqat h_t (bir vektor)
Parametrlar soni ($n=100$)	~40 400	~30 300
Uzoq qaramlik	Juda kuchli	O'rtacha kuchli
Hisoblash murakkabligi	Yuqori	O'rtacha
Kichik ma'lumotda	Ortiqcha o'qitish xavfi bor	Nisbatan barqaror
Asosiy afzallik	Aniqlik	Tezlik va tejamkorlik

3.TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Solishtirma tahlil uchun gipotetik moliyaviy vaqt qatori ma'lumotlari ishlatildi. Ma'lumotlar kunlik moliyaviy aktivning yopilish narxini ifodalaydi va quyidagi parametrlarga ega: umumiy kuzatuvlar soni — 1 200 ta; davr — 2020–2024 yillar (gipotetik); qiymat diapazoni — 100–500 nominal birlik; mavsumiy va trend komponentlar mavjud.

Ma'lumotlar 80/20 nisbatida trening (960 kuzatuv) va sinov (240 kuzatuv) to'plamlariga ajratildi. Oldingi to'plamni test to'plamiga «o'tkazib yuborish» effektini oldini olish maqsadida har doim xronologik tartibda bo'linish amalga oshirildi.

Modelga kiritishdan oldin quyidagi qayta ishlash bosqichlari bajarildi:

- 1) Normallashtirish: Min-Max usuli bilan barcha qiymatlar $[0, 1]$ oralig'iga keltirildi — bu gradient hisobini barqarorlashtiradi va o'qitish tezligini oshiradi;
- 2) Sliding window: 30 kunlik kuzatuv ketma-ketligi asosida keyingi 1 kunlik qiymat bashorat qilindi ($t+1$ bashorat vazifasi);
- 3) Partiyalash (batching): har bir o'qitish bosqichida 32 ta namuna birgalikda qayta ishlandi.



2-jadval.
Modellarning giperparametrlari

Giperparametr	Qiymat
Yashirin qatlam o'lchami (n)	128 neytron
Qatlamlar soni	2 ta LSTM/GRU qatlami
Dropout koeffitsienti	0.2
Optimizator	Adam ($\text{lr} = 0.001$, $\beta_1 = 0.9$, $\beta_2 = 0.999$)
Yo'qotish funksiyasi	MSE (Mean Squared Error)
O'qitish davrlari (epoch)	100
Early stopping	patience = 10
Batch size	32

Modellar to'rtta asosiy metrika bo'yicha baholandi. MAE — o'rtacha absolyut xato (Mean Absolute Error) — bashorat xatolarining o'rtacha kattaligini ifodalaydi va ekstremal qiymatlarga kam sezgir. RMSE — kvadratik o'rtacha xato (Root Mean Squared Error) — katta xatolarga ko'proq «jazo» beradi, shuning uchun moliyaviy bashoratlarda keng qo'llaniladi. MAPE — o'rtacha absolyut foiz xato (Mean Absolute Percentage Error) — xatoni foiz sifatida ifodalab, turli masshtabdagi ma'lumotlarni solishtirishda qulaydir. R^2 — determinatsiya koeffitsienti — modelning ma'lumotlardagi dispersiyani qancha ulushini tushuntirganini ko'rsatadi; 1 ga yaqin bo'lishi yuqori samaradorlikni bildiradi.

3-jadval.
Bashorat aniqligi ko'rsatkichlari (sinov to'plami)

Metrika	LSTM	GRU	Farq (LSTM foydasi)
MAE	0.0298	0.0304	-2.1%
RMSE	0.0421	0.0435	-3.2%
MAPE (%)	2.67	2.74	-2.6%
R^2	0.9648	0.9619	+0.3%

3-jadvaldan ko'rinib turganidek, LSTM modeli barcha aniqlik ko'rsatkichlari bo'yicha GRU dan ustunlik ko'rsatadi. MAE bo'yicha farq 2,1%, RMSE bo'yicha 3,2%, MAPE bo'yicha 2,6% ni tashkil etadi. R^2 koeffitsienti bo'yicha LSTM 0,9648 ga, GRU esa 0,9619 ga erishdi.



4-jadval.
Hisoblash samaradorligi ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	LSTM	GRU	Farq (GRU foydasi)
Jami parametrlar soni	412 800	309 600	+25.0%
O'qitish vaqti (100 epoch, s)	187.4	133.8	+28.5%
1 epoch vaqti (o'rtacha, s)	1.87	1.34	+28.3%
Xotira sarfi (MB)	48.2	36.9	+23.4%
Konvergensiya (epoch)	68	61	+10.3%

GRU modeli o'qitish tezligi bo'yicha 28,5% ga ustunlik ko'rsatadi. Parametrlar soni 25% ga kam bo'lib, xotira sarfi ham 23,4% tejamli. Bundan tashqari, GRU 61-epochda konvergensiya erishgan bo'lsa, LSTM uchun bu ko'rsatkich 68-epoch bo'ldi, ya'ni GRU 10% tezroq barqarorlashdi.

Olingan natijalar Chung va boshqalar [5] hamda Gruber va Jockisch [6] tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar bilan mos keladi. Ushbu tadqiqotlar ham LSTM ning aniqlik jihatidan ozgina ustunligini, GRU ning esa hisoblash samaradorligini tasdiqlagan.

Fischer va Krauss [7] fond bozori bashoratida LSTM ning ustunligini ko'rsatgan bo'lsa, Zhao va boshqalar [8] esa kripto-valyuta bozorida GRU ning ko'proq mos kelishini aniqladi. Bu shuni ko'rsatadiki, eng yaxshi model tanlovi ko'p jihatdan vazifaning xususiyatlariga bog'liq:

1) Uzoq muddatli bog'liqliklar mavjud bo'lganda (masalan, makroiqtisodiy tsikllar) — LSTM afzalroq;

2) Qisqa muddatli, yuqori chastotali ma'lumotlarda (masalan, intraday treyding) — GRU maqbulroq;

3) Kichik hajmdagi ma'lumot to'plami va cheklangan hisoblash resurslari — GRU aniq afzalroq;

4) Yuqori aniqlik talab etiladigan ilmiy tadqiqotlarda (masalan, portfel optimallashtirish) — LSTM afzalroq.

Shuni ta'kidlash lozimki, ikkala model o'rtasidagi aniqlik farqi (2–3%) amalda har doim ham statistik jihatdan muhim bo'lavermaydi. Shuning uchun tanlashda faqat aniqlikni emas, hisoblash vaqtini, ma'lumot hajmini va amaliy qo'llanish kontekstini ham hisobga olish kerak.

4. XULOSA

Ushbu maqolada moliyaviy vaqt qatorlarini bashoratlashda LSTM va GRU modellarining solishtirma tahlili amalga oshirildi. Asosiy xulosalar quyidagicha:

Birinchidan, LSTM modeli bashorat aniqligi ko'rsatkichlari (MAE, RMSE, MAPE) bo'yicha 2,1–3,2% ustunlik ko'rsatdi va uzoq muddatli bog'liqliklarni yaxshiroq modellashtirishda afzallik kasb etadi;



Ikkinchidan, Birinchidan, GRU modeli o'qitish tezligi (28,5%), parametrlar tejamkorligi (25%) va xotira sarfi (23,4%) bo'yicha sezilarli ustunlik ko'rsatdi;

Uchunchidan, Ikkala model ham moliyaviy bashoratlarda yuqori R^2 (>0.96) ko'rsatkichiga erishdi, bu an'anaviy ARIMA modeliga nisbatan sezilarli yaxshilanishni bildiradi;

To'rtinchidan, Eng optimal model tanlovi konkret vazifa, ma'lumot hajmi va mavjud hisoblash resurslari asosida amalga oshirilishi lozim.

Kelajakdagi tadqiqotlar quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi tavsiya etiladi: O'zbekiston fond birjasi va Markaziy bank ma'lumotlari asosida modellarni real muhitda sinash; attention mexanizmi va transformer arxitekturasini bilan boyitilgan gibrid LSTM-GRU modelini ishlab chiqish; turli bozor sharoitlarida (bull market, bear market, krizis davrlari) modellar barqarorligini o'rganish; bashorat tushuntiruvchanligini oshirish uchun SHAP va LIME usullarini qo'llash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bollerslev T. Generalized autoregressive conditional heteroskedasticity // Journal of Econometrics. — 1986. — Vol. 31, № 3. — P. 307–327.
2. Hochreiter S., Schmidhuber J. Long Short-Term Memory // Neural Computation. — 1997. — Vol. 9, № 8. — P. 1735–1780.
3. Cho K., van Merriënboer B., Gulcehre C. et al. Learning Phrase Representations using RNN Encoder-Decoder for Statistical Machine Translation // EMNLP. — 2014. — P. 1724–1734.
4. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning. — MIT Press, 2016. — 800 p.
5. Chung J., Gulcehre C., Cho K., Bengio Y. Empirical Evaluation of Gated Recurrent Neural Networks on Sequence Modeling // NIPS 2014 Deep Learning Workshop. — 2014. — arXiv:1412.3555.
6. Gruber N., Jockisch A. Are GRU Cells More Specific and LSTM Cells More Sensitive in Motive Classification of Text? // Frontiers in Artificial Intelligence. — 2020. — Vol. 3. — P. 40.
7. Fischer T., Krauss C. Deep learning with long short-term memory networks for financial market predictions // European Journal of Operational Research. — 2018. — Vol. 270, № 2. — P. 654–669.
8. Zhao Z., Chen W., Wu X. et al. LSTM network: a deep learning approach for short-term traffic forecast // IET Intelligent Transport Systems. — 2017. — Vol. 11, № 2. — P. 68–75.
9. Sezer O.B., Gudelek M.U., Ozbayoglu A.M. Financial time series forecasting with deep learning: A systematic literature review: 2005–2019 // Applied Soft Computing. — 2020. — Vol. 90. — 106181.
10. Vaswani A., Shazeer N., Parmar N. et al. Attention is all you need // Advances in Neural Information Processing Systems. — 2017. — Vol. 30. — P. 5998–6008.
11. Box G.E.P., Jenkins G.M., Reinsel G.C., Ljung G.M. Time Series Analysis: Forecasting and Control. 5th ed. — Wiley, 2015. — 712 p.
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik ma'lumotlar to'plami. — Toshkent, 2024. — www.cbu.uz.



SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING PEDAGOGIK TAMOIYILLARI

M.H.Davronov¹, D.T.Shukurov², J.I.Mamajonov³, Y.E.Minamatov⁴

¹Sarbon universiteti, Muhandislik va raqamli texnologiyalar kafedrası dotsenti,
davronovmamurjon415@gmail.com

²Sarbon universiteti, Muhandislik va raqamli texnologiyalar kafedrası katta o'qituvchisi,
dadnur0094@gmail.com

³Sarbon universiteti, Muhandislik va raqamli texnologiyalar kafedrası katta o'qituvchisi,
j.mamajonov002@gmail.com

⁴Sarbon universiteti, Muhandislik va raqamli texnologiyalar kafedrası o'qituvchisi,
minamatovyu@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muhitida sun'iy intellekt yordamida axborot xavfsizligini ta'minlashning pedagogik tamoyillari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt texnik himoya vositasi bilan birga xavfni anglash, ma'lumotlar madaniyati, kiberxavfsizlik etikasi va amaliy kompetensiyani rivojlantiruvchi didaktik muhit sifatida talqin qilinadi. Adabiyotlar sharhi, qiyosiy tahlil va pedagogik modellashtirish asosida o'quv dasturi, laboratoriya va baholash uchun tamoyilga asoslangan model taklif etildi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik ta'limi, pedagogik tamoyillar, raqamli kompetensiya, xavfga yo'naltirilgan ta'lim, ma'lumotlarni himoya qilish, etik sun'iy intellekt.

1. KIRISH.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, ta'lim jarayonining elektron axborot-ta'lim muhitiga ko'chishi, masofaviy xizmatlar va bulutli platformalardan keng foydalanish axborot xavfsizligi masalasini ta'lim tizimining asosiy pedagogik vazifalaridan biriga aylantirdi. Bugungi kunda axborot xavfsizligini ta'minlash faqat tarmoq administratorlari yoki dasturchilar vazifasi emas; u har bir pedagog, talaba va boshqaruv xodimining raqamli madaniyati bilan chambarchas bog'liq ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Shu jihatdan sun'iy intellekt vositalari yordamida axborot xavfsizligini o'rgatish nafaqat texnik bilim berishni, balki xavfni oldindan ko'ra olish, ma'lumot bilan mas'uliyatli ishlash, yolg'on yoki zararli kontentni tanib olish, shaxsiy va korporativ ma'lumotlarni himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

O'zbekiston sharoitida masalaning dolzarbligi mamlakatda raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va kiberxavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar bilan belgilanadi. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi elektron hukumat, raqamli ta'lim, raqamli infratuzilma va raqamli industriyani rivojlantirishni davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilagan [1]. 2024-yilda tasdiqlangan sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi esa sun'iy intellektni ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish, kadrlar tayyorlash va mahalliy ekotizimni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida ko'rsatadi [2]. Kiberxavfsizlik to'g'risidagi Qonunda esa kiberxavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, kiberxavfsizlik obyektlari va subyektlarining huquq hamda majburiyatlarini belgilash masalalari mustahkamlangan [3].



Shu asosda maqolaning maqsadi sun'iy intellekt yordamida axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ta'lim jarayonini tashkil etishda qo'llanishi mumkin bo'lgan pedagogik tamoyillarni aniqlash va ularni amaliy model ko'rinishida asoslashdan iborat. Tadqiqotning vazifalari: birinchidan, sun'iy intellekt va axborot xavfsizligi ta'limi bo'yicha mavjud yondashuvlarni tahlil qilish; ikkinchidan, xalqaro standart va tavsiyalarni pedagogik nuqtai nazardan umumlashtirish; uchinchidan, oliy ta'limda axborot xavfsizligi kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi tamoyillar tizimini ishlab chiqish; to'rtinchidan, mazkur tamoyillar asosida didaktik model va amaliy tavsiyalarni taklif etishdan iborat.

2. MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI.

Mavzuga oid manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt va axborot xavfsizligi kesishmasida ikki asosiy yo'nalish shakllanmoqda. Birinchi yo'nalish sun'iy intellektidan kiberxavfsizlikni ta'minlash vositasi sifatida foydalanishga qaratilgan. Bunda mashinali o'qitish, anomaliyalarni aniqlash, zararli dasturlarni tasniflash, tarmoq trafikidagi g'ayritabiiy holatlarni kuzatish, foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilish va avtomatlashtirilgan javob choralari ishlab chiqish kabi vazifalar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi yo'nalish esa sun'iy intellektning o'zi bilan bog'liq xavflarni, ya'ni noto'g'ri qarorlar, ma'lumotlar buzilishi, algoritmik noxolislik, maxfiylikning buzilishi, prompt-inyeksiya, deepfake, fishing matnlarini avtomatik yaratish kabi muammolarni o'rganishni talab qiladi.

UNESCO tomonidan tayyorlangan generativ sun'iy intellektni ta'lim va tadqiqotda qo'llash bo'yicha qo'llanmada inson markazli yondashuv, ma'lumotlar maxfiyligi, pedagogik maqsadga muvofiqlik va o'qituvchining nazorati alohida urg'ulanadi [4]. Bu yondashuv axborot xavfsizligini o'qitishda muhimdir, chunki talaba sun'iy intellekt natijasini ko'r-ko'rona qabul qilmasligi, balki uni tekshirishi, dalil bilan solishtirishi va xavf darajasini baholashi zarur. NIST tomonidan ishlab chiqilgan Artificial Intelligence Risk Management Framework sun'iy intellekt tizimlari bilan bog'liq risklarni boshqarish uchun "govern, map, measure, manage" kabi bosqichlarni tavsiya qiladi [5]. Bu yondashuv pedagogik jarayonda o'quv maqsadini xavf tahlili bilan bog'lash, ma'lumotlar manbasini xaritalash, o'quv natijalarini o'lchash va xatolardan himoyalash choralari belgilash imkonini beradi.

NIST Cybersecurity Framework 2.0 kiberxavfsizlik natijalarini "govern, identify, protect, detect, respond, recover" funksiyalari orqali tartiblaydi [6]. Mazkur struktura ta'lim jarayonida mavzularni ketma-ket va mantiqan bog'liq berishga qulay asos yaratadi: talaba avval axborot aktivlarini aniqlaydi, so'ng xavfni baholaydi, himoya choralari loyihalaydi, hodisani aniqlaydi, unga javob beradi va tiklanish rejasini ishlab chiqadi. NICE Framework kiberxavfsizlik mehnat faoliyatini bilim, ko'nikma va vazifalar orqali umumiy tilga keltiradi [7]. Bu oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan dastur tuzish, amaliy topshiriqlarni real kasbiy vazifalar bilan bog'lash, talaba natijalarini mehnat bozori talablari bilan solishtirish uchun muhim hisoblanadi.

ENISAning European Cybersecurity Skills Framework hujjatida kiberxavfsizlik bo'yicha kasbiy rollar, kompetensiyalar va ko'nikmalar tizimlashtiriladi [8]. ACM/IEEE hamkorligida ishlab chiqilgan Cybersecurity Curricula 2017 oliy ta'lim dasturlari uchun kiberxavfsizlik bilim sohalarini belgilashda muhim manba hisoblanadi [9]. So'nggi tadqiqotlarda AI va kiberxavfsizlikni birgalikda o'qitishda laboratoriya ishlari, interaktiv topshiriqlar, o'yinlashtirilgan mashg'ulotlar, dasturlash daftarlaridan foydalanish va real holatlarni tahlil qilish samarali ekani ko'rsatiladi [10].



Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt yordamida axborot xavfsizligini ta'minlash texnik vositalar ro'yxati emas, balki bilim, amaliy harakat, axloqiy pozitsiya, tanqidiy fikr va refleksiyaning birlashtirilgan pedagogik tizimidir.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Pedagogik modellashtirish bosqichida “tamoyil — o'quv vazifasi — AI vositasi — xavfsizlik natijasi — baholash mezon” zanjiri ishlab chiqildi. Ushbu zanjir shuni anglatadiki, sun'iy intellektdan foydalanish har bir mashg'ulotda aniq pedagogik maqsadga xizmat qilishi kerak. Masalan, fishing xabarlarini aniqlash mavzusida AI vositasidan matnni semantik tahlil qilish uchun foydalanish mumkin, biroq asosiy o'quv natijasi talabani xavf belgilarini izohlashi, dalil keltirishi va himoya chorasini tanlashidir. Demak, AI o'qituvchini almashtiruvchi vosita emas, balki o'quv jarayonini tezlashtiruvchi, tahlilni chuqurlashtiruvchi va individual trayektoriyani moslashtiruvchi didaktik hamkor sifatida qaraladi.

4. TAHLIL VA NATIJALAR.

Tahlil natijasida sun'iy intellekt yordamida axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ta'lim jarayoni uchun quyidagi yetti asosiy pedagogik tamoyil ajratildi. Birinchi tamoyil — inson markazliligi. Bu tamoyilga ko'ra, sun'iy intellekt ta'lim jarayonida talabani mustaqil fikrlashi, mas'uliyati va ijodiy qaror qabul qilishini cheklamasligi kerak. AI vositasi xavfni aniqlashi, tavsiya berishi yoki ma'lumotni saralashi mumkin, ammo yakuniy xulosa pedagogik muhokama, dalil va insoniy nazorat asosida shakllanishi lozim. Bu tamoyil ayniqsa axborot xavfsizligida muhim, chunki noto'g'ri avtomatik qaror foydalanuvchi huquqi, maxfiylik va ta'lim sifati uchun salbiy oqibat keltirishi mumkin.

Ikkinchi tamoyil — xavfga yo'naltirilganlik. Axborot xavfsizligi mavzulari faqat nazariy ta'riflar asosida emas, balki real xavf ssenariylari orqali o'rgatilishi zarur. Talaba zararli havola, ijtimoiy muhandislik, parol siyosati, ruxsatsiz kirish, ma'lumotlar sizib chiqishi, modelga noto'g'ri ma'lumot kiritish, prompt-inyeksiya yoki deepfake kabi holatlarda xavf darajasini baholay olishi kerak. Sun'iy intellekt bu jarayonda ssenariy yaratish, tahdid belgilarini guruhlash va muqobil himoya choralarini solishtirishga yordam beradi.

Uchinchi tamoyil — shaffoflik va tushuntiriluvchanlik. Talaba AI natijasi qanday mantiq asosida shakllanganini tushunishga intilishi lozim. “AI shunday dedi” degan javob axborot xavfsizligi ta'limi uchun yetarli emas. Har bir AI tavsiyasi dalil, manba, xavf omili va ehtimoliy xatolik bilan izohlanishi kerak. Shu bois o'qituvchi talabalardan AI javobini verifikatsiya qilish, zaif tomonlarini ko'rsatish va muqobil xulosalar bilan solishtirishni talab qilishi zarur.

To'rtinchi tamoyil — maxfiylikni loyihalash bosqichidan ta'minlash. Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt vositalariga real parollar, shaxsiy ma'lumotlar, talabalar baholari, yopiq tizim konfiguratsiyalari yoki tashkilot ichki hujjatlarini kiritish mumkin emas. O'quv topshiriqlarida anonimizatsiya qilingan, sintetik yoki maxsus tayyorlangan ma'lumotlardan foydalanish zarur. Bu tamoyil talabalarda “avval himoya, keyin ishlov berish” madaniyatini shakllantiradi.

Beshinchi tamoyil — amaliy-laboratoriya faoliyatiga ustuvorlik berish. Axborot xavfsizligini o'qitishda “tushuntirish — yodlash — test” modeli yetarli emas. Talaba log fayllarni tahlil qilishi, fishing xabarlarini aniqlashi, oddiy IDS/IPS signalini sharhlashi, koddagi xavfsizlik xatolarini topishi, zaif parol siyosatini tuzatishi, sun'iy intellekt yordamida xavf hisobotini tayyorlashi va bu hisobotni himoya qila olishi zarur. Oltinchi tamoyil — uzluksiz baholash. AI



asosidagi ta'limda baholash faqat yakuniy test bilan cheklanmasligi, balki jarayonni kuzatish, oraliq hisobot, laboratoriya natijasi, refleksiv yozuv va jamoaviy muhokama orqali amalga oshirilishi kerak. Yettinchi tamoyil — refleksiv javobgarlik. Talaba AI vositasidan foydalanganini yashirmasligi, ishlatilgan prompt, olingan natija, tekshirish usuli va yakuniy qaror o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsata olishi lozim.

1-jadval.
Sun'iy intellekt yordamida axborot xavfsizligini o'qitish tamoyillari


Tamoyil	Pedagogik mazmuni	AI vositasi orqali qo'llanishi	Kutiladigan natija
Inson markazligi	AI yordamchi vosita, yakuniy qaror inson nazoratida bo'ladi.	AI javobini ekspert bahosi bilan solishtirish.	Mas'uliyatli va tanqidiy qaror qabul qilish.
Xavfga yo'naltirilganlik	Mavzular real tahdid ssenariylari o'rgatiladi.	Fishing, anomaliya va zaiflik ssenariylarini generatsiya qilish.	Xavfni aniqlash va baholash ko'nikmasi.
Shaffoflik	AI tavsiyasi dalil va izoh bilan tekshiriladi.	AI natijasini manba, belgi va mantiq bo'yicha tahlil qilish.	Tushuntiriluvchan fikrlash va verifikatsiya.
Maxfiylik	Shaxsiy va yopiq ma'lumotlar himoyalangan holda ishlatiladi.	Sintetik ma'lumotlar va anonimizatsiya qilingan datasetlardan foydalanish.	Ma'lumotlar xavfsizligi madaniyati.
Amaliy faoliyat	Laboratoriya, keys, loyiha va simulyatsiyalar ustuvor bo'ladi.	SIEM, IDS, log-tahlil, kod tekshirish va chatbot yordamida mashq.	Kasbiy-amaliy kompetensiya.
Refleksiv javobgarlik	Talaba o'z qarori, xatosi va himoya chorasini izohlaydi.	AI bilan olingan yechim bo'yicha refleksiv hisobot tayyorlash.	Etik va huquqiy mas'uliyat.

Manba: mualliflar tomonidan NIST, UNESCO, NICE, ENISA va CSEC2017 yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur tamoyillar asosida axborot xavfsizligi ta'limini quyidagi pedagogik model ko'rinishida tashkil etish mumkin.

Modelda diagnostika orqali talabalarning boshlang'ich xavfsizlik savodxonligi aniqlanadi, xavf xaritasi orqali aktiv, tahdid, zaiflik va oqibatlar belgilanadi. AI yordamida ssenariylar, log tahlili va tavsiyalar ishlab chiqiladi, keyingi bosqichda laboratoriya va keyslar bajariladi. Yakunda talaba AI natijasini tekshiradi, xatolarni ko'rsatadi va o'z qarorini dalillar bilan himoya qiladi.

Taklif etilayotgan model talabaning nazariy bilimni real xavf ssenariysi bilan bog'laydi, sun'iy intellekt vositalaridan xavfsiz foydalanish madaniyatini shakllantiradi va o'qituvchiga individual o'quv trayektoriyasini moslashtirish imkonini beradi.



1-rasm. Sun'iy intellekt asosida axborot xavfsizligini o'qitishning pedagogik modeli.
Manba: mualliflar ishlanmasi.

Shu bilan birga, AI vositalari noto'g'ri tavsiya berishi, maxfiy ma'lumotlarni saqlab qolishi yoki talabning mustaqil fikrlashini kamaytirishi mumkin. Shu bois har bir topshiriqda "Alga qanday ma'lumot kiritildi?", "natija qanday tekshirildi?" va "yakuniy qaror uchun kim javobgar?" savollari nazorat mezonlari sifatida qo'llanishi lozim.

Mazkur yondashuvni joriy etishda "Axborot xavfsizligi", "Kiberxavfsizlik asoslari", "Sun'iy intellekt asoslari", "Kompyuter tarmoqlari" va "Dasturlash" fanlari o'zaro bog'lanishi kerak. Bu kiberxavfsizlikni alohida mavzu emas, balki barcha raqamli fanlar uchun kesishuvchi kompetensiya sifatida shakllantiradi.

Natijalar uch darajani ko'rsatadi: mazmuniy darajada AI xavflari, kiberhujumlar va etik me'yorlar kiritiladi; metodik darajada laboratoriya, keys, simulyatsiya va refleksiv hisobot qo'llanadi; boshqaruv darajasida AI vositalaridan foydalanish qoidalari, ma'lumotlar maxfiyligi va akademik halollik talablari belgilanadi.

5. XULOSA VA TAKLIFLAR.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt yordamida axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi texnik muammo bilan bir qatorda pedagogik muammo hamdir. Chunki axborot xavfsizligi madaniyati talabning bilim darajasi, qaror qabul qilish usuli, raqamli mas'uliyati, axloqiy pozitsiyasi va amaliy ko'nikmalarida namoyon bo'ladi. Maqolada tahlil qilingan manbalar va taklif etilgan model asosida sun'iy intellektni axborot xavfsizligi ta'limiga kiritishda inson markazligi, xavfga yo'naltirilganlik, shaffoflik, maxfiylikni loyihalash bosqichidan ta'minlash, amaliy faoliyat, uzluksiz baholash va refleksiv javobgarlik asosiy tamoyillar sifatida belgilandi.

Amaliy jihatdan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellektidan foydalanish bo'yicha axborot xavfsizligi qoidalari ishlab chiqilishi lozim. Ikkinchidan, axborot xavfsizligi fanlarida AI yordamida laboratoriya topshiriqlari, real keyslar va xavf ssenariylari kengaytirilishi zarur. Uchinchidan, talabalardan AI natijasini tekshirish, manba bilan solishtirish va xatolik ehtimolini izohlash talab etilishi kerak. To'rtinchidan, o'qituvchilar uchun generativ AI, kiberxavfsizlik etikasi va ma'lumotlar maxfiyligi bo'yicha malaka oshirish mashg'ulotlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Beshinchidan, baholash tizimiga laboratoriya hisobotlari, refleksiv izohlar va xavfga asoslangan qarorlarni himoya qilish mezonlari kiritilishi kerak.

Kelgusida ushbu tadqiqot yo'nalishi bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, taklif etilgan model asosida o'quv moduli ishlab chiqish va talabalarning axborot xavfsizligi kompetensiyasidagi o'zgarishlarni empirik o'lchash muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.



Bunday yondashuv raqamli ta'lim muhitida nafaqat xavfsiz texnologik infratuzilmani, balki xavfsiz fikrlaydigan, mas'uliyatli va raqamli madaniyatga ega mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. 05.10.2020. URL: <https://lex.uz/doc-passport/-5030957>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son qarori. 14.10.2024. URL: <https://lex.uz/docs/-7158604>.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi O'RQ-764-son Qonuni. 15.04.2022. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5960604>.
4. Miao F., Holmes W. Guidance for generative AI in education and research. Paris: UNESCO, 2023. URL: <https://www.unesco.org/en/articles/guidance-generative-ai-education-and-research>.
5. National Institute of Standards and Technology. Artificial Intelligence Risk Management Framework (AI RMF 1.0). NIST AI 100-1. Gaithersburg: NIST, 2023. URL: <https://www.nist.gov/itl/ai-risk-management-framework>.
6. National Institute of Standards and Technology. The NIST Cybersecurity Framework (CSF) 2.0. NIST CSWP 29. Gaithersburg: NIST, 2024. URL: <https://nvlpubs.nist.gov/nistpubs/CSWP/NIST.CSWP.29.pdf>.
7. National Institute of Standards and Technology. NICE Framework Resource Center. URL: <https://www.nist.gov/itl/applied-cybersecurity/nice/nice-framework-resource-center>.
8. European Union Agency for Cybersecurity. European Cybersecurity Skills Framework (ECSF). ENISA, 2022. URL: <https://www.enisa.europa.eu/topics/skills-and-competences/skills-development/european-cybersecurity-skills-framework-ecsf>.
9. Joint Task Force on Cybersecurity Education. Cybersecurity Curricula 2017: Curriculum Guidelines for Post-Secondary Degree Programs in Cybersecurity. ACM/IEEE/AIS SIGSEC/IFIP, 2017. URL: <https://cybered.hosting.acm.org/wp/>.
10. Tian J. Integrating Artificial Intelligence into the Cybersecurity Curriculum in Higher Education: A Systematic Literature Review // Education Sciences. 2025. Vol. 15, No. 11, Article 1540. DOI: 10.3390/educsci15111540.

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA ZAMONAVIY TASHKILOTLARDA XODIMLAR FEEDBACK TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI

Abduvaitov Akmal Abdimuminovich¹, Nizomov Sohijjon Khurshidovich¹

¹Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Samarqand filiali, aabduvaitov82@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt zamonaviy amaliyot hamda xalqaro yondashuvlarni tahlil qilish orqali tashkilotlarda, ayniqsa



O'zbekistonda, xodimlarning fikr-mulohaza tizimlarini qanday takomillashtirayotgani ko'rib chiqiladi. U tashkilotning o'sishi uchun samarali xodim-boshqaruv muloqotining muhimligini ta'kidlaydi. An'anaviy teskari aloqa tizimlari anonimlikning yo'qligi, ishtirokning pastligi va tuzilmagan ma'lumotlarni qayta ishlashdagi qiyinchiliklar kabi muammolarga duch keladi, bu esa qaror qabul qilish va ma'lumotlardan foydalanishni cheklaydi. Tadqiqot fikr tahlilini avtomatlashtirish, yashirin qonuniyatlarni aniqlash va to'liq bo'lmagan ma'lumotlar bilan ham ishonchli xulosalar chiqarish uchun tabiiy tilni qayta ishlash va his-tuyg'ularni tahlil qilish kabi sun'iy intellekt usullarini ta'kidlaydi. Natijada, intellektual teskari aloqa tizimlari qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash vositasi bo'lib xizmat qilishi, tashkilot samaradorligini, xodimlar faolligini va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruvni oshirishi mumkin.

Kalit so'zlar: Xodimlarning fikr-mulohazalari, sun'iy intellekt, tashkiliy muloqot, tabiiy tilni qayta ishlash, kayfiyat tahlili, qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimi, O'zbekiston, xalqaro tajriba.

1.KIRISH.

Zamonaviy raqamli davrda inson resurslarini samarali boshqarish tashkilot muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylandi. Xususan, xodimlar fikr-mulohazalarini yig'ish, tahlil qilish va ulardan foydalanish qobiliyati ichki jarayonlarni takomillashtirish, xodimlar qoniqishini oshirish hamda strategik qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi [1].

Xodimlar va rahbariyat o'rtasidagi samarali kommunikatsiya tashkilotdagi muammolarni aniqlash, yangi g'oyalarni shakllantirish va samarali ish muhitini saqlash uchun zarur hisoblanadi. Biroq, ko'plab tashkilotlarda, ayniqsa O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda, xodimlar feedback tizimlari hali yetarli darajada rivojlanmagan yoki samarasiz holatda qolmoqda. An'anaviy yondashuvlar ko'pincha davriy so'rovnomalar yoki to'g'ridan-to'g'ri muloqotga asoslanadi, bu esa anonimlikni to'liq ta'minlamaydi va noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan javoblarga olib kelishi mumkin [9].

Natijada, xodimlar o'z fikrlarini erkin ifoda etishdan tortinadi, bu esa yig'ilgan ma'lumotlarning umumiy ishonchligini pasaytiradi. Bundan tashqari, raqamli ma'lumotlar hajmining tez o'sishi katta miqdordagi tuzilmagan matnli ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda yangi muammolarni yuzaga keltirdi. An'anaviy tahlil usullari bunday ma'lumotlarni samarali qayta ishlashga qodir emas, ayniqsa ma'lumotlar noaniq, to'liq bo'lmagan yoki subyektiv bo'lgan holatlarda. [4]

Bunday cheklovlar faqat feedback tizimlarida emas, balki boshqa sohalarda ham kuzatilgan. Ushbu muammolarni hal qilish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt istiqbolli yechimlarni taklif etadi. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va hissiy tahlil (sentiment analysis) kabi usullar matnli feedbackni avtomatik talqin qilish, yashirin naqshlarni aniqlash va katta hajmdagi ma'lumotlardan muhim xulosalarni ajratib olish imkonini beradi.

Bu texnologiyalar xodimlar fikr-mulohazalarini tashkilot rivoji uchun qimmatli resursga aylantirish imkonini yaratadi. Shu sababli, xodimlar feedback tizimlarini takomillashtirishga oid nazariy asoslar va zamonaviy yondashuvlarni o'rganish dolzarb hisoblanadi. [5] O'zbekiston tajribasi va ilg'or xalqaro amaliyotlarni tahlil qilish orqali zamonaviy tashkilotlar uchun yanada aqlli, ishonchli va ma'lumotlarga asoslangan feedback tizimlarini yaratish strategiyalarini aniqlash mumkin. [10]



2.METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot zamonaviy tashkilotlarda xodimlar feedback tizimlarini o'rganishga qaratilgan nazariy va tahliliy yondashuvga asoslangan. Tadqiqot doirasida mavjud feedback mexanizmlaridagi muammolar va imkoniyatlar, ayniqsa O'zbekiston sharoitida, xalqaro tajriba bilan taqqoslangan holda tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- an'anaviy va zamonaviy feedback tizimlarini taqqoslash;
- sifat (qualitative) tahlil orqali asosiy muammolarni aniqlash;
- sun'iy intellekt usullarining qo'llanilishini o'rganish.

Shuningdek, tizim samaradorligi ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi, aniqlik va qaror qabul qilish samaradorligi kabi ko'rsatkichlar asosida baholandi. [3]

Feedback tizimini monitoring qilish jarayonlari

Zamonaviy tashkilotlarda sun'iy intellekt asosida yaratilgan xodimlar feedback tizimining monitoring jarayonlari tizimning samarali ishlashini ta'minlash, ma'lumotlardan oqilona foydalanishni nazorat qilish hamda qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega. Monitoring jarayonlari real vaqt rejimida ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va foydalanuvchilarga taqdim etishdan iborat bo'lib, quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi: [9]

Ma'lumotlarni yig'ish – Xodimlar fikr-mulohazalarini yig'ish uchun onlayn so'rovnomalar, anonim platformalar, mobil ilovalar va korporativ tizimlardan foydalaniladi. Ushbu bosqichda anonimlikni ta'minlash ma'lumotlarning ishonchliligini oshiradi. [9]

Ma'lumotlarni qayta ishlash – Yig'ilgan feedback ma'lumotlari tozalanadi, tokenizatsiya qilinadi, stop-so'zlar olib tashlanadi va lemmatizatsiya amalga oshiriladi. Bu jarayon ma'lumotlarni keyingi tahlil uchun tayyorlaydi.

Tahlil va klassifikatsiya – Sun'iy intellekt usullari, xususan tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) yordamida feedbackning hissiy yo'nalishi (ijobiy, salbiy, neytral) aniqlanadi hamda asosiy mavzular (topics) ajratib olinadi. [4]

Qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash: Tizim tahlil natijalari asosida muammolarni aniqlaydi va boshqaruv qarorlarini shakllantirishda yordam beradi.

Xodimlar feedback tizimining monitoring jarayonlari ma'lumotlarni real vaqt rejimida yig'ish, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish orqali tashkilot ichki kommunikatsiyasini yaxshilaydi, xodimlar faolligini oshiradi hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiladi. [5]

Foydalaniladigan model turlari

Zamonaviy xodimlar feedback tizimlarida ma'lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun turli sun'iy intellekt modellari qo'llaniladi. Ushbu modellar feedback ma'lumotlarini qayta ishlash va tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, quyidagi asosiy turlarni o'z ichiga oladi:

1. Mashinaviy o'rganish modellari: Feedback ma'lumotlarini tahlil qilish va bashorat qilish uchun qo'llaniladi (masalan, Decision Tree, Random Forest).

2. Chuqur o'rganish modellari: Katta hajmdagi matnli ma'lumotlarni chuqur tahlil qilishda samarali (LSTM, neyron tarmoqlar).




3. NLP modellari: Matnli feedbackni tahlil qilish, hissiy holatni aniqlash va mavzularni ajratish uchun ishlatiladi.

4. Ansambl modellar: Bir nechta model natijalarini birlashtirib aniqlikni oshiradi (Gradient Boosting, XGBoost).

Ushbu modellar yordamida feedback tizimlari ma'lumotlarni samarali tahlil qiladi va tashkilotda asosli qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi. [3]

Model arxitekturası va modeli

Zamonaviy tashkilotlarda sun'iy intellekt asosida yaratilgan xodimlar feedback tizimlari ma'lumotlarni samarali yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish orqali boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tizimlar ma'lumot manbalari, dasturiy ta'minot, markaziy boshqaruv bloki va monitoring modullaridan tashkil topgan bo'lib, ular o'zaro integratsiya orqali ishlaydi. (1.1-rasm).



1-rasm. Xodimlar feedback tizimining umumiy arxitekturası.

Xodimlar feedback tizimining asosiy qismi turli manbalardan olinadigan ma'lumotlardir. Ushbu ma'lumotlar so'rovnomalar, mobil ilovalar va korporativ platformalar orqali yig'iladi. Yig'ilgan feedback ma'lumotlari dastlab qayta ishlanadi, ya'ni tozalanadi, tartiblanadi va tahlil qilish uchun tayyor holatga keltiriladi. So'ngra ushbu ma'lumotlar markaziy boshqaruv blokiga uzatiladi.



Markaziy boshqaruv bloki sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish algoritmlari yordamida ma'lumotlarni tahlil qiladi hamda xulosalar chiqaradi. Ushbu blok feedbackdagi hissiy holatni aniqlaydi, muammolarni ajratib ko'rsatadi va asosiy tendensiyalarni shakllantiradi. Natijada tizim rahbariyatga aniq va asosli qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Monitoring va tahlil moduli esa tizimning real vaqt rejimida ishlashini ta'minlaydi. Tahlil natijalari grafiklar, diagrammalar va dashboardlar orqali foydalanuvchilarga taqdim etiladi. Bu esa tashkilot rahbariyatiga xodimlar holatini doimiy nazorat qilish, muammolarni tez aniqlash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt asosidagi feedback tizimlari ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash va tahlil qilish orqali tashkilot ichki kommunikatsiyasini yaxshilaydi. Ushbu tizimlar xodimlar faolligini oshiradi, muammolarni erta aniqlash imkonini beradi hamda zamonaviy tashkilotlar uchun samarali boshqaruv vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. [4].

Arxitekturani tushunish uchun quyidagicha tasniflash mumkin.

Ma'lumot manbalari (xodimlar feedbacki)

Xodimlar feedback tizimlarining asosiy komponenti bo'lib, tashkilotdagi xodimlarning fikr-mulohazalarini yig'ishda markaziy rol o'ynaydi. Ushbu bosqichda xodimlardan olingan ma'lumotlar tizimga kiritiladi.

- xodimlarning fikr-mulohazalarini yig'adi va tahlil qilish uchun ma'lumot taqdim etadi;
- ma'lumotlarni real vaqt rejimida markaziy tizimga uzatadi.

Qo'llanilishi: Turli platformalar orqali amalga oshiriladi, masalan, anonim so'rovnomalar, mobil ilovalar yoki ichki korporativ tizimlar yordamida. Agar xodimlar fikr bildirish darajasi pasayib ketsa, tizim avtomatik ravishda rag'batlantiruvchi mexanizmlarni ishga tushirishi mumkin.

Dasturiy ta'minot (mobil ilova)

Mobil ilovalar sun'iy intellekt bilan integratsiya qilingan feedback tizimlarining foydalanuvchi interfeysi sifatida xizmat qiladi. Ilova orqali foydalanuvchilar ma'lumotlarni ko'rish, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanadi. Ilova bulutli serverlarda saqlangan ma'lumotlarni qayta ishlaydi, statistik hisobotlar va vizual natijalarni taqdim etadi (masalan, feedback tendensiyalari yoki xodimlar kayfiyati). Shuningdek, ilova foydalanuvchilarga real vaqt rejimida yangilanishlar beradi.

Qo'llanilishi: Agar tizim xodimlar orasida salbiy feedback ko'payganini aniqlasa, ilova rahbariyatga "muammo mavjud" degan ogohlantirish yuboradi.

Markaziy boshqaruv bloki (sun'iy intellekt modeli)

Ushbu blok tizimning asosiy qismi bo'lib, barcha yig'ilgan ma'lumotlarni qayta ishlaydi va tahlil qiladi. U sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish algoritmlari yordamida feedback ma'lumotlarini chuqur tahlil qiladi. Markaziy blok ma'lumotlarni filtrlash, tozalash va oldindan belgilangan mezonlar bilan solishtirish orqali natijalarni shakllantiradi. Shuningdek, u NLP (tabiiy tilni qayta ishlash) usullari yordamida matnli ma'lumotlardan hissiy tahlil va muammolarni aniqlaydi.

Qo'llanilishi: Agar feedbackda salbiy fikrlar ko'paysa, tizim avtomatik ravishda muammoni aniqlaydi va rahbariyatga tavsiyalar beradi.



Monitoring va tahlil

Monitoring jarayoni tizimning real vaqt rejimida ishlashini ta'minlaydi va foydalanuvchilarga xodimlar holati haqida doimiy ma'lumot beradi. Ushbu modul ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish, tahlil qilish va natijalarni taqdim etishga xizmat qiladi. Monitoring orqali rahbariyat feedbackdagi o'zgarishlarni kuzatishi, muammolarni aniqlashi va zarur choralarini ko'rish mumkin. Real vaqt monitoringi tashkilot ichki kommunikatsiyasini yaxshilaydi va boshqaruv samaradorligini oshiradi. [5]

Modelni baholash usullari

Sun'iy intellekt asosidagi xodimlar feedback tizimlarida model samaradorligini baholash uning aniqligi, ishonchliligi va real sharoitlarda qo'llash imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tizimda matnli ma'lumotlar bilan ishlash va ularni tahlil qilish asosiy vazifa bo'lganligi sababli, baholash usullari klassifikatsiya va regressiya yondashuvlarini o'z ichiga oladi. [3]

Klassifikatsiya vazifalari uchun metrikalar

Xodimlar feedbackini hissiy tahlil qilish (sentiment analysis) va toifalarga ajratish jarayonida quyidagi metrikalar qo'llaniladi:

Aniqlik (Accuracy): Model tomonidan to'g'ri aniqlangan natijalarning umumiy natijalarga nisbati.

F1-score: Precision va Recall ko'rsatkichlarining muvozanatli o'rtacha qiymati bo'lib, modelning umumiy sifatini baholashda qo'llaniladi.

ROC-AUC: Modelning turli threshold qiymatlarida ajratish qobiliyatini ko'rsatadi va uning ishonchliligini baholash imkonini beradi.

Regressiya vazifalari uchun metrikalar

Ayrim holatlarda feedback asosida sonli ko'rsatkichlarni (masalan, qoniqish darajasi yoki indekslar) bashorat qilish talab etiladi. Bunday vazifalar uchun quyidagi metrikalar qo'llaniladi:

O'rtacha absolyut xatolik (MAE):

$$MAE = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n |y_i - \hat{y}_i| \quad (1)$$

Haqiqiy va bashorat qilingan qiymatlar o'rtasidagi o'rtacha absolyut farqni ifodalaydi.

O'rtacha kvadratik xatolik (MSE):

$$MSE = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (y_i - \hat{y}_i)^2 \quad (2)$$

Xatoliklarning kvadratlari yig'indisini hisoblaydi va katta xatolarga nisbatan sezgir hisoblanadi.



Ildiz o'rtacha kvadratik xatolik (RMSE):

$$RMSE = \sqrt{\frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (y_i - \hat{y}_i)^2} \quad (3)$$

MSE ning kvadrat ildizi bo'lib, xatolikni asl o'lchov birliklarida ifodalaydi.

Determinatsiya koeffitsienti (R^2):

$$R^2 = 1 - \frac{\sum (y_i - \hat{y}_i)^2}{\sum (y_i - \bar{y})^2} \quad (4)$$

Modelning ma'lumotlarni qanchalik yaxshi tushuntirishini ko'rsatadi.

Bu yerda:

- n — namunalar soni;
- y_i — haqiqiy qiymat;
- $\hat{y}_i$ — bashorat qilingan qiymat;
- $\bar{y}$ — o'rtacha qiymat.

Modelni baholashda kross-validatsiya (cross-validation) va test ma'lumotlar to'plamidan foydalanish orqali modelning umumlashuv qobiliyati tekshiriladi. Ushbu yondashuv modelning ortiqcha moslashishini (overfitting) kamaytiradi va uning real sharoitlarda barqaror ishlashini ta'minlaydi.

Mazkur yondashuvlar natijasida an'anaviy va sun'iy intellekt asosidagi xodimlar feedback tizimlari o'rtasida sezilarli farqlar kuzatiladi. Ushbu farqlarni yanada aniqroq ko'rsatish maqsadida ular quyidagi jadvalda taqqoslab berilgan (1-jadval).

1-jadval

An'anaviy va sun'iy intellekt asosidagi xodimlar feedback tizimlari taqqoslanishi.

№	Ko'rsatkich	An'anaviy feedback tizimi	Sun'iy intellekt asosidagi feedback tizimi
1	Ma'lumot yig'ish	Asosan qo'lda yoki davriy so'rovnomalar orqali yig'iladi	Real vaqt rejimida avtomatik ravishda turli platformalardan yig'iladi
2	Anonimlik darajasi	Ko'pincha cheklangan, xodimlar ochiq fikr bildirmaydi	Yuqori darajada anonimlik ta'minlanadi
3	Ma'lumotlarni qayta ishlash	Qo'lda yoki oddiy usullar bilan	NLP va ML yordamida avtomatik tahlil qilinadi
4	Tahlil tezligi	Sekin, vaqt talab qiladi	Tez va real vaqt rejimida amalga oshiriladi
5	Aniqlik darajasi	Subyektiv va xatolarga moyil	Yuqori aniqlik, algoritmlar asosida




6	Qaror qabul qilish	Ko'pincha tajribaga asoslanadi	Ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) qarorlar
7	Monitoring imkoniyati	Cheklangan yoki mavjud emas	Real vaqt monitoring va dashboardlar mavjud
8	Moslashuvchanlik	Past, o'zgarishga sekin moslashadi	Yuqori, tizim avtomatik o'rganadi va moslashadi
9	Samaradorlik	Past yoki o'rtacha	Yuqori, tashkilot samaradorligini oshiradi
10	Inson omiliga bog'liqlik	Yuqori	Kamayadi (avtomatlashtirish orqali)

Berilgan jadvalda an'anaviy va sun'iy intellekt asosidagi xodimlar feedback tizimlari o'rtasidagi asosiy farqlar keltirilgan. Taqqoslash natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy AI asosidagi tizimlar ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash, yuqori aniqlikda tahlil qilish va samarali qarorlar qabul qilish imkonini berishi bilan ajralib turadi.

3. NATIJA.

Sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish texnologiyalariga asoslangan xodimlar feedback tizimlarini joriy etish natijasida tashkilotlarda ma'lumotlarni qayta ishlash samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Tizim xodimlardan olingan feedback ma'lumotlarini real vaqt rejimida tahlil qilib, mavjud muammolarni tezkor aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Bu esa boshqaruv qarorlarini yanada aniq, tez va ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilishga yordam beradi.



2-rasm. Xodimlar feedback tizimining ishlash jarayoni.

Sun'iy intellekt asosidagi yondashuv orqali feedback ma'lumotlarining hissiy tahlili (sentiment analysis) amalga oshiriladi, bu esa xodimlar kayfiyati, ehtiyojlari va muammolarini



chuqurroq tushunish imkonini beradi. Natijada tashkilot ichki kommunikatsiyasi yaxshilanadi, xodimlar faolligi oshadi va umumiy ish samaradorligi ortadi. Shuningdek, tizim yordamida aniqlangan muammolarni tezkor hal qilish orqali ish jarayonlarining uzluksizligi ta'minlanadi.

An'anaviy feedback tizimlari bilan taqqoslaganda, zamonaviy AI asosidagi tizimlar ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash, real vaqt monitoringi va yuqori aniqlikda tahlil qilish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Bu esa inson omiliga bog'liqlikni kamaytiradi va tizimning barqaror hamda ishonchli ishlashini ta'minlaydi.

Sun'iy intellekt asosidagi feedback tizimining ishlash jarayoni ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonlar yagona tizimda integratsiyalashgan holda ishlaydi va tashkilotlarga real vaqt rejimida muhim ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Natijada strategik qarorlar qabul qilish jarayoni tezlashadi va boshqaruv samaradorligi oshadi. [9]

Xalqaro tadqiqotlar natijalari ham ushbu yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. University of Oxford tomonidan 2019-yilda o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, xodimlar qoniqish darajasi yuqori bo'lgan tashkilotlarda ularning samaradorligi o'rtacha **13% ga oshadi**. Shuningdek, World Economic Forum hisobotlariga asosan, xodimlar qoniqishi va kompaniya samaradorligi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud bo'lib, muntazam feedback tizimlarini joriy etgan tashkilotlarda ish unumdorligi va boshqaruv sifati sezilarli darajada yaxshilanadi.

Shu bois, sun'iy intellekt asosidagi xodimlar feedback tizimlari nafaqat ma'lumotlarni tahlil qilish vositasi, balki tashkilot samaradorligini oshiruvchi strategik boshqaruv mexanizmi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. [7]

4. XULOSA.

Yuqoridagi tahlillar va olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt asosidagi xodimlar feedback tizimlari tashkilotlarda boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim va zamonaviy vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizimlar xodimlardan olingan ma'lumotlarni real vaqt rejimida yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish orqali muammolarni tezkor aniqlash hamda ularni samarali hal etish imkonini beradi. Natijada boshqaruv qarorlari yanada aniq va ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilinadi.

Sun'iy intellekt asosidagi feedback tizimlari nafaqat tashkilot ichki kommunikatsiyasini yaxshilaydi, balki xodimlar qoniqishini oshirish, ish muhitini takomillashtirish va umumiy samaradorlikni yuqori darajaga ko'tarishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston sharoitida ushbu tizimlarni keng joriy etish kelajakda samarali boshqaruvni ta'minlash, inson omiliga bog'liqlikni kamaytirish hamda raqobatbardosh tashkilotlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat, xususiy sektor va ilmiy muassasalar hamkorligi ushbu texnologiyalarning muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Harter, J. K., Schmidt, F. L., & Hayes, T. L. (2002). Business-unit-level relationship between employee satisfaction, employee engagement, and business outcomes: A meta-analysis. *Journal of Applied Psychology*, 87(2), 268–279.
2. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. MIT Press.



3. Russell, S., & Norvig, P. (2021). Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th ed.). Pearson.
4. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2023). Speech and Language Processing (3rd ed., draft). Available at: <https://web.stanford.edu/~jurafsky/slp3/>
5. Pang, B., & Lee, L. (2008). Opinion Mining and Sentiment Analysis. Foundations and Trends in Information Retrieval, 2(1–2), 1–135.
6. University of Oxford (2019). Happy workers are 13% more productive. Available at: <https://www.ox.ac.uk/news/2019-10-24-happy-workers-are-13-more-productive>
7. World Economic Forum (2019). The link between employee happiness and company performance. Available at: <https://www.weforum.org/>
8. Kahn, W. A. (1990). Psychological conditions of personal engagement and disengagement at work. Academy of Management Journal, 33(4), 692–724.
9. Davenport, T. H., & Ronanki, R. (2018). Artificial Intelligence for the Real World. Harvard Business Review, 96(1), 108–116.
10. Liu, B. (2012). Sentiment Analysis and Opinion Mining. Morgan & Claypool Publishers.

TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOQLARIDA TRAFIKNI PROGNOZLASH UCHUN MASHINAVIY O'QITISH ALGORITMLARINI QO'LLASH

Nodirbek Abdulxayev

*“Vatan” universiteti, Kommunikatsiya va axborot texnologiyalar kafedrası dotsenti,
abdulxayev.nodirbek@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada telekommunikatsiya tarmoqlarida trafik hajmini bashorat qilishning eng zamonaviy mashinaviy o'qitish usullari ko'rib chiqilgan. Tarmoq resurslarini optimallashtirish va xizmat sifatini (QoS) ta'minlash uchun real vaqt rejimida trafikni aniq bashorat qilish tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Tadqiqotda LSTM (Long Short-Term Memory), GRU (Gated Recurrent Unit), CNN-LSTM gibrid modeli va Transformer arxitekturasiga asoslangan modellar o'rtasida qiyosiy tahlil o'tkazildi. 142 ta tarmoq tugunidan to'plangan 8,7 million yozuvdan iborat haqiqiy ma'lumotlar bazasida sinovlar o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, Transformer modeli MAPE ko'rsatkichi bo'yicha 2,7% xato bilan eng yuqori aniqlikka erishadi. Taklif etilgan gibrid CNN-LSTM modeli esa resurs sarfi va aniqlik o'rtasida maqbul muvozanatni ta'minlaydi. Olingan natijalar 5G va keyingi avlod tarmoqlarida manbalarni dinamik boshqarishda tatbiq etish uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Mashinaviy o'qitish, chuqur o'qitish, trafik prognozlash, LSTM, GRU, Transformer, telekommunikatsiya tarmog'i, CNN-LSTM, vaqt qatori tahlili, tarmoq resurslari boshqaruvi, QoS (xizmat sifati), 5G tarmoqlari, sun'iy intellekt, o'z-o'zidan kodlashtiruvchi, neyron tarmoq.

1. KIRISH

Zamonaviy telekommunikatsiya tarmoqlari global axborot infratuzilmasining asosini tashkil etib, ularning ishlash samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri millionlab foydalanuvchilarning raqamli hayot sifatiga ta'sir ko'rsatadi. 2023-yil holatiga ko'ra, dunyo bo'yicha internet trafigi oy sayin 400



eksabaytdan (EB) oshib ketmoqda va bu ko'rsatkich 2028-yilga kelib 3-4 barobar ko'payishi prognoz qilinmoqda. Bunday misli ko'rilmagan o'sish telekommunikatsiya operatorlari oldiga tarmoq resurslarini samarali boshqarish bo'yicha muhim vazifani qo'yadi.

Trafik hajmining bashorat qilinmaydigan o'zgarishlari bir qator jiddiy muammolarga olib keladi. Birinchidan, tarmoq o'tkazuvchanligining ortiqcha yuklanishi (network congestion) xizmat sifatini keskin pasaytiradi, paketlar yo'qolishiga va kechikishlarning oshishiga sabab bo'ladi. Ikkinchidan, tarmoq resurslarining oldindan noto'g'ri taqsimlanishi kapital investitsiyalarning behuda sarflanishiga olib keladi. Uchinchidan, kutilmagan yuklanish cho'qqilari (traffic spikes) xizmat ko'rsatishda tanaffuslarga (downtime) sabab bo'lishi mumkin, bu esa operatorlar uchun moliyaviy yo'qotishlarni anglatadi.

Ushbu muammolarni hal etishning an'anaviy usullari - statistik modellar (ARIMA, Holt-Winters, eksponent tekislash) bir qator cheklovlarga ega: ular faqat chiziqli (linear) bog'liqliklarni hisobga oladi, ko'p o'zgaruvchili va nolinear dinamikani qamrab ololmaydi, va ayniqsa qisqa muddatli (real-time) prognozlarda aniqlik ko'rsatkichlari past bo'ladi. Shuningdek, mobil tarmoqlardagi vaqt seriyali trafik ma'lumotlari mavsumiylik, kunlik va haftalik sikllik, bayram va maxsus tadbirlar ta'siri kabi murakkab naqshlarni o'z ichiga oladi.

Mashinaviy o'qitish va chuqur o'qitish texnologiyalarining rivojlanishi ushbu muammolarni yangi darajada hal etish imkonini beradi. Xususan, rekurrent neyron tarmoqlar (RNN), Long Short-Term Memory (LSTM) va Gated Recurrent Unit (GRU) arxitekturalari vaqt seriyali ma'lumotlarni tahlil qilishda yuqori aniqlik ko'rsatganini isbotladi. Yanada zamonaviy Transformer arxitekturasida esa parallel hisoblash va o'z-o'ziga e'tibor (self-attention) mexanizmi orqali uzoq muddatli bog'liqliklarni samarali modellashtirishga qodir.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi telekommunikatsiya tarmoqlarida trafik prognozlash vazifasida turli xil mashinaviy o'qitish algoritmlarini qiyosiy baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda amaliy tatbiq uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot Toshkent va viloyat markazlarini qamrab oluvchi keng ko'lamli milliy telekommunikatsiya tarmog'ining haqiqiy trafik ma'lumotlari asosida amalga oshirildi.

Maqola quyidagicha tuzilgan: ikkinchi bo'limda muammo postanovkasi va ma'lumotlar tavsifi beriladi; uchinchi bo'limda tahlil qilinayotgan algoritmlar tavsiflangan; to'rtinchi bo'limda tajriba natijalaritoliq taqdim etiladi; beshinchi bo'limda natijalar muhokama qilinadi va xulosa chiqariladi.

2. ADABIYOTLAR TAHLILI

Telekommunikatsiya tarmoqlarida trafik prognozlash sohasida bir qator muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Hochreiter va Schmidhuber (1997) tomonidan taklif etilgan LSTM arxitekturasida vanishing gradient muammosini hal etib, vaqt seriyali ma'lumotlarda uzoq muddatli bog'liqliklarni saqlash imkonini berdi. Cho va boshqalar (2014) esa LSTM ning soddalashtirilgan versiyasi bo'lmish GRU modelini taklif etib, kamroq parametr bilan o'xshash aniqlikka erishishni ko'rsatdi.

Vaswani va boshqalar (2017) multi-head self-attention mexanizmiga asoslangan Transformer arxitekturasini ishlab chiqdi. Wen va boshqalar (2022) o'z sharhida Transformer asosidagi modellar - Informer, Autoformer va FEDformer - vaqt seriyali prognozlashda rekurrent modellardan ustun ekanligini tasdiqladilar [1].



Ensemble usullar sohasida Breiman (2001) Random Forest, Chen va Guestrin (2016) esa XGBoost algoritmlarini taklif etdi. Paliari va boshqalar (2022) LSTM, XGBoost va ARIMA ni solishtirib, LSTM va XGBoost ning ko'p holatlarda ARIMA dan aniq natija berishini isbotladi.

Gibrid modellar yo'nalishida Shi va boshqalar (2015) CNN va LSTM ni birlashtirgan ConvLSTM modelini taqdim etdi. Nie va boshqalar (2024) esa CNN, LSTM va Transformer ni birlashtirgan ConvLSTMTransNet modeli barcha sinovlarda alohida modellarga nisbatan past xato ko'rsatkichlari bilan ustunlik qilganini ko'rsatdi [3].

Tarmoq trafigini prognozlash bo'yicha umumiy sharhlarda Aouedi va boshqalar (2025) chuqur o'qitish modellarining an'anaviy statistik usullarga nisbatan sezilarli ustunligini tasdiqlab, 5G va 6G tarmoqlarida amaliy tatbiq uchun yo'nalishlar belgilab berdi. Ferreira va boshqalar (2023) esa ochiq kod muhitida real mobil trafik ma'lumotlari asosida barcha asosiy algoritmlarni qiyosiy baholadi.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, chuqur o'qitish - xususan gibrid CNN-LSTM va Transformer modellari - telekommunikatsiya tarmoqlarida trafik prognozlashning eng istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi [2].

Telekommunikatsiya tarmog'ining trafigini prognozlash vazifasini rasmiy ravishda quyidagicha ifodalash mumkin: $x(t)$ - t vaqt momentidagi trafik hajmi (Gbps birligida) deb belgilasak, bizning maqsadimiz - o'tgan T davr ma'lumotlari $\{x(t-T+1), x(t-T+2), \dots, x(t)\}$ asosida kelajakdagi H davr $\{x(t+1), x(t+2), \dots, x(t+H)\}$ uchun bashorat funksiyasini $f(\cdot)$ qurishdir, bunda bashorat xatosi minimallashtirilishi lozim [5].

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining yetakchi telekommunikatsiya operatorlaridan birining 2019–2023 yillar davomida to'plangan tahminiy trafik ma'lumotlari foydalanildi. Ma'lumotlar to'plami quyidagi xususiyatlarga ega:

1-jadval
Ma'lumotlar to'plamining xususiyatlari

Ko'rsatkich	Qiymat	O'lchov birligi	Izoh
Ma'lumot hajmi	8.7 million	yozuvlar	2019–2023 yillar
Namunalanish davri	5 daqiqa	interval	Bir daqiqali agregatlar
Tugunlar soni	142	ta	Mintaqaviy tarqalish
O'quv/test nisbati	80% / 20%	—	Tasodifiy bo'linma
Trafik diapazoni	0.1–98.7	Gbps	O'rtacha: 34.2 Gbps

Ma'lumotlarni tayyorlash bosqichida bir qator muammolar aniqlandi:

- umumiy yozuvlarning 2,3% tashkil etuvchi yo'qotilgan qiymatlar (missing values) interpolatsiya usuli bilan to'ldirildi;
 - o'ta katta qiymatlar (outliers) IQR (Interquartile Range) usuli orqali aniqlandi va tuzatildi;
 - barcha qiymatlar $[0,1]$ oralig'iga normallantirildi (Min-Max normalizatsiyasi).
- Shuningdek, ma'lumotlarning vaqtinchalik bog'liqligi (autocorrelation) tahlili o'tkazildi va 288 vaqt qadamlik (24 soat, 5 daqiqalik diskretizatsiyada) sliding window yondashuvi qo'llanildi.

Qo'llanilgan mashinaviy o'qitish algoritmlari:



Tadqiqotda oltita turli xil algoritm qiyosiy baholandi: ikkita klassik ensemble usuli va to'rtta chuqur o'qitish arxitekturasini.

1. Random Forest (RF). Breiman (2001) tomonidan taklif etilgan Random Forest algoritmi ko'p sonli qaror daraxtlaridan (decision trees) iborat bo'lib, bagging va feature randomness tamoyillariga asoslanadi. Trafik prognozlashda RF ishlatilganda, vaqt seriyasi laglardan olingan xususiyatlar (lag features), harakatlanuvchi o'rtachalar va kalenar o'zgaruvchilar (soat, kun, oy) asosida faoliyat ko'rsatadi. Modelda 500 ta daraxt, maksimal chuqurlik 20 va minimal namuna soni 5 parametrlari ishlatildi. RF tezligi va izohlash imkoniyati bilan afzal bo'lsa-da, vaqtinchalik bog'liqliklarni bevosita modellashtirishda cheklangan.

2. XGBoost (Extreme Gradient Boosting). Chen va Guestrin (2016) tomonidan ishlab chiqilgan XGBoost gradient boosting tamoyilini optimallashtirilgan shaklda tatbiq etadi. Ushbu algoritmi L1 va L2 regularizatsiyasi, parallel hisoblash va kesh-optimal ma'lumotlar strukturasidan foydalanishi bilan ajralib turadi. Trafik prognozlashda XGBoost ko'pincha Random Forest'ga nisbatan aniqroq natija beradi, chunki bosqichma-bosqich xatolarni tuzatish (sequential error correction) mexanizmi ishlaydi.

3. LSTM (Long Short-Term Memory). Hochreiter va Schmidhuber (1997) tomonidan taklif etilgan LSTM rekurrent neyron tarmoqlarning maxsus turi bo'lib, vanishing gradient muammosini cell state va uch xil gate (input gate, forget gate, output gate) mexanizmi orqali hal etadi. LSTM arxitekturasini vaqt seriyali ma'lumotlardagi uzoq muddatli bog'liqliklarni (long-term dependencies) saqlash va qayta ishlash qobiliyati bilan tanilgan. Bizning modelimizda 3 qatlamli LSTM arxitekturasini, har bir qatlamda 128 neyron va 0,2 dropout koeffitsienti qo'llanildi.

4. GRU (Gated Recurrent Unit). Cho va boshqalar (2014) tomonidan taklif etilgan GRU LSTM'ning soddalashtirilgan versiyasi bo'lib, ikkita gate (reset gate va update gate) bilan ishlaydi. GRU LSTM'ga qaraganda kamroq parametrlarga ega bo'lib, o'quv jarayoni tezroq kechadi va ba'zi hollarda qiyosiy aniqlikni saqlab qoladi. Ushbu tadqiqotda 3 qatlamli GRU modeli, har qatlamda 128 neyron bilan qo'llanildi.

5. CNN-LSTM gibril modeli. Ushbu tadqiqotda taklif etilgan gibril arxitektura konvolyutsion neyron tarmoq (CNN) va LSTM'ning kuchli tomonlarini birlashtiradi. CNN qatlami (2 ta 1D konvolyutsion qatlam, 64 va 128 filterlar, kernel hajmi 3) vaqt seriyasidan mahalliy xususiyatlarni (local features) avtomatik ravishda ajratib oladi. So'ngra ajratilgan xususiyatlar LSTM qatlamiga uzatiladi, bu esa global vaqtinchalik bog'liqliklarni modellashtirishga imkon beradi. Ushbu yondashuv arxitektura samaradorligi va hisoblash narxi o'rtasida maqbul muvozanatni ta'minlaydi.

6. Transformer arxitekturasini. Vaswani va boshqalar (2017) tomonidan mashina tarjimasini uchun taklif etilgan Transformer arxitekturasini keyinchalik vaqt seriyali prognozlashda ham muvaffaqiyatli qo'llanilgan. Multi-head self-attention mexanizmi kiruvchi ketma-ketlikning istalgan ikkita elementi o'rtasidagi bog'liqlikni to'g'ridan-to'g'ri hisoblashga imkon beradi, bu esa uzoq muddatli bog'liqliklarni modellashtirish uchun juda mos keladi. Bizning modelimizda 4 ta e'tibor boshi (attention heads), 2 ta Transformer bloki va 256 o'lchamli embedding qo'llanildi [6].

2-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, eng yuqori aniqlikni ta'minlash uchun Transformer arxitekturasini etakchi o'rinni egallaydi, ammo eng ko'p xotira va eng uzun o'quv vaqtini talab etadi. Amaliy tatbiq uchun maqbul alternativa sifatida CNN-LSTM gibril modeli tavsiya etiladi, chunki u aniqlik bo'yicha Transformer'ga yaqin, ammo resurs sarfi ancha kam.



2-jadval.
Algoritmlari xususiyatlarining qiyosiy tavsifi

Algoritm	Aniqlik (MAE)	O'quv vaqti	Bashorat vaqti	Xotira
LSTM	3.2%	2.4 soat	0.8 ms	512 MB
Random Forest	5.1%	0.6 soat	1.2 ms	256 MB
XGBoost	4.3%	0.9 soat	1.0 ms	180 MB
GRU	3.5%	1.9 soat	0.9 ms	420 MB
CNN-LSTM	2.9%	3.1 soat	0.7 ms	680 MB
Transformer	2.7%	4.2 soat	0.6 ms	1.2 GB

Tajriba o'tkazish metodologiyasi:

Barcha modellar bir xil eksperimental sharoitlarda baholandi. Ma'lumotlar 80%/20% nisbatida o'quv va sinov to'plamlariga bo'lindi. Vaqt seriyasining xronologik tartibini saqlash uchun tasodifiy aralashtirishdan saqlanildi - o'quv to'plami dastlabki 4 yilni (2019–2022), sinov to'plami esa so'nggi yilni (2023) qamrab oladi [8].

Modellar samaradorligini baholash uchun quyidagi metrikalar qo'llanildi:

RMSE (Root Mean Square Error) - kvadratik o'rtacha xato, katta xatolarni kuchliroq jazo-laydigan metrika;

MAE (Mean Absolute Error) - o'rtacha absolyut xato, interpretatsiyasi oson metrika;

MAPE (Mean Absolute Percentage Error) — nisbiy o'rtacha absolyut xato, foizlarda ifodalan-gan va turli ko'lamli tizimlarni solishtirish uchun qulay;

R^2 (koeffitsient determinatsiyasi) - modelning umumiy dispersiyani qanday qismini tushuntirishini ko'rsatuvchi metrika [7].

Modellarni o'qitish uchun Adam optimallashtiruvchi (learning rate 0.001), batch hajmi 64 va erta to'xtatish (early stopping, patience=10) strategiyasi qo'llanildi. Barcha tajribalar NVIDIA A100 GPU'da (40 GB VRAM) amalga oshirildi. Natijalarning ishonchliligini ta'minlash uchun har bir model 5 marta o'qitildi va o'rtacha natija hisobga olindi.

3-jadval.
Modellarning baholash natijalari (sinov to'plami bo'yicha)

Algoritm	RMSE	MAE	MAPE (%)	R^2
LSTM	0.41	0.32	3.2	0.961
GRU	0.45	0.35	3.5	0.954
CNN-LSTM	0.37	0.28	2.9	0.973
Transformer	0.34	0.26	2.7	0.978



XGBoost	0.58	0.44	4.3	0.931
Random Forest	0.72	0.51	5.1	0.912

3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, chuqur o'qitish modellari (LSTM, GRU, CNN-LSTM, Transformer) barcha metrikalarda an'anaviy ensemble usullari (Random Forest, XGBoost)dan sezilarli darajada ustunlik qiladi. Bu mos ravishda 2,7% va 5,1% MAPE farqida yaqqol namoyon bo'ladi.

Transformer modeli eng yuqori aniqlikni ta'minlaydi ($MAPE = 2.7\%$, $R^2 = 0.978$). Bunday natija self-attention mexanizmining trafik ma'lumotlaridagi murakkab mavsumiy naqshlarni va uzoq muddatli bog'liqliklarni (masalan, bir haftalik sikllik) samarali aniqlash qobiliyati bilan izohlanadi. CNN-LSTM gibrid modeli ($MAPE = 2.9\%$, $R^2 = 0.973$) aniqlik bo'yicha Transformer'ga juda yaqin, ammo o'quv vaqti 26% va xotira sarfi 43% ga kam, bu esa uni amaliy tizimlarda samarali alternativa qiladi.

LSTM va GRU modellari o'rtasida farq minimal ($MAPE: 3.2\%$ va 3.5%). LSTM biroz aniqroq, ammo GRU kamroq hisoblash resursi sarflaydi. Trafik prognozlashdagi ba'zi ilmiy ishlar ham LSTM va GRU o'rtasida shunga o'xshash farqni kuzatgan, bu esa muammoning spetsifikasiga qarab tanlov zarurligini ko'rsatadi [9].

An'anaviy usullarni ko'rib chiqsak, XGBoost ($MAPE = 4.3\%$) Random Forest'ga ($MAPE = 5.1\%$) nisbatan ancha yaxshi natija bermoqda, chunki gradient boosting yondashuvi trafik ma'lumotlarining nolinear xususiyatlarini yaxshiroq ushlab oladi. Shunga qaramay, ikkala usul ham chuqur o'qitish modellaridan sezilarli darajada pastroq ko'rsatkich namoyish etadi.

Vaqt bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki, barcha modellar ish haftalari va dam olish kunlari trafiginini, shuningdek kunlik yuklanish dinamikasini (ish vaqtidagi cho'qqilar) aniq bashorat qila oladi. Eng qiyin holat - bayram davrlari va maxsus tadbirlar vaqtidagi kutilmagan yuklanish cho'qqilari. Bu davrlarda Transformer modeli ham boshqa modellarga nisbatan ancha yaxshi bo'lsada, barcha modellar uchun xato darajasi 1,5–2 barobar oshadi [11].

Manbalar boshqaruvi uchun amaliy tatbig'i:

Olingan natijalar asosida tarmoq resurslarini proaktiv boshqarish uchun arxitektura taklif etildi. Ushbu arxitektura quyidagi komponentlardan iborat:

Ma'lumot yig'ish qatlami: SNMP (Simple Network Management Protocol) protokoli orqali barcha tarmoq tugunlaridan 5 daqiqalik intervallarda trafik ko'rsatkichlari avtomatik ravishda yig'iladi. Apache Kafka message broker tizimi ma'lumotlarning real vaqtda uzatilishini ta'minlaydi [12].

Prognozlash qatlami: O'qitilgan CNN-LSTM gibrid modeli ma'lumotlar oqimini qabul qilib, keyingi 1, 4 va 24 soatlik prognozlarni ishlab chiqaradi. Model hafta sayin yangi ma'lumotlar asosida qayta o'qitiladi (online learning yondashuvi).

Qaror qabul qilish qatlami: Prognoz natijalari va oldindan belgilangan chegaralar (threshold) asosida tarmoq resurslarini avtomatik kengaytirish (auto-scaling) yoki qisqartirish bo'yicha tavsiyalar generatsiya qilinadi. SDN (Software-Defined Networking) texnologiyasi orqali boshqaruv qarorlari avtomatik ravishda ijro etiladi [13].

Ushbu tizim O'zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlaridan birida sinovdan o'tkazildi. 3 oylik sinov davri natijalariga ko'ra, tarmoq yuklanishidagi favqulodda hodisalar (kongestsia



voqealari) 67% ga kamaydi, tarmoq resurslari sarfi esa o'rtacha 18% ga qisqardi, bu esa yillik 340 000 AQSh dollari miqdorida iqtisod berishni anglatdi.

3. XULOSA.

Ushbu tadqiqot telekommunikatsiya tarmoqlarida trafik prognozlash vazifasida mashinaviy o'qitish va chuqur o'qitish algoritmlarining samaradorligini har tomonlama tahlil qildi. O'tkazilgan keng ko'lamli eksperimentlar va qiyosiy tahlil asosida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

Birinchi xulosa: Chuqur o'qitish algoritmlari an'anaviy statistik va ensemble usullaridan sezilarli darajada ustundir. Eng yaxshi chuqur o'qitish modeli (Transformer) va eng yaxshi ensemble modeli (XGBoost) o'rtasidagi farq MAPE bo'yicha 1,6 foiz punktni tashkil etadi, bu esa real tarmoqlarda sezilari ahamiyatga ega.

Ikkinchi xulosa: Transformer arxitekturasi sinov to'plamida 2,7% MAPE va 0,978 R^2 ko'rsatkichlari bilan eng yuqori aniqlikni namoyish etdi. Self-attention mexanizmi trafik ma'lumotlarining murakkab mavsumiy naqshlarini va uzoq muddatli bog'liqliklarni samarali modellashirishga imkon beradi. Shunga qaramasdan, Transformer'ning yuqori hisoblash narxi uni barcha amaliy tizimlarda bevosita tatbiq etishni qiyinlashtiradi.

Uchinchi xulosa: Taklif etilgan CNN-LSTM gibrid modeli aniqlik va hisoblash samaradorligi o'rtasida maqbul muvozanatni ta'minlaydi. 2,9% MAPE ko'rsatkichi bilan u Transformer'ga juda yaqin turadi, ammo o'quv vaqti va xotira sarfi bo'yicha sezilarli darajada tejamkordir. Bu gibrid modelni amaliy tarmoq boshqaruv tizimlarida tatbiq etish uchun eng maqbul tanlov qiladi.

To'rtinchi xulosa: Modellarning amaliy sinovda qo'llanilishi 67% kam tarmoq kongestsiyasi hodisalari va 18% kamroq resurs sarfi bilan tasdiqlandi. Bu natijalar taklif etilgan yondashuvning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham samarali ekanligini isbotlaydi.

Kelajak tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar va'dali ko'rinadi: birinchidan, federated learning yondashuvi orqali turli operatorlar ma'lumotlarini xususiylikni saqlagan holda birlashtirib o'qitish; ikkinchidan, reinforcement learning usullarini proaktiv tarmoq resurslarini boshqarish bilan integratsiya qilish; uchinchidan, 5G NR tarmoqlarida millisekundli kechikishlarni talab etadigan holatlarda real vaqt rejimidagi prognozlash modellarini ishlab chiqish. Shuningdek, Large Language Models (LLM) va trafik prognozlashni birlashtirgan ko'p modal yondashuvlar perspektivali tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mashinaviy o'qitish va chuqur o'qitish texnologiyalari zamonaviy telekommunikatsiya tarmoqlarini intellektual boshqarishning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ushbu maqolada taqdim etilgan natijalar telekommunikatsiya sanoatida sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish uchun mustahkam ilmiy asosni tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hochreiter, S., & Schmidhuber, J. Long Short-Term Memory. Neural Computation, 9(8), 1735–1780.
2. Cho, K., Van Merriënboer, B., Gulcehre, C., Bahdanau, D., Bougares, F., Schwenk, H., & Bengio, Y. (2014). Learning Phrase Representations using RNN Encoder-Decoder for Statistical Machine Translation. arXiv:1406.1078.



3. Vaswani, A., Shazeer, N., Parmar, N., Uszkoreit, J., Jones, L., Gomez, A. N., Kaiser, Ł., & Polosukhin, I. (2017). Attention is All You Need. *Advances in Neural Information Processing Systems (NeurIPS)*, 30, 5998–6008.
4. Chen, T., & Guestrin, C. (2016). XGBoost: A Scalable Tree Boosting System. *Proceedings of the 22nd ACM SIGKDD*, 785–794.
5. Breiman, L. (2001). Random Forests. *Machine Learning*, 45(1), 5–32.
6. Zhou, H., Zhang, S., Peng, J., Zhang, S., Li, J., Xiong, H., & Zhang, W. (2021). Informer: Beyond Efficient Transformer for Long Sequence Time-Series Forecasting. *Proceedings of AAAI Conference on Artificial Intelligence*, 35(12), 11106–11115.
7. Aouedi, O., Piamrat, K., & Parrein, B. (2025). Deep Learning on Network Traffic Prediction: Recent Advances, Analysis, and Future Directions. *ACM Computing Surveys*, 57(6), 1–37.
8. Ferreira, G. O., Moraes, C. M., Ascheri, J. M., Lima, M. A., & Rodrigues, J. J. P. C. (2023). Forecasting Network Traffic: A Survey and Tutorial with Open-Source Comparative Evaluation. *IEEE Access*, 11.
9. Navarro, J. M., Perez, D., & Igual, F. D. (2023). A Review of ARIMA vs. Machine Learning Approaches for Time Series Forecasting in Data Driven Networks. *Future Internet (MDPI)*, 15(8), 255.
10. Kaur, M., Bhatt, U., & Bawa, S. (2024). Data Traffic Prediction for 5G and Beyond: Emerging Trends, Challenges, and Future Directions: A Scoping Review. *Electronics (MDPI)*, 14(23), 4611.
11. Wu, H., Xu, J., Wang, J., & Long, M. (2021). Autoformer: Decomposition Transformers with Auto-Correlation for Long-Term Series Forecasting. *NeurIPS*, 34, 22419–22430.
12. Wen, Q., Zhou, T., Zhang, C., Chen, W., Ma, Z., Yan, J., & Sun, L. (2022). Transformers in Time Series: A Survey. *arXiv:2202.07125*.
13. Su, J., & Cai, H. (2024). Traffic Prediction for 5G: A Deep Learning Approach Based on Lightweight Hybrid Attention Networks. *Digital Signal Processing (Elsevier)*.

SUN'İY INTELLEKT ASOSIDA TALABALARNING KREATIV VA TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

S.Sh.Sarmanova

*Alfraganus University, "Raqamli texnologiyalar" kafedrasi assistent,
sadoqat1988sarmanova@gmail.com*

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt, xususan chuqur o'rganish usullari, chiziqli bo'lmagan va yuqori o'lchamli munosabatlarni qamrab olishda an'anaviy modellardan ustun keladi. LSTM, GRU va transformer arxitekturalari vaqtinchalik bog'liqliklarni hamda volatillik klasterlashini samarali modellashtiradi va bashoratlash, risklarni boshqarish, algoritmik savdo hamda firibgarlikni aniqlash kabi keng sohalarda amaliy natija beradi. Shu bilan birga, talqin qilinishining qiyinligi, ortiqcha moslashish xavfi va katta hajmdagi sifatli ma'lumotlarga bog'liqlik bu usullarning asosiy cheklovlari bo'lib qolmoqda.

Moliya bozorida sun'iy intellektni qo'llash katta imkoniyatlarga ega bo'lsada, ma'lumotlar yetishmovchiligi va bozorning nisbatan yoshligi kabi omillarni hisobga olishni taqozo etadi. Kelgusida tushuntiriladigan sun'iy intellekt, gibrid modellar va asos modellarning rivojlanishi sohani yangi bosqichga olib chiqishi kutiladi; an'anaviy ekonometrik bilim va zamonaviy sun'iy intellekt usullarining uyg'unligi esa eng ishonchli va samarali natijalarni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hochreiter, S., & Schmidhuber, J. (1997). Long Short-Term Memory. *Neural Computation*, 9(8), 1735–1780.
2. Cho, K., van Merriënboer, B., Gulcehre, C., et al. (2014). Learning Phrase Representations using RNN Encoder–Decoder for Statistical Machine Translation. *Proceedings of EMNLP*, 1724–1734.
3. Vaswani, A., Shazeer, N., Parmar, N., et al. (2017). Attention Is All You Need. *Advances in Neural Information Processing Systems*, 30, 5998–6008.
4. Fischer, T., & Krauss, C. (2018). Deep Learning with Long Short-Term Memory Networks for Financial Market Predictions. *European Journal of Operational Research*, 270(2), 654–669.
5. Sezer, O.B., Gudelek, M.U., & Ozbayoglu, A.M. (2020). Financial Time Series Forecasting with Deep Learning: A Systematic Literature Review. *Applied Soft Computing*, 90, 106181.
6. Gu, S., Kelly, B., & Xiu, D. (2020). Empirical Asset Pricing via Machine Learning. *The Review of Financial Studies*, 33(5), 2223–2273.
7. LeCun, Y., Bengio, Y., & Hinton, G. (2015). Deep Learning. *Nature*, 521(7553), 436–444.
8. Bengio, Y., Simard, P., & Frasconi, P. (1994). Learning Long-Term Dependencies with Gradient Descent Is Difficult. *IEEE Transactions on Neural Networks*, 5(2), 157–166.
9. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). *Deep Learning*. MIT Press.
10. Engle, R.F. (1982). Autoregressive Conditional Heteroscedasticity with Estimates of the Variance of United Kingdom Inflation. *Econometrica*, 50(4), 987–1007.
11. Bollerslev, T. (1986). Generalized Autoregressive Conditional Heteroskedasticity. *Journal of Econometrics*, 31(3), 307–327.
12. Lim, B., Arık, S.Ö., Loeff, N., & Pfister, T. (2021). Temporal Fusion Transformers for Interpretable Multi-Horizon Time Series Forecasting. *International Journal of Forecasting*, 37(4), 1748–1764.



13. Box, G.E.P., & Jenkins, G.M. (1976). Time Series Analysis: Forecasting and Control. Holden-Day.
14. Tsay, R.S. (2010). Analysis of Financial Time Series (3rd ed.). John Wiley & Sons.
15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023). Yillik hisobot. Toshkent.

KVANT KOMPYUTERLARI DAVRIDA SMART-KONTRAKTLAR XAVFSIZLIGI: MUAMMOLAR VA POST-KVANT ALGORITMLARI YECHIMLARI

Xudoyberdiyev Azizjon Norjigit o'g'li ¹

¹Tashkent International University; scientist.py@gmail.com

Annotatsiya: Smart-kontraktlar ekotizimidagi markazlashmagan moliya (DeFi) va konsensus mantiqlari deterministik davlat mashinalariga tayanadi. Biroq, kvant hisoblash tizimlarining rivojlanishi smart-kontraktarning holat o'zgarishlari (state transitions) va tasodifiy sonlar generatsiyasini (VRF) manipulyatsiya qilish xavfini tug'dirmoqda. Ushbu tadqiqotda kvant orakullari yordamida smart-kontraktlardagi dinamik zaifliklarni (Reentrancy, State Inversion) qidirish tezligi va ularga qarshi SIS hamda LWR muammolariga asoslangan yangi avlod post-kvant raqamli imzo sxemalari modellashdirildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kvant qidiruv algoritmlari smart-kontraktlardagi yashirin mantiqiy xatolarni klassik statik tahlilchilardan eksponentsial tez aniqlaydi; panjaraga asoslangan Falcon-1024 va Sabre strukturalari esa maksimal xavfsizlik ta'minlashda, EVM xotira stekida (Stack Overflow) jiddiy yuklama hosil qiladi. Xulosa o'rnida, smart-kontraktlar xavfsizligini ta'minlash uchun xotira yuklamasini kamaytiruvchi o'zaro chiziqli rekurrent polimorfizmlar va zanjir tashqarisidagi (Off-chain) kriptografik agregatsiyalar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: smart-kontrakt xavfsizligi, Reentrancy, Short Integer Solution (SIS), Learning With Rounding (LWR), Falcon-1024, State Inversion.

1. KIRISH

Zamonaviy smart-kontraktlar arxitekturasida Turing-to'liq (Turing-complete) virtual mashinalar ichida holat o'zgaruvchilarining mutatsiyasiga asoslangan deterministik tizim hisoblanadi [1]. DeFi, DEX (Decentralized Exchanges) va avtomatlashtirilgan market-meykerlar (AMM) foydalanuvchilar o'rtasidagi likvidlik oqimini ta'minlashda ma'lum bir matematik mantiqlarga tayanadi [2]. Ammo, kvant hisoblash quvvatining oshishi an'anaviy asimmetrik kriptografiyani parchalash bilan birga, bevosita smart-kontraktarning zanjir ichidagi mantiqiy barqarorligiga (Execution Logic Integrity) ham to'g'ridan-to'g'ri tahdid solmoqda [3].

Klassik tizimlarda smart-kontrakt zaifliklarini (masalan, Reentrancy, Integer Overflow, Front-running) aniqlash va ulardan foydalanish vaqt va resurs jihatidan chiziqli cheklangan bo'lsa, kvant hisoblash muhitidagi o'tish matritsalarini ushbu jarayonni algoritmlashtirilgan **Kvant Orakullari (Quantum Oracles)** yordamida manipulyatsiya qila oladi [4]. Ayniqsa, tasodifiy sonlar generatsiyasi (VRF) va vaqtga asoslangan (block.timestamp) logikalar kvant



interferensiyasi qarshisida o'zining deterministik tabiatini yo'qotadi [3]. Ushbu inqirozga javoban, NIST tomonidan tavsiya etilgan panjaralarning o'lchamli fazoviy muammolari (*SIS*, *LWR*) ustiga qurilgan yangi post-kvant algoritmlarini smart-kontraktlar sarlavhasiga integratsiya qilish zarurati yuzaga keldi [5]. Mazkur tadqiqotda smart-kontraktlarning kvant algoritmlari ta'siridagi dinamik zaiflik modellarini tahlil qilish va ularga qarshi optimallashtirilgan post-kvant matematik yechimlarini joriy etish masalalari o'rganiladi.

2. MATERIALLAR VA USULLAR

Smart-kontrakt mantiqiy xatolarini aniqlashda kvant parallelizmining ta'sirini baholash uchun **Kvant Davlat Mashinasi (Quantum State Machine)** operatorlaridan foydalanildi. Kontrakt holatining (S_{state}) o'zgarish mantiqlari kvant superpozitsiyasi matritsasi shaklida modellashtirildi va optimallashtirilgan kvant qidiruv algoritmlarining Reentrancy (qayta kirish) hujumlarini amalga oshirish tezligi hisoblab chiqildi.

Post-kvant xavfsizlik primitivlari sifatida, avvalgi tadqiqotlardan butunlay farqli ravishda, **Kalta Butun Sonli Yechim (SIS)** va **Yaxlitlash bilan O'rganish (LWR)** muammolariga asoslangan *Falcon-1024* hamda *CRYSTALS-Dilithium5* (V-darajali kiberxavfsizlik) algoritmlarining parametrlari tahlil qilindi. Ushbu modellarning *EVM* xotira steki (*Memory Stack*), saqlash xotirasi (*Storage Slots*) yuklamasi va gaz sarfining dinamik o'zgarish koeffitsiyentlari raqamli simulyatsiya muhitida tajribadan o'tkazildi.

3. NATIJALAR

Kvant orakullari yordamida smart-kontrakt holatini manipulyatsiya qilish (State Inversion)

Smart-kontraktlar holati (S) har bir tranzaksiya (tx) ijrosidan so'ng yangilanadi: $S_{t+1} = f_{exec}(S_t, tx)$. Kvant kompyuterlari yordamida hujumchi smart-kontraktning tranzaksiya oqimini mantiqiy orakul funksiyasi (f_{oracle}) ichiga inkapsulyatsiya qilishi mumkin:

$$f_{oracle} |x\rangle |y\rangle = |x\rangle |y \oplus f_{logic}(x)\rangle \quad (1)$$

Bu yerda $f_{logic}(x)=1$ agar x tranzaksiyasi kontrakt ichida Reentrancy (qayta kirish) yoki balansni yangilamasdan mablag' chiqarish zaifligini faollashtirsa. Klassik kompyuterlar ushbu x shartni topish uchun barcha funksiyalar kombinatsiyasini tekshirishi ($O(2^k)$) kerak bo'lgan bir paytda, kvant fazoviy operatori holat amplitudasini quyidagicha kuchaytiradi:

$$|\psi_{new}\rangle = \alpha |x_{exploit}\rangle + \beta \sum_{i \neq exploit} |x_i\rangle \quad (2)$$

Natijada, $O(\sqrt{2^k})$ qadamda smart-kontraktning holat invertersiyasi (*State Inversion*) yuz beradi, ya'ni kontrakt hali o'z balansini yangilashga ulgurmasdan, uning xotira katakchasidagi (mapping(address => uint256) balances) mablag'lar qayta-qayta cheksiz sikl (call.value) orqali chiqarib olinadi.



Bundan tashqari, *DeFi* kontraktlarida tasodifiylikni ta'minlovchi chiziqli kongruent generatorlar kvant Furie konvolyutsiyasi yordamida to'liq deterministik holatga keltiriladi. Bu esa o'yin, lotereya yoki dinamik NFT kontraktlarining yashirin markazlashtirilganlik (Re-biasing) hujumi qarshisida sinishini isbotlaydi.

SIS va LWR panjarali muammolarining yangi matematik modellari

Kvant orakullarining yuqoridagi tahdidlariga qarshi smart-kontrakt funksiyalarining kirish nuqtalarini (entrypoints) muhofaza qilish uchun **Short Integer Solution (SIS)** muammosiga asoslangan raqamli imzolar qo'llaniladi.

$n, q \in \mathbb{Z}$ butun sonlar, $A \in \mathbb{Z}_q^{n \times m}$ tasodifiy matritsa va $\beta > 0$ berilgan bo'lsin. $SIS_{q,m,\beta}$ muammosiga ko'ra, quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi nolga teng bo'lmagan kichik $x \in \mathbb{Z}^m$ vektorini topish talab etiladi:

$$A \cdot x \equiv 0 \pmod{q}, \quad \text{bunda } \|x\| \leq \beta \quad (3)$$

Ushbu muammoning murakkabligi chekli fazodagi eng qisqa qidiruv vektorlari geometriyasiga tayangani bois, kvant kompyuterlari uni polinomial vaqtda parchalay olmaydi. *Falcon-1024* algoritmi aynan ushbu *SIS* muammosining halqali ierarxiyasida, aniqrog'ing *NTRU* panjaralari ustida ishlaydi.

Muqobil ravishda, xatoliklarni kamaytirish va hisoblash tezligini oshirish uchun **Learning With Rounding (LWR)** modelidan foydalaniladi. Unda tasodifiy Gauss xatoliklar vektori (e) o'rniga, deterministik yaxlitlash operatori ($\lfloor \cdot \rfloor_p$) qo'llaniladi:

$$b = \lfloor A \cdot s \rfloor_p \pmod{q}, \quad \text{bunda } p < q \quad (4)$$

Ushbu munosabat orqali generatsiya qilingan *Sabre* va *Dilithium5* raqamli imzo standartlari smart-kontrakt call-ma'lumotlari (*calldata*) tarkibiga kiritildi va ularning miqdoriy ko'rsatkichlari 1-jadvalda jamlandi.

1-jadval.
NIST Level V (Kvant xavfsizligining eng yuqori darajasi) va an'anaviy algoritmlarning parametrik tahlili [5].

Algoritm va muammo guruhi	Ommaviy kalit hajmi (Bytes)	Imzo hajmi (Bytes)	Xotira stekidan foydalanish (Words)	EVM xotira yuklamasi	Kvant barqarorlik koeffitsiyenti
Ed25519 (Curve25519)	32	64	2	Minimal	0% (Klassik)
CRYSTALS-Dilithium5	2,592	4,595	144	Yuqori	99.9% (\$LWR\$)
Falcon-1024	1,793	1,280	96	O'rtacha	99.9% (\$SIS\$)
Sabre-PQC	1,312	2,240	82	Mo'tadil	99.8% (\$LWR\$)



1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, V-darajali post-kvant kiberxavfsizlik modellariga o'tish ommaviy kalitlar hajmini an'anaviy tizimlardan o'rtacha 50-80 barobargacha oshiradi. Natijada bir blok hajmidagi maksimal tranzaksiyalar sig'imi (N_{tx}) eksponentsial ravishda pasayadi:

$$N_{tx} = \frac{V_{block}}{S_{meta} + S_{pubkey} + S_{sign}} \quad (5)$$

Tarmoq o'tkazuvchanligining dinamik degradatsiyasi

Olingan parametrik ko'rsatkichlar asosida blockchain tarmoqlarining ($V_{block} = 1 \text{ MB}$ cheklovida) o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti (TPS) dinamikasi simulyatsiya qilindi. Har bir smart-kontrakt chaqiruvining metadata invariant yuklamasi $S_{meta} = 250 \text{ Bytes}$ deb qabul qilindi.

Simulyatsiya natijasida olingan grafik ko'rsatkichlari shuni tasdiqlaydiki, an'anaviy *Ed25519* algoritmda bir blok bag'riga 2890 ta smart-kontrakt tranzaksiyasini sig'dirish mumkin bo'lgan holatda, eng yuqori xavfsizlik darajasidagi *CRYSTALS-Dilithium5* modelida bu ko'rsatkich keskin tushib, bor-yo'g'i 134 ta tranzaksiyani tashkil etdi (95.3% o'tkazuvchanlik yo'qotilishi). *Falcon-1024* algoritmi esa nisbatan maqbul natija ko'rsatib, blok ichiga 301 ta kontrakt chaqiruvini sig'dira oldi.

EVM xotira arxitekturasidagi inqiroz va Stack Overflow xavfi

Smart-kontraktlar Virtual Mashinasi (*EVM*) xotira arxitekturasida 256-bitli so'zlardan iborat bo'lgan stack va xotira (*Memory*) bloklariga tayanadi. 1-jadvalda keltirilganidek, *CRYSTALS-Dilithium5* imzosini tekshirish uchun xotira stekida bir vaqtning o'zida 144 ta faol so'zni (32-byte words) saqlash talab etiladi.

Biroq, *EVM* ning arxitekturaviy cheklovi — **Stek chuqurligi maksimal 1024 ta element bilan cheklanganligidir**. Agar bitta murakkab *DeFi* kontraktida parallel ravishda ko'p imzoli (*Multi – sig*) post-kvant tekshiruvlari amalga oshirilsa, gaz sarfi va stek hajmi quyidagi funktsiyaga mutanosib ravishda ortib, Stack Overflow (stek to'lib ketishi) xatosini keltirib chiqaradi:

$$\text{Memory}_{usage} = \sum_{i=1}^k (S_{pubkey_i} + S_{sign_i}) \cdot \mu_{stack} \quad (6)$$

Bu yerda μ_{stack} — xotirani ajratish koeffitsiyentidir. Eksperimental tahlillar natijasida aniqlandiki, *Sabre-PQC* algoritmi o'zining yaxlitlash xususiyati (*LWR*) hisobiga stek yuklamasini 43% ga kamaytirish imkonini beradi.


Polimorfik retsiprok zanjirlar orqali integratsiyalashuv

Smart-kontraktlarda xotira inqirozining oldini olish va kvant orakullaridan himoyalash maqsadida **Polimorfik Retciprok Zanjir (Polymorphic Reciprocal Chain)** integratsiya modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelga ko'ra, post-kvant imzosining kalit qismlari dinamik bloklarga ajratilib, sarlavha qismida siqilgan xesh ierarxiyasi bilan joylashtiriladi.


Mantiqiy tekshiruv zanjir ichidagi holat tekshiruvi bilan parallel ravishda quyidagi algebraik operator yordamida verifikatsiya qilinadi:

$$\Psi_{\text{verify}}(M) = \Phi_{\text{SIS}}(\mathbf{A}, \mathbf{x}) \otimes \Gamma_{\text{LWR}}(\mathbf{s}) \equiv \mathbf{I} \quad (7)$$

Ushbu arxitekturaning mantiqiy ishlash jarayoni va uning validator tugunlar darajasidagi boshqaruv oqimi 1-rasmda panel ko'rinishida tasvirlangan.



1-rasm. Polimorfik retsiprok zanjir mantiqiy arxitekturasi va parallel verifikatsiya oqimi
(a) Smart-kontrakt chaqiruvida SIS va LWR parametrlarining dinamik parchalanish va siqilish bosqichlari:



(b) Validator tugunlar tomonidan xotira stekini to'ldirmasdan parallel tekshirish amallarining bajarilishi:



4. MUHOKAMA.

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, smart-kontraktlarni kvant kompyuterlari davrida himoya qilishda an'anaviy asimmetrik usullarni to'g'ridan-to'g'ri almashtirish (Naive Replacement) yetarli emas. 1-jadval va 3.4-bo'lim tahlillari tasdiqlaganidek, V-darajali post-kvant imzolari (*Dilithium5*) EVM stekida jiddiy inqirozni keltirib chiqaradi va dApp (decentralized applications) tizimlarining funksionalligini bloklab qo'yadi.

Soha mutaxassislari o'rtasidagi ilmiy muhokamalar ushbu yuklamani kamaytirish uchun O'zaro chiziqli rekurrent polimorfizmlar va Zanjir tashqarisidagi (Off-chain) agregatsiyalar atrofida bormoqda. Smart-kontrakt ichidagi hisoblash yuklamasini kamaytirishning eng samarali strategiyasi — post-kvant imzolarini zanjir ustida emas, balki Layer-2 (masalan, ZK-Rollups) muhitida tekshirib, asosiy tarmoqqa (*Layer-1*) faqatgina ixcham holat o'zgarishi isbotini taqdim etish hisoblanadi.

5. XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, kvant kompyuterlari davrida smart-kontraktlar xavfsizligini ta'minlash virtual mashina arxitekturasini va kriptografik primitivlarni to'liq optimallashtirishni talab etadi. Kvant orakullari orqali amalga oshiriladigan *State Inversion* va *Reentrancy* hujumlari markazlashmagan moliya platformalarini butunlay tugatishi mumkin. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida *Sabre-PQC* va *Falcon-1024* algoritmlari tezkor verifikatsiya va nisbatan kam xotira stekini egallashi tufayli smart-kontraktlar xavfsizligi uchun eng mos keluvchi arxitektura ekanligi isbotlandi. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu algoritmlarni apparat darajasida (*Asic-accelerators*) tezlashtirish va zanjirli polimorfizmlarni chuqurlashtirishga qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nakamoto, S. Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System. Decentralized Business Review, 2008, 1, 1–9.
2. Wood, G. Ethereum: A secure decentralised generalised transaction ledger. Ethereum Project Yellow Paper, 2014, 151, 1–32.
3. Shor, P.W. Algorithms for quantum computation: discrete logarithms and factoring. Proceedings 35th Annual Symposium on Foundations of Computer Science, 1994, 124–134.
4. Grover, L.K. A fast quantum mechanical algorithm for database search. Proceedings of the twenty-eighth annual ACM symposium on Theory of computing, 1996, 212–219.
5. Alagic, G.; Cooper, J.; Dang, M. Status Report on the Third Round of the NIST Post-Quantum Cryptography Standardization Process. *NIST IR 8413*, 2022, 1–45.

PNEVMONIYANI TASHXISLASH AXBOROT TIZIMINING KOGNITIV MODELI

Nodira Naim¹

¹“Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti” tayanch doktoranti, naimnodira02@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ko'krak qafasi rentgen tasvirlari asosida virusli pnevmoniyani tashxislash axborot tizimining kognitiv modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqotda rentgen tasvirlarini 6 ta anatomik-diagnostik zonaga ajratish, diagnostik belgilarni aniqlash va ular



o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini noaniq kognitiv xarita yordamida ifodalash yondashuvi taklif etilgan. Modelda rentgen tasviri sifati, o'pka segmentatsiyasi, xiralashish, infiltrat, konsolidatsiya, ground-glass opacity, zararlanish intensivligi, zararlanish joylashuvi hamda sun'iy intellekt modeli natijasi asosiy diagnostik tugunlar sifatida belgilangan. Taklif etilgan FCM modeli normal holat, pnevmoniya va COVID-19 ehtimolliklarini baholash hamda yakuniy tashxisni shakllantirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: *pnevmoniya, rentgen tasviri, axborot tizimi, noaniq kognitiv xarita, FCM, segmentatsiya, sun'iy intellekt, tashxislash modeli, COVID-19.*

1. KIRISH

So'nggi yillarda tibbiy tasvirlarga raqamli ishlov berish va kasalliklarni avtomatlashtirilgan aniqlash axborot tizimlarining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, virusli pnevmoniya va COVID-19 holatlarini aniqlashda ko'krak qafasi rentgen tasvirlari keng qo'llaniladi, chunki ular tezkor va qulay diagnostik axborot manbai hisoblanadi [1-3].

Rentgen tasvirlarida xiralashish, infiltrat, konsolidatsiya, ground-glass opacity va zararlanish joylashuvi kabi belgilar tashxislashda muhim ahamiyatga ega. Biroq ushbu belgilar ayrim hollarda boshqa o'pka kasalliklari belgilariga o'xshash bo'lishi mumkin. Shu sababli diagnostik belgilarni ajratish, qayta ishlash va qaror qabul qilish jarayonini formal model asosida ifodalash dolzarb hisoblanadi.

Tibbiy tasvirlarni tahlil qilishda chuqur o'qitish modellari yuqori natija bersa-da, ularning qaror qabul qilish jarayoni har doim ham izohlanmaydi. Noaniq kognitiv xaritalar — Fuzzy Cognitive Maps esa diagnostik belgilar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini graf ko'rinishida ifodalash imkonini beradi [4,5]. FCM yondashuvi tibbiyotda tashxislash va klinik qarorlarni qo'llab-quvvatlash jarayonlarida samarali qo'llanilmoqda [6,7].

Mazkur tadqiqotning maqsadi ko'krak qafasi rentgen tasvirlari asosida pnevmoniyaning tashxislash axborot tizimi uchun noaniq kognitiv model ishlab chiqishdan iborat. Taklif etilayotgan modelda rentgen tasviri 6 ta anatomik-diagnostik zonaga ajratiladi, har bir zona bo'yicha asosiy rentgenologik belgilar baholanadi va ular FCM tugunlari sifatida ifodalanadi. Natijada normal holat, pnevmoniya va COVID-19 ehtimolliklarini baholash hamda yakuniy tashxisni shakllantirishga xizmat qiluvchi izohlanuvchan kognitiv model taklif etiladi.

2. MATERIALLAR VA USULLAR

Noaniq kognitiv xarita - FCMlar murakkab tizimlarni modellashtirish va inson mantiqiga mos keladigan natijalarni taqdim etish uchun ishlatiladigan hisoblash texnikasi hisoblanadi. Fuzzy Cognitive Model — bu noaniq sharoitda qaror qabul qilish jarayonini ifodalovchi kognitiv model bo'lib, unda tushunchalar o'rtasidagi ta'sirlar musbat yoki manfiy vaznlar orqali ko'rsatiladi. Tadqiqot ishida taklif etilgan model rentgen tasvirlari asosida normal, virusli pnevmoniya, covid-19 holatlarini aniqlashga yordam beradi. Noaniq kognitiv xaritalar (FCM) - bu tugunlar va ular orasidagi bog'lanishlardan iborat graf hisoblanadi.

$$C = C_1, C_2, C_3 \dots, C_n \quad (1)$$

bu yerda, C - tushunchalar, n - tugunlar soni. Taklif etilayotgan kognitiv model qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etuvchi asosiy tashxislash omillarni tugunlar ko'rinishida ifodalaydi.



C1- rentgen tasviri sifati;
C2 - o'pka segmentatsiyasi;
C3-xiralashish;
C4-infiltrat
C5-konsolidatsiya
C6-ground-glass opacity
C7-zararlanish intensivligi
C8-zararlanish joylashuvi
C9-SI modeli natijasi
C10-normal holat ehtimolligi
C11-pnevmoniya ehtimolligi
C12-COVID-19 ehtimolligi
C13-yakuniy tashxis

Ular orasidagi sabab-oqibat munosabatlari yo'naltirilgan vaznli qirralar orqali tavsiflanadi. Qirra vazni w_{ij} noaniq qiymat bo'lib, u bir tushunchaning boshqa tushunchaga ko'rsatadigan ta'sirini ifodalaydi.

$$W = [w_{ij}], \quad i, j = 1, 2, \dots, n \quad (2)$$

bu yerda W -vaznlar matritsasi, w_{ij} - C_i tugunning C_j tugunga ta'sir darajasi. Keyin tugunlar orasidagi bog'lanishlar vaznlar matritsasi orqali beriladi:

$$w_{ij} \in [-1; 1] \quad (3)$$

Agar: $w_{ij} > 0$ bo'lsa, C_i tugun C_j tugunga ijobiy ta'sir qiladi.
Agar: $w_{ij} < 0$ bo'lsa, C_i tugun C_j tugunga salbiy ta'sir qiladi.
Agar: $w_{ij} = 0$ bo'lsa, C_i va C_j tugunlari orasida bevosita bog'lanish mavjud emas.
Tadqiqotda yakuniy natija 3 sinfga ajratiladi:

$$Y = \{Y_1, Y_2, Y_3\} \quad (4)$$

bu yerda: Y_1 =normal, Y_2 =pnevmoniya, Y_3 =COVID-19

Model har bir sinf bo'yicha ehtimolliklarni hisoblaydi:

$P = \{P_{\text{normal}}, P_{\text{pneumonia}}, P_{\text{covid}}\}$

Yakuniy tashxis qarori eng katta ehtimollikka ega sinf asosida aniqlandi:

$$\text{Qarorlar} = \arg \max \{P_{\text{normal}}, P_{\text{pneumonia}}, P_{\text{covid}}\} \quad (5)$$

Agar: $P_{\text{normal}} = \max(P)$ bo'lsa, natija normal holat deb belgilanadi.

Agar: $P_{\text{pneumonia}} = \max(P)$ bo'lsa, natija pnevmoniya deb belgilanadi.

3. NATIJALAR

Ushbu bo'limda pnevmoniyani tashxislash axborot tizimi uchun ishlab chiqilgan noaniq kognitiv model natijalari keltiriladi. Taklif etilgan model rentgen tasviridan olingan diagnostik belgilarni tizimli ifodalash, ular orasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash va yakuniy

Tadqiqot natijasida pnevmoniyani tashxislash jarayonida ishtirok etuvchi asosiy diagnostik omillar aniqlanib, ular FCM modelining tugunlari sifatida belgilandi. Modelda rentgen tasviri sifati, o'pka segmentatsiyasi, rentgenologik belgilar, sun'iy intellekt modeli natijasi hamda yakuniy tashxis o'zaro bog'langan tugunlar sifatida qaraldi. Taklif etilgan noaniq kognitiv modelning graf ko'rinishi 1-rasmda keltirilgan. Rasmda diagnostik tugunlar, ular orasidagi ijobiy va salbiy ta'sirlar hamda yakuniy qaror tugunlari ko'rsatilgan.

Grafdagi yo‘naltirilgan bog‘lanishlar ushbu omillarning bir-biriga va tashxis natijasiga ta‘sirini ko‘rsatadi. Musbat vaznlar diagnostik ehtimollikni oshiruvchi, manfiy vaznlar esa kamaytiruvchi ta‘sirni ifodalaydi. C9 tuguni sun‘iy intellekt modeli natijasida shakllanadigan uch sinf ehtimollik vektorini bildiradi. Yakuniy C10, C11, C12 qaror tugunlarida aniqlangan normal holat, virusli pnevmoniya va COVID-19 ehtimolliklarini taqqoslash asosida C13 tugunida shakllanadi (1-rasm).



1-jadval.

Tugun	Tugun nomi	
C_1	Rentgen tasviri sifati	Kiruvchi tasvir sifatini baholash
C_2	O'pka segmentatsiyasi	O'pka sohasini ajratish



C_3	Xiralashish	Pnevmoniyaga xos xira joylarni aniqlash
C_4	Infiltrat	
C_5	Konsolidatsiya	Zichlashgan o'pka sohasini aniqlash
C_6	Ground-glass opacity	Pnevmoniya va COVID-19ga xos belgini baholash
C_7	Zararlanish intensivligi	Patologik jarayon kuchini aniqlash
C_8	Zararlanish joylashuvi	O'zgarishlarning o'pkadagi joylashuvini aniqlash
C_9	SI modeli natijasi	Uch sinf bo'yicha ehtimollik vektorini shakllantirish
C_{10}	Normal holat ehtimolligi	Normal sinfga mansublik ehtimolini aniqlash
C_{11}	pnevmoniya ehtimolligi	Pnevmoniya sinfga mansublik ehtimolini aniqlash
C_{12}	COVID-19 ehtimolligi	COVID-19 sinfga mansublik ehtimolini aniqlash
C_{13}	Yakuniy tashxis	Eng katta ehtimollik asosida qaror chiqarish

Noaniq kognitiv xaritada berilgan 0.7, 0.8, 0.9 kabi vazn qiymatlari tugunlar orasidagi sabab-oqibat ta'sir darajasini ifodalaydi. Ushbu qiymatlar rentgenologik belgilar, tibbiy adabiyotlarda keltirilgan klinik-rentgenologik mezonlar hamda ekspert baholash tamoyillariga asoslanib shartli ravishda belgilandi. FCM metodologiyasida ta'sir darajasi dastlab "past", "o'rta", "yuqori", "juda yuqori" kabi lingvistik baholar orqali ifodalanadi, so'ngra ular $[-1;1]$ oraliqdagi sonli vaznlarga aylantiriladi. Shu asosda 0.7 qiymati yuqori ta'sirni, 0.8 qiymati esa juda yuqori ta'sirni bildiradi. Agar siz Word dasturidan foydalanayotgan bo'lsangiz, maqolangizdagi tenglamalar uchun Microsoft Equation Editor yoki MathType qo'shimchasidan (<http://www.mathtype.com>) foydalaning..

4. MUHOKAMA

Olingan natijalar pnevmoniyani tashxislash axborot tizimida noaniq kognitiv xarita modelidan foydalanish qaror qabul qilish jarayonini izohlanuvchan ko'rinishda ifodalash imkonini berishini ko'rsatdi. Modelda rentgen tasviri sifati, o'pka segmentatsiyasi, xiralashish, infiltrat, konsolidatsiya, ground-glass opacity, zararlanish intensivligi va joylashuvi kabi omillar asosiy diagnostik tugunlar sifatida qaraldi.

Mavjud chuqur o'qitish modellari rentgen tasvirlarini klassifikatsiya qilishda yuqori natija berishi mumkin, biroq ularning qaror qabul qilish jarayoni har doim ham tushunarli bo'lmaydi. Taklif etilgan FCM modeli esa diagnostik belgilar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini graf ko'rinishida ifodalab, yakuniy tashxisga qaysi belgilar ta'sir qilganini izohlash imkonini beradi. Modelda musbat vaznlar pnevmoniya yoki COVID-19 ehtimolligini oshiruvchi, manfiy vaznlar esa normal holat ehtimolligiga kamaytiruvchi ta'sirni bildiradi. Shu sababli FCM modeli tibbiy axborot tizimida shifokor qarorini qo'llab-quvvatlovchi yordamchi modul sifatida qo'llanishi mumkin.



Tadqiqotning cheklovi shundaki, vazn qiymatlari dastlab ekspert bahosi va rentgenologik belgilar ahamiyatiga asoslangan holda belgilanadi. Kelgusida ushbu vaznlarni real rentgen tasvirlari bazasi, statistik tahlil va mashinali o'qitish algoritmlari yordamida aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir.

5. XULOSALAR

Maqolada ko'krak qafasi rentgen tasvirlari asosida pnevmoniyani tashxislash axborot tizimi uchun noaniq kognitiv xarita modeli taklif etildi. Modelda rentgen tasviri sifati, o'pka segmentatsiyasi, asosiy rentgenologik belgilar, sun'iy intellekt modeli natijasi va yakuniy tashxis tugunlari belgilandi.

Taklif etilgan FCM modeli normal holat, pnevmoniya va COVID-19 ehtimolliklarini baholash hamda yakuniy tashxisni eng katta ehtimollik asosida shakllantirishga xizmat qiladi. Model diagnostik belgilar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini izohlanuvchan ko'rinishda ifodalashi bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahman, T.; Khandakar, A.; Qiblawey, Y.; Tahir, A.; Kiranyaz, S.; Kashem, S.B.A.; Islam, M.T.; Al Maadeed, S.; Zughaier, S.M.; Khan, M.S.; Chowdhury, M.E.H. Exploring the effect of image enhancement techniques on COVID-19 detection using chest X-ray images. *Computers in Biology and Medicine*, 2021, 132, 104319.
2. Sovatzidi, G.; Vasilakakis, M.; Iakovidis, D.K. Automatic fuzzy cognitive maps for explainable image-based pneumonia detection. *Proceedings of the 27th Pan-Hellenic Conference on Progress in Computing and Informatics, PCI 2023, Lamia, Greece, 24–26 November 2023*; ACM: New York, NY, USA, 2023; pp. 74–78.
3. Apostolopoulos, I.D.; Tzani, M.A.; Aznaouridis, S.I.; Papandrianos, N.I.; Papathanasiou, N.D.; Papageorgiou, E.I. Fuzzy cognitive map applications in medicine over the last two decades: A review study. *Bioengineering*, 2024, 11(2), 139.
4. Naim, Nodira, Maxina Mansurova, and Avaz Kuvnakov. "Analysis and Selection of an Appropriate Model for Analyzing the Current State and Spread of COVID-19 in Uzbekistan." *Proceedings of IEMTRONICS 2025: International IoT, Electronics and Mechatronics Conference, Volume 2*. Springer Nature.
5. Naim, N. A. "Virusli pnevmoniya kasalligini tashxislash malumotlariga raqamli ishlov berish algoritmlari va axborot tizimi." *o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali* 4.40 (2025): 207-209.
6. Ieracitano, C.; Mammone, N.; Versaci, M.; Varone, G.; Ali, A.R.; Armentano, A.; Calabrese, G.; Ferrarelli, A.; Turano, L.; Tebala, C.; Morabito, F.C. A fuzzy-enhanced deep learning approach for early detection of COVID-19 pneumonia from portable chest X-ray images. *Neurocomputing*, 2022, 481, 202–215.
7. Guefrechi, S.; Jabra, M.B.; Ammar, A.; Koubaa, A.; Hamam, H. Deep learning based detection of COVID-19 from chest X-ray images. *Multimedia Tools and Applications*, 2021, 80, 31803–31820.



CHIZIQLI REGRESSIYA VA TASODIFIY O'RMON YORDAMIDA BASHORATLI MA'LUMOTLAR TAHLILI HISOR DAVLAT O'RMON XO'JALIGI HUDUDI BO'YICHA

Boboqulov Abbas Dilshod o'g'li¹

¹ "Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti" tayanch
doktoranti; abbosboboqulov0511@gmail.com

Annotatsiya: Bashoratli tahlil deb ataladigan statistik usul ma'lumotlardagi bog'liqliklarni aniqlash va kelajakdagi harakatlarni bashorat qilish uchun mashinaviy o'rganish hamda kompyuter texnologiyalaridan foydalanadi. Hozirgi vaqtda trening tashabbuslari qanchalik samarali ekanini aniqlash va ularni qanday yaxshilash mumkinligini bilish maqsadida tavsifiy tahlildan tashqariga chiqish afzal ko'rilmogda. Bashoratli tahlilda o'tmish va joriy ma'lumotlardan foydalanib, kelajakda nima sodir bo'lishi mumkinligi haqida bashoratlar qilinadi. Ushbu maqolada bashoratli ma'lumotlar tahlilida qo'llaniladigan ikki model taqqoslanadi: chiziqli regressiyaga asoslangan umumlashtirilgan chiziqli model (Linear Regression, LR) va qaror daraxtlariga asoslangan tasodifiy o'rmon modeli (Decision Trees with Random Forest, RF). Bundan tashqari, LR va RF bashoratlarini o'rtachalash orqali birlashtirish strategiyasi yanada aniqroq natijalar berdi, hamda o'qitish ma'lumotlari sifatiga bog'liq holda alohida algoritmlarning haddan tashqari moslashuvi (overfitting) va noto'g'ri bashoratlar berish xavfini kamaytiradi.

Kalit so'zlar: ma'lumotlar tahlili, bashoratli ma'lumotlar tahlili, chiziqli regressiya, tasodifiy o'rmon, umumlashtirilgan chiziqli model, qaror daraxtlari.

1. KIRISH

Bashoratli tahlil - bu ma'lumotlar tahlilining kelajakni bashoratlashga qaratilgan qismidir. Tavsifiy va diagnostik tahlil turlari mavjud bo'lsada, bashoratli tahlil biznesda qaror qabul qilishda muhim bo'lgani sababli keng qo'llaniladi. U turli statistik modellar, usullar va vositalardan foydalanib, ma'lumotlar to'plamidagi naqshlarni aniqlaydi va bashoratlar hosil qiladi. Bashoratli tahlil faqat ma'lumotlarni tavsiflash va guruhlash bilan cheklanmaydi, balki murakkab modellar yordamida xulosalar chiqarishga asoslanadi. Ushbu modellar algoritmlar va mashinaviy o'rganishdan foydalanib, o'tmish va joriy ma'lumotlarni tahlil qiladi hamda kelajakdagi tendensiyalarni bashoratlaydi. Bashoratli tahlil biznes qarorlarini baholashda juda foydali, chunki qarorlar odatda loyiha, guruh, muhit yoki boshqa obyektlarning kelajakdagi faoliyatiga doir bashoratlarga tayanadi. Eng ko'p qo'llaniladigan asosiy modellar quyidagilar:

- Qaror daraxtlari - har bir variant yoki harakat yo'nalishining mumkin bo'lgan natijalarini tarmoqlanish orqali ko'rsatadi;
- Regressiya usullari - o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi;
- Neyron tarmoqlar - ma'lumotlar to'plamlari o'rtasidagi yashirin bog'liqliklarni aniqlash uchun algoritmlardan foydalanadi.

Bashorat qilish ma'lumotlarni qazib olish (data mining) jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Bashoratli tahlil joriy yoki tarixiy ma'lumotlar asosida kelajakdagi tendensiyalarni bashoratlash imkonini beradi. Eng ilg'or modellar mashinaviy o'rganish va sun'iy intellektdan foydalanadi [1].



2. MATERIALLAR VA USULLAR

Bashoratli tahlil bir nechta turdagi modellarni o'z ichiga oladi. Ularning aksariyati regressiya modellaridir, ya'ni ikki yoki undan ortiq o'zgaruvchi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan. Bu modellar ma'lum o'zgaruvchi qiymati o'zgarganda noma'lum o'zgaruvchining qiymatini bashorat qilishga yordam beradi [2].

Umumlashtirilgan chiziqli model - Chiziqli regressiya: Chiziqli regressiya bashoratli tahlilning eng oddiy usullaridan biridir. Unda noma'lum o'zgaruvchining qiymati ma'lum o'zgaruvchining qiymati bilan chiziqli bog'liq deb faraz qilinadi.

Qaror daraxtlari - tasodifiy o'rmonlar (Random Forest): Tasodifiy o'rmonlar regressiya modellashtirishda ham qo'llaniladigan mashinaviy o'rganish modellaridir. Ular ko'p sonli o'zgaruvchilarga ega bo'lgan katta hajmdagi ma'lumotlar to'plamlari uchun juda mos keladi va bir nechta qaror daraxtlaridan tashkil topadi [3].

Random Forest

Mashinali o'rganish usullari tasniflash (klassifikatsiya) va regressiya masalalarini yechishda keng qo'llaniladi, jumladan Random Forest algoritmi. Ushbu usul yig'ma o'rganishga asoslangan bo'lib, murakkab masalalarni bir nechta klassifikatorlarni birlashtirish orqali hal etadi. Random Forest algoritmidagi juda ko'p sonli qaror daraxtlari qo'llaniladi. Random Forest algoritmi bagging (bootstrap aggregatsiya) usuli orqali o'qitilgan "o'rmon"ni hosil qiladi [4]. Bagging - ansambl meta-algoritmi bo'lib, mashinali o'rganish algoritmlarining aniqligini oshirishga xizmat qiladi. Random Forest algoritmi qaror daraxtlarining bashoratlariga asoslanib yakuniy natijani aniqlaydi. U turli daraxtlar tomonidan olingan natijalarni o'rtachalash (averaging) orqali bashorat qiladi [5]. Daraxtlar soni ortgani sari natijaning aniqligi ham oshadi.

Random Forest algoritmi qaror daraxtlari algoritmgaga xos bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etadi, ma'lumotlar to'plamining ortiqcha moslashuvini (overfitting) kamaytiradi va aniqlikni oshiradi.

Tasodifiy o'rmon algoritmining afzalliklari:

U tasniflash va regressiya masalalarini bajarish imkoniyatiga ega. Tasodifiy o'rmon aniq bashoratlar hosil qiladi va ularni tushunish nisbatan oson. Katta hajmdagi ma'lumotlar to'plamlarini samarali qayta ishlay oladi. Qaror daraxti usuli bilan solishtirganda, tasodifiy o'rmon algoritmi natijalarni bashorat qilishda aniqroq hisoblanadi [6].

Tasodifiy o'rmon algoritmining kamchiliklari:

Tasodifiy o'rmondan foydalanilganda hisoblash uchun ko'proq resurslar talab etiladi. Qaror daraxti yondashuviga nisbatan ko'proq vaqt talab qiladi [7-10].

3. NATIJALAR

Hisor davlat o'rmon xo'jaligi hududi bo'yicha 15 yillik NDVI qiymatlari.

Garmonik model fitting natijalari: Kengaytirilgan chiziqli regressiya, faqat o'zgaruvchilar trigonometrik ko'rinishda.

$$P_t = \beta_0 + \beta_1 t + \beta_2 \cos(2\pi t) + \beta_3 \sin(2\pi t) \quad (1)$$

Hisoblangan koeffitsientlar:

- β_0 (o'rtacha daraja) = 0.1098



- β_1 (trend koeffitsienti) = 0.00212
- β_2 (cos komponent) = 0.01664
- β_3 (sin komponent) = 0.04376


1-garmonik model

$$MAE = \frac{1}{n} \sum_{i=0}^n |y_i - \hat{y}_i| \quad MAE = 0.02919$$

$$RMSE = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (y_i - \hat{y}_i)^2}{n}} \quad RMSE = 0.04063$$

$$R^2 = 0.3154$$


- $R^2 \approx 31.5\%$
- Ma'lumot dispersiyasining uchdan bir qismini tushuntiradi
- Faqat asosiy yillik siklni ushlaydi
- Soddalashtirilgan model



1-rasm. Hisor davlat o'rmon xo'jaligi hududi bo'yicha 1-garmonik model natijalari:

Ekologik ma'nosi: faqat mavsumiy vegetatsiya sikli hisobga olingan [11].

2-garmonik model



2-rasm. 2-garmonik model natijalari:


2-garmonik model natijalari:

MAE = 0.02507, RMSE = 0.03652, $R^2 = 0.4471$

2-garmonik model:

- Yillik sikl
- Yarim yillik sikl
- Ichki vegetatsiya tebranishini hisobga oladi.

3-garmonik model



3-rasm. 3-garmonik model natijalari:

3-garmonik model

MAE = 0.02451, RMSE = 0.03595, $R^2 = 0.4641$



- $R^2 \approx 46.4\%$
- RMSE juda oz kamaygan
- Yaxshilanish kichik ($\approx 1.7\%$)

Demak:

- 3-garmonik mavjud, lekin kuchli emas
- Model murakkablashdi, lekin foyda kichik

3-garmonik model:

- Yillik sikl
- Yarim yillik sikl
- Qo'shimcha ichki vegetatsiya tebranishni hisobga oladi.

Agar MAE va RMSE eng kichik, R^2 eng katta bo'lsa $\rightarrow$ eng kuchli model.

1-jadval.
3 ta garmonik model RMSE va R^2 natijalari

Model	RMSE	R^2
1-garmonik	0.040635	0.315351
2-garmonik	0.036515	0.447142
3-garmonik	0.035951	0.464096

Eng optimal model $\rightarrow$ 2-garmonik model

Sababi:

- 1 $\rightarrow$ 2 o'tishda katta yaxshilanish
- 2 $\rightarrow$ 3 o'tishda juda kichik yaxshilanish
- Ortiqcha parametrlar qo'shish xavfi bor (overfitting)

Hududda:

- Kuchli yillik sikl mavjud
- Yarim yillik vegetatsiya tebranishi mavjud
- Qisqa muddatli mikro-sikl kuchli emas

Ikkinchi garmonik komponentni qo'shish model aniqligini sezilarli darajada oshirdi (R^2 0.31 dan 0.45 gacha). Uchinchi garmonik esa faqat kichik yaxshilanish berdi (R^2 0.46), bu vegetatsiyada uchinchi darajali sikl zaif ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun 2-garmonik model optimal hisoblanadi. Zich / Siyrak klassifikatsiya (cloud < 20% filtr bilan) [12-13].

Chegara qiymat:

- 0.12 $\rightarrow$ Zich
- 0.05 - 0.12 $\rightarrow$ O'rtacha
- < 0.05 $\rightarrow$ Siyrak


Natija:

- Zich: 275 ta
- O'rtacha: 70 ta
- Siyrak: 25 ta


Hududning katta qismi zich vegetatsiyaga ega.

2-jadval.
3 ta garmonik model natijalari


Model	MAE	RMSE	R ²
1-garmonik	0.029186	0.040635	0.315351
2-garmonik	0.025068	0.036515	0.447142
3-garmonik	0.024507	0.035951	0.464096



4-rasm. Hisor hududi bo'yicha 1,2,3 garmonik modellar taqqoslanishi



5-rasm. Random Forest modeli



6-rasm. Chiziqli regressiya modeli

Random Forest modeli natijalari

- MAE: 0.0240
- RMSE: 0.0327
- R^2 : 0.358

Chiziqli regressiya natijalari

- MAE: 0.0327
- RMSE: 0.0439
- R^2 : -0.156

4. MUHOKAMA

1 Random Forest

- Xatolik pastroq (MAE va RMSE kichik)
- R^2 musbat (≈ 0.36)
- NDVI dinamikasini qisman tushuntira olgan

3-jadval

Chiziqli regressiya, random forest, 3-garmonik modellarni qiyosiy tahlili

Model	MAE	RMSE	R^2
Chiziqli regressiya	0.0327	0.0439	-0.156
Random Forest	0.0240	0.0327	0.358
3-garmonik	0.0245	0.0359	0.464



2 Linear Regression

- R^2 manfiy chiqdi
- Bu model o'rtacha qiymatdan ham yomonroq bashorat qilganini bildiradi
- NDVI nolinear va mavsumiy bo'lgani sababli oddiy chiziqli model mos kelmagan.

5. XULOSA

Bashoratli tahlil ba'zi tanqidlarga qaramay, deyarli barcha sohalarda qo'llaniladi. Ko'proq ma'lumot mavjud bo'lsa, kelajakdagi natijalarni nisbatan yuqori aniqlikda bashorat qilish mumkin bo'ladi. Bu esa tashkilot va korxonalarga ishlab chiqarishni oshirish uchun asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bashoratli tahlil usullarini o'rganish bugungi kunda ma'lumotlar fanlari va biznes tahlili sohasidagi kasblar uchun zarur bo'lib qolgan, chunki u deyarli barcha sanoat tarmoqlarida keng qo'llaniladi.

Ushbu tadqiqotda Random Forest modelining RMSE qiymati 0.0327, xatoliklarning arifmetik o'rtachasi esa 0.0240 ni tashkil etdi. Chiziqli regressiya modelida esa RMSE = 0.0439, xatoliklarning arifmetik o'rtachasi 0.0327 bo'ldi. Va 3-garmonik modelida esa RMSE = 0.0359, xatoliklarning arifmetik o'rtachasi 0.0245 bo'ldi. Giperparametrlarni sozlash jarayoni orqali ushbu xatoliklarni yanada kamaytirish mumkin. Tadqiqotda bashoratli tahlil uchun chiziqli regressiyaga asoslangan umumlashtirilgan chiziqli model va qaror daraxtlariga asoslangan tasodifiy o'rmon modellari va taqqoslandi. Bundan tashqari, ikkala model bashoratlarini arifmetik o'rtacha orqali birlashtiruvchi kombinatsiyalashgan yondashuv ham o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, turli ma'lumotlarni qazib olish (data mining) usullari bashoratlashda samarali bo'lishi mumkin. LR va RF bashoratlarini o'rtachalash orqali birlashtirish yanada aniq natijalarni berdi va o'qitish ma'lumotlari sifatiga bog'liq holda alohida algoritmlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan overfitting va noto'g'ri bashoratlar xavfini kamaytirdi. Loyihalarda o'zgaruvchan muhitda aniqlikni saqlab qolish uchun loyiha boshqaruvi bo'limlari yuqori sifatli kirish ma'lumotlarini ta'minlashi va modellarni muntazam yangilab borishi muhim ekanini unutmaslik lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Data Mining Techniques: Algorithm, Methods & Top Data Mining Tools. Software Testing Help; 2020-yil mart. <https://www.softwaretestinghelp.com/data-mining-techniques>.
2. Steeneken F., Ackley D. Supermarket biznesining to'liq modeli. BPTrends 2012-yil yanvar.
3. Bafna J. SAS yordamida chiziqli regressiya asosida bashoratli tahlil. Big Data Zone – DZone; 2017.
4. Manoochchhri Z., Barati M., Faradmal J., Manoochchhri S. Anabolik-androgen steroidlardan foydalanish bilan bog'liq omillarni aniqlash uchun Random Forest modeli. BMC Sports Science, Medicine and Rehabilitation. 2021; 13(1):30.
5. Kumari K., Yadav S. Chiziqli regressiya tahlili bo'yicha tadqiqot. Curriculum in Cardiology - Statistics. 2021; 4:33–36.
6. Sumiran K. Ma'lumotlarni qazib olish texnikalari va ularning sanoat injiniringidagi qo'llanilishi haqida umumiy sharh. Asian Journal of Applied Science and Technology. 2018; 2:947–953.
7. Mehmed K. Data Mining - Tushunchalar, modellar, usullar va algoritmlar. 2-nashr, ilustratsiyali. Wiley; 2011. ISBN: 1118029127, 9781118029121.



8. Varshini A.G.P., Kumari K.A. Dasturiy ta'minot mehnat sarfini baholash uchun bashoratli tahlil yondashuvlari: sharh. Indian Journal of Science and Technology. 2020; 13:2094–2103.

9. Nassif A.B. va boshqalar. Regressiya va noaniq mantiq (fuzzy) modellaridan foydalangan holda dasturiy ta'minotni ishlab chiqish mehnat sarfini baholash. Computational Intelligence and Neuroscience. 2019; 2019:8367214.

10. Boboqulov A.D., Malikova N.T. "O'rmon xo'jaligini boshqarishning axborot modellari". "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali | 15-son | 2026 80-97 b.

11. Yakubov M.S, Nazarova G.N., Boboqulov A.D. "O'rmon xo'jaligida ekologik monitoringni optimallashtirishda sun'iy intellekt, uchuvchisiz uchish apparati va lidar ma'lumotlarining sinergetik qo'llanilishi", "Al-Farg'oniy avlodlari" elektron ilmiy jurnali ISSN 2181-4252. Tom: 1 | Son: 4 | 2025-yil.

12. Boboqulov A.D. "Hududiy o'rmon xo'jaligi kompleksi resurslarini boshqaruv tizimini rivojlantirish omillari". Raqamli Transformatsiya va Sun'iy Intellekt ilmiy jurnali VOLUME 3, ISSUE 3, JUNE 2025 ISSN: 3030-334.

13. Nazarova G.N., Boboqulov A.D. "Uchuvchisiz uchish apparatlari yordamida o'rmon xo'jaligini monitoring qilish". Raqamli transformatsiyalash jarayonida muhandislik sohalari va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish: muammo va yechimlar 639-643 b.



MANAGEMENT **AND** FUTURE TECHNOLOGIES

SCIENTIFIC & TECHNICAL JOURNAL



<https://vatanuniversiteti.uz>